IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: VR44896426

UZMETKOMBINAT

Davlat xarıdlari sohasidagi normativ hujjatlar talablalari va normalari

ILG5739

Bekobod – 2026y.

Mundarıja

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI DAVLAT XARIDLARI TO‘G‘RISIDA 3

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI DAVLAT XARIDLARI QIYMATINI BAHOLASHNING SHAFFOF TIZIMINI JORIY ETISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA.....44

DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA RAQOBAT MUHITI VA SHAFFOFLIKNI TA’MINLASH BO‘YICHA NAVBATDAGI CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA 67

DAVLAT KORXONALARIDA TANNARXNI KAMAYTIRISH VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA.....98

ILG5739

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI **DAVLAT XARIDLARI TO‘G‘RISIDA**

Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 1-dekabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2021-yil 12-martda ma’qullangan.

ILG5739

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi davlat xaridlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Ushbu Qonunning amal qilish sohasi

Ushbu Qonunning amal qilishi:

O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturida va boshqa davlat dasturlarida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan loyihalarni ro‘yobga chiqarish chog‘ida amalga oshiriladigan davlat xaridlariga;

davlat buyurtmachilarining xo‘jalik faoliyatini yuritish chog‘ida amalga oshiriladigan davlat xaridlariga;

O‘zbekiston Respublikasining budjet tizimi budjetlarining, shuningdek budjet tashkilotlarida tashkil etilgan boshqa jamg‘armalarning mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan davlat xaridlariga;

agar donor mamlakatlarning, xalqaro tashkilotlarning, chet el hukumat va nohukumat tashkilotlarining tartib-taomillarida yoki O‘zbekiston Respublikasiga taqdim etiladigan chet el kreditlarini va chet el grantlarini, texnik ko‘makni va boshqa tashqi beg‘araz ko‘makni taqdim etish shartlarida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilishning boshqacha tartibi belgilanmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan donor mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar, chet el hukumat va nohukumat tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalar doirasida taqdim etiladigan chet el grantlari, texnik ko‘mak va boshqa tashqi beg‘araz ko‘mak mablag‘lari hamda O‘zbekiston Respublikasiga beriladigan chet el kreditlari hisobidan moliyalashtiriladigan davlat xaridlariga. Bunda donor mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar, chet el hukumat va nohukumat tashkilotlar tomonidan, belgilangan tartib-taomillarda yoki O‘zbekiston Respublikasiga taqdim etiladigan chet el kreditlarini va chet el grantlarini, texnik ko‘makni va boshqa tashqi beg‘araz ko‘makni taqdim etish shartlarida belgilangan tartib-taomillardan qat’i nazar, davlat xaridlari natijalari to‘g‘risidagi axborot maxsus axborot portalida e’lon qilinadi;

agar moliyaviy, gumanitar yoki xayriya yordamini taqdim etish hamda boshqa beg‘araz, qaytarilmaydigan tarzda moliyalashtirish shartlarida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilishning boshqacha tartibi belgilanmagan bo‘lsa, moliyaviy, gumanitar yoki xayriya yordami hisobidan hamda boshqa beg‘araz, qaytarilmaydigan tarzda moliyalashtiriladigan davlat xaridlariga nisbatan tatbiq etiladi. Bunda moliyaviy, gumanitar yoki xayriya ko‘makni hamda boshqa beg‘araz qaytarilmaydigan moliyalashtirishni taqdim etish shartlarida belgilangan tartib-taomillardan qat’i nazar, davlat xaridlari natijalari to‘g‘risidagi axborot maxsus axborot portalida e’lon qilinadi.

Davlat tomonidan qo‘riqlanishi lozim bo‘lgan shaxslarning xavfsizligini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasida mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni ta’minlash va ichki tartibni saqlash uchun davlat xaridlari, davlat sirlari bilan bog‘liq bo‘lgan davlat xaridlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari saylovlariga, O‘zbekiston Respublikasining referendumlariga tayyorgarlik ko‘rish hamda ularni o‘tkazish uchun davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

Ushbu Qonunning amal qilishi banklarni sanatsiya qilish va tugatish bilan bog‘liq munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Ushbu Qonunning talablari ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan kredit tashkilotlari tomonidan islomiy moliya faoliyati doirasida mijozga topshirish va likvidlik jalb qilish maqsadida amalga oshiriladigan xaridlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni bilan maxsus huquqiy rejim o‘rnatilgan hududda davlat xaridlari sohasidagi munosabatlar ushbu Qonunda belgilanganidan boshqacha qoidalar bilan tartibga solinadi.

3-modda. Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik

Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

4-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

benefitsiar mulkdor — pirovardida mulk huquqlariga egalik qiladigan yoki tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchini amalda nazorat qiladigan jismoniy shaxs;

boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion — davlat xaridlari elektron tizimining maxsus platformasida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli bo‘lib, uni tashkil etish chog‘ida narx g‘olibni aniqlashning yagona mezoni bo‘ladi;

davlat buyurtmachisi — davlat xaridlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

davlat xaridlari — davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo‘lgan ehtiyojlarini pulli asosda ta’minlash jarayoni;

davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnoma — davlat buyurtmachisi va davlat xaridlarining ijrochisi o‘rtasidagi davlat xaridlari bo‘yicha huquqlar va majburiyatlarni belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuv;

davlat xaridlarining subyektlari — davlat buyurtmachisi, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi, davlat xaridlarining ijrochisi, xarid komissiyasi, davlat xaridlari elektron tizimining operatori, ixtisoslashgan tashkilot va ekspert, ekspert tashkiloti;

dastlabki malaka tanlovi — xarid qilish hujjatlarida belgilangan texnik, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa o‘ziga xos xususiyatlarga muvofiq bo‘lgan xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazishga qo‘yiladigan malakali xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini tanlab olishning xarid komissiyasi tomonidan o‘tkaziladigan tartib-taomili;

zaxiradagi g‘olib — xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo‘yicha xarid komissiyasining qaroriga muvofiq g‘olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan deb topilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi;

ikki bosqichli davlat xaridlari — texnik jihatdan murakkab bo‘lgan muayyan qiymatli tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) bir shartnoma bo‘yicha ikki o‘zaro bog‘liq bosqichda o‘tkaziladigan davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli;

kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili — davlat xaridlarini xarid qilish tartib-taomillarining ochiq axborot manbalaridan olingan narxlarni solishtirish yo‘li bilan yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) kamida uchta potensial yetkazib beruvchisidan narxlarni so‘rash orqali amalga oshirishning raqobatli usuli;

tender — davlat xaridini amalga oshirishning raqobatli tartib-taomili vositasida davlat xaridlarining ijrochisini aniqlash tartib-taomilini nazarda tutuvchi tanlov bo‘lib, uning natijalariga ko‘ra davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif etgan xarid qilish tartib-taomillarining ishtirokchisi g‘olib deb topiladi;

xarid qilish tartib-taomili — davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlar majmui;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining affillangan shaxsi — qaror qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan va (yoki) xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan qarorlar qabul qilishga ta’sir ko‘rsatadigan, shu jumladan yozma kelishuv asosida ta’sir ko‘rsatadigan jismoniy yoki yuridik shaxs, shuningdek xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisiga nisbatan shunday huquqqa ega bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

Shartnomalarning yagona reyestri — davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ tomonidan maxsus axborot portalida yuritiladigan, davlat buyurtmachilari tomonidan tuzilgan davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomalarning reyestri;

elektron davlat xaridlari — axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda davlat xaridlarini amalga oshirish shakli;

elektron do‘kon — davlat xaridlarining elektron tizimidagi maxsus maydonda savdolarni elektron shaklda amalga oshirishni nazarda tutuvchi, maxsus talablar qo‘yilmaydigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli;

eng yaxshi takliflarni tanlash — xarid qilish tartib-taomillarining bir nechta ishtirokchisidan olingan takliflarni taqqoslash asosida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli;

e’lon — davlat xaridlarini amalga oshirish usuli, talablari va shartlari, takliflarni taqdim etish muddatlari hamda tartibi ko‘rsatilgan, maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladigan bo‘lajak davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot;

g‘olib — xarid qilish tartib-taomillari yakunlariga ko‘ra taklifi eng maqbul deb topilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi.

5-modda. Davlat xaridlarining asosiy prinsiplari

Davlat xaridlarining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

kasbiy mahorat va mas’uliyatlilik;

asoslanganlik;

moliyaviy mablag‘lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

raqobat va xolislik;

mutanosiblik;

barqarorlik;

davlat xaridlari tizimining yagonaligi va yaxlitligi;

korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik.

Davlat xaridlarining asosiy prinsiplari davlat xaridlari jarayonining barcha bosqichlarida qo‘llanilishi kerak.

6-modda. Kasbiy mahorat va mas’uliyatlilik prinsipi

Davlat buyurtmachisi, davlat xaridlari elektron tizimining operatori, ixtisoslashgan tashkilot mas’ul shaxslarining kasbiy mahorati tegishli bo‘linmalar xodimlariga nisbatan soha bo‘yicha ma’lumoti bo‘lishi, malakasini muntazam ravishda oshirishi, bosqichma-bosqich amaliy tajribaga ega bo‘lib borishi va kasbiy faoliyati to‘g‘risidagi talablarni belgilash yo‘li bilan ta’minlanadi.

Davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish uchun mas’ul bo‘lgan shaxsni belgilashi shart.

Kasbiy mahoratga ega bo‘lish maqsadida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish uchun mas’ul bo‘lgan shaxsning malakasini muntazam ravishda oshirib borish davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ tomonidan o‘qitishni tashkil etish orqali ta’minlanadi.

Manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lgan taqdirda, xarid qilish tartib-taomilini tashkil etish va o‘tkazish uchun mas’ul bo‘lgan shaxs bajariladigan vazifalardan chetlashtirilishi lozim.

7-modda. Asoslanganlik prinsipi

Davlat xaridlari davlat buyurtmachisining o‘z oldida turgan vazifalarni hal etishni ta’minlaydigan haqiqiy talablari va ehtiyojlarini samarali qanoatlantirish uchun davlat xaridlarini o‘tkazishning maqsadga muvofiqligi va zarurligi, tovarni (ishni, xizmatni) tanlashning, uning

iste’mol xususiyatlari (tavsifi), sifat ko‘rsatkichlarining va qiymatining asoslanganligi hisobga olingan holda amalga oshirilishi kerak.

8-modda. Moliyaviy mablag‘lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi prinsipi

Davlat xaridlari:

davlat buyurtmachisining davlat xaridlarini o‘tkazish xarajatlarini va tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymatini hisobga olish;

davlat xaridlari uchun ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish, shu jumladan, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) olishdan ko‘rilgan naf, ularning sifati va qiymati o‘rtasidagi maqbul nisbatni (foydalanish davri xarajatlarini hisobga olgan holda) ta’minlash;

davlat xaridlarini maqbul muddatlarda o‘tkazish imkonini beradigan oqilona va tejamkor usulda amalga oshirilishi kerak.

9-modda. Ochiqlik va shaffoflik prinsipi

Davlat xaridlarining ochiqligi va shaffofligi:

tegishli davlat organlariga, davlat xaridlarining subyektlariga va jamoatchilikka davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotdan qonunchilikda belgilangan tartibda to‘liq, o‘z vaqtida, erkin va bepul foydalanish imkoniyatini ta’minlagan holda uni maxsus axborot portaliga joylashtirish;

xarid qilish tartib-taomillariga doir hujjatlarni va hisobotlarni tuzish hamda but saqlashni ta’minlash orqali amalga oshiriladi.

10-modda. Raqobat va xolislik prinsipi

Davlat xaridlaridagi raqobat xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari o‘rtasidagi, davlat xaridlari elektron tizimlarining operatorlari o‘rtasidagi va ixtisoslashgan tashkilotlar o‘rtasidagi tortishuv, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqishda hamda xolis va asosli mezonlar asosida eng maqbul taklif foydasiga yakuniy qaror qabul qilishda beg‘arazlik va shaffoflik mexanizmlaridan foydalanish hisobidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Davlat xaridlarining xolisligi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqishdagi, shuningdek eng maqbul variant foydasiga yakuniy qaror qabul qilishdagi beg‘arazlikni nazarda tutadi.

Davlat xaridlarining xolisligi:

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilariga teng imkoniyatlarni ta’minlashga;

davlat xaridlari subyektlari o‘rtasida raqobatni va ularga nisbatan beg‘arazlikni ta’minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishga;

davlat xaridlari jarayonida shikoyatlar, nizolar va kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqishning hamda tegishli chora-tadbirlar ko‘rishning ochiq, oshkora va tortishuv mexanizmlariga asoslanadi.

11-modda. Mutanosiblik prinsipi

Davlat xaridlarida mutanosiblik:

davlat xaridlarini amalga oshirish usulining tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xavf-xatariga, qiymatiga, xususiyatiga va murakkabligiga;

talablarning xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari malakasiga oid ma’lumotlarga, takliflarni baholash mezonlari va usullarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga);

davlat xaridlari subyektlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi ularning o‘z vazifalariga mosligi bilan ta’minlanadi.

11^1-modda. Barqarorlik prinsipi

Davlat xaridlaridagi barqarorlik davlat buyurtmachisining ehtiyojlarni aniqlash, xaridlarni amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rish, xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazish, g‘olibni aniqlash, shartnomalar tuzish, shuningdek tovarlar o‘z iste’mol xususiyatlarini yo‘qotganidan keyin hosil bo‘ladigan chiqindilarning zararli ta’siridan fuqarolarning sog‘lig‘ini va atrof-muhitni himoya qilish maqsadida mazkur tovarlarni yo‘q qilish (utilizatsiya qilish), shuningdek pirovard natijalarni baholash kabi jarayonlarning qisqa muddatli, o‘rta muddatli va uzoq muddatli iqtisodiy, ekologik hamda ijtimoiy oqibatlarini hisobga olgan holda davlat xaridlarini amalga oshirishga asoslanadi.

Barqarorlik prinsipini qo‘llashda davlat buyurtmachilari quyidagilarni e’tiborga olishi kerak:

bozordagi qulay innovatsion yechimlarni, shuningdek barqarorlik talablariga to‘liqroq javob beradigan yangi, zamonaviy yondashuvlarni rag‘batlantirishga bo‘lgan ehtiyojlarni va imkoniyatlarni;

xarid qilinayotgan tovarlarning butun hayotiy davri davomidagi funksiyaviy va ekspluatatsiyaviy xususiyatlariga doir afzalliklarini hisobga olgan holda, ularni xarid qilish, ulardan foydalanish, ularga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni utilizatsiya qilish xarajatlarini;

xarid qilinayotgan tovarlarni ishlab chiqarish, yetkazib berish, ishga tushirish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan energiya, suv, xomashyo, sarflash materiallari, ehtiyot qismlari sarf-xarajatlari, shuningdek ishlar yoki xizmatlar bo‘yicha shartnomalarni bajarish, obyektni foydalanishdan chiqarish, obyektni tiklash yoki shartnomani bekor qilish hamda xarid qilinayotgan tovarning hayotiy davri davomida talab qilinishi mumkin bo‘lgan boshqa chora-tadbirlar natijasida atrof-muhitga nisbatan ta’sirni, shu jumladan iqlim o‘zgarishini;

ijtimoiy oqibatlarni, shu jumladan amaldagi ijtimoiy rivojlanish siyosatiga muvofiq aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarini yoki toifalarini qo‘llab-quvvatlashni, shuningdek ta’lim sifatini, kasbiy tayyorgarlik darajasini, fuqarolarning farovonligini hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshliligini oshirishga nisbatan ta’sirini;

buyurtmalarni shakllantirishda va tovarlarni yetkazib beruvchilarni aniqlashda ekologik talablarni belgilashni, atrof-muhit ifloslanishining oldi olinishini hamda ekologik toza mahsulotlar xarid qilinishini rag‘batlantirishni yoki milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ikkilamchi xomashyodan va chiqindilardan tayyorlangan tovarlarni yetkazib beruvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali ko‘maklashishni.

12-modda. Davlat xaridlari tizimining yagonaligi va yaxlitligi prinsipi

Davlat xaridlari maqsadlar, prinsiplar va yondashuvlarning yagonaligiga, davlat xaridlari jarayoni barcha bosqichlarining yaxlitligi va o‘zaro aloqadorligiga hamda davlat xaridlari barcha subyektlarining hamkorligiga asoslanadi.

Davlat xaridlarining yagonaligi va yaxlitligi:

davlat xaridlarini tartibga soluvchi yagona va yaxlit normativ-huquqiy baza hamda uni bir xilda qo‘llash;

davlat xaridlarining davlat xaridlari to‘g‘risidagi barcha axborotni to‘plash, unga ishlov berish va uni tahlil qilishni hamda barcha manfaatdor shaxslarga undan foydalanishni ta’minlaydigan yagona, yaxlit va kompleks axborot tizimi mavjudligi;

davlat xaridlariga oid hujjatlarni birxillashtirish;

xalqaro standartlarga uyg‘un tarzda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) standartlashtirilgan yagona milliy klassifikatorini joriy etish;

davlat xaridlarini rejalashtirish va amalga oshirishni, davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomalarni tuzish va ijro etishni, monitoringni va nazoratni amalga oshirishni, nizolar hamda kelishmovchiliklar ustidan shikoyat qilish va ularni ko‘rib chiqishni, davlat xaridlari subyektlarining kasbiy mahorati darajasi va mas’uliyati oshirilishining tashkil etilishini ta’minlovchi yagona infratuzilmaning mavjudligi bilan ta’minlanadi.

13-modda. Korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik prinsipi

Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazishga doir talablar davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Bunda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ustuvor bo‘ladi.

Davlat buyurtmachilari davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillari to‘g‘risidagi axborotning ochiqligi va shaffofligini ta’minlashi kerak.

Davlat xaridlarida korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik:

insofli raqobatni va qarorlar qabul qilish chog‘ida xolisona mezonlardan foydalanilishini;

monitoring va nazorat o‘tkazishning, shu jumladan ichki monitoring va nazorat o‘tkazishning samarali tizimi yaratilishini;

ushbu Qonun va davlat xaridlari sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi hollari to‘g‘risidagi ma’lumotlar axborotning ochiq manbalarida e’lon qilib borilishini;

davlat xaridlari tartib-taomillari ushbu Qonunda belgilangan talablarga muvofiq o‘tkazilishini ta’minlash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Qonunchilikda davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

14-modda. Manfaatlar to‘qnashuvi

Manfaatlar to‘qnashuvi bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatadigan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda uning shaxsiy manfaatdorligi bilan davlat xaridlari subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladigan yoxud yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday vaziyatdir, shuningdek affillanganlikning mavjud bo‘lishi.

Davlat buyurtmachisining, davlat xaridlari elektron tizimi operatorining, ixtisoslashgan tashkilotning, ekspert tashkilotining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari, shuningdek xarid komissiyasining a’zolari hamda ekspertlar xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o‘z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo‘lgan har qanday shaxsiy foydani bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslar:

xarid qilish tartib-taomillarni amalga oshirishda boshqa xarid qilish tartib-taomillari subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazadigan hamda ushbu huquqlar va qonuniy manfaatlarni cheklaydigan har qanday manfaatlar to‘qnashuvi ko‘rinishlarining oldini olishi shart;

har qanday ehtimol tutilgan, taxmin qilinayotgan yoki mavjud manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi axborotning oshkor qilinishini kafolatlashi kerak.

Mavjud bo‘lgan yoki taxmin qilinayotgan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar topgan, ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslar bu haqda bevosita rahbarini hamda davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organni xabardor etishi shart. Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risidagi axborotlarni olgan rahbar uning oldini olish yoki uni bartaraf etish bo‘yicha o‘z vaqtida choralar ko‘rishi va davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organni ko‘rilgan choralar to‘g‘risida xabardor qilishi shart. Davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risidagi axborotni olgach, ushbu Qonunga muvofiq davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlariga tegishli axborotni kiritishi shart.

15-modda. Maxfiylik

Davlat buyurtmachisining yoki davlat xaridlari elektron tizimi operatorining xodimi o‘zining davlat xaridlari ijrochilari yoki har qanday boshqa shaxs bilan munosabatlarida, agar bunday axborotni oshkor etmaslik davlat xavfsizligi manfaatlarini himoya qilish uchun zarur bo‘lsa yoki agar bunday axborotning oshkor etilishi qonunchilikka zid bo‘lsa, ularga rioya etilishini ta’minlashga monelik qilsa, davlat xaridlari subyektlarining qonuniy manfaatlariga zarar yetkazsa yoxud insofli raqobatga to‘sqinlik qilsa, agar davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ bunday axborotni oshkor etish to‘g‘risida qaror qabul qilmasa, hech bir axborotni oshkor etishga haqli emas.

Davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ bunday axborotni oshkor etish to‘g‘risida qaror qabul qilgan taqdirda, ushbu qarorning shartlariga rioya etiladi.

Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etib, uning xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etishi bilan bog‘liq taklifda o‘zi ko‘rsatgan barcha ma’lumotlarning e’lon qilinishiga rozilik bildiradi.

2-bob. Davlat xaridlari sohasini davlat tomonidan tartibga solish

16-modda. Davlat xaridlari sohasini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadlari

Davlat xaridlari sohasini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadlari:

davlatning strategik maqsadlari va vazifalariga erishish;

davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo‘lgan ehtiyojlarini ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturini va boshqa davlat dasturlarini bajarish;

davlatning ijtimoiy vazifalarni hal qilish bo‘yicha funksiyalarini bajarish;

davlat xizmatlarini ko‘rsatish uchun davlat xaridlari subyektlariga qulay muhitni shakllantirishdan, shuningdek davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsiyaga va qonunchilikning boshqacha tarzda buzilishlariga qarshi kurashishdan iborat.

Davlat xaridlarini amalga oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy siyosat ustuvorliklari, shu jumladan yuqori texnologik va innovatsion ishlab chiqarishlarning yaratilishi, qulay ekologik vaziyatning saqlanishi hisobga olinadi.

Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarida chet ellik yetkazib beruvchilar bilan bir qatorda kamida uchta mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirok etsa, agar O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlariga ko‘ra ushbu mahalliy ishlab chiqaruvchilarga takliflarni baholashda foydalaniladigan imtiyozlar va preferensiyalar berilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining ehtiyojlarini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi chet davlatlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin. Bunday davlat xaridini amalga oshirish tartibi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida belgilanadi.

17-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat xaridlari sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

davlat xaridlari sohasida davlat siyosati shakllanishi va amalga oshirilishini ta’minlaydi;

davlat xaridlari sohasida budjet tizimi budjetlari mablag‘laridan oqilona foydalanish, xarid qilish tartib-taomillari turlarini takomillashtirish va ularning qo‘llanilishini kengaytirish, shuningdek tadbirkorlik subyektlarining keng ishtirokini ta’minlash yuzasidan choralar ko‘radi;

davlat buyurtmachilarining davlat xaridlari sohasidagi faoliyati ustidan nazorat bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtiradi;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini baholash va taqqoslash usullarini hamda mezonlarini, shuningdek ular o‘tkazilishini tashkil etish tartibini belgilaydi;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari tomonidan eng yaxshi takliflarni tanlab olish tenderda va ikki bosqichli davlat xaridlarida ishtirok etish uchun elektron shaklda takliflar berish tartibini belgilaydi;

malakali ishtirokchilar o‘rtasida dastlabki malaka tanlovini va xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazish tartibini belgilaydi;

markazlashgan davlat xaridlarini amalga oshirish tartibini va markazlashgan xarid organini belgilaydi;

hadli kelishuv tuzish tartibini belgilaydi;

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya tarkibini tasdiqlaydi, shuningdek kelib tushgan shikoyatlarni u tomonidan ko‘rib chiqish tartibini belgilaydi;

davlat xaridlari sohasidagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishini, tasdiqlanishini va amalga oshirilishini ta’minlaydi.

18-modda. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining davlat xaridlari sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organdir (bundan buyon matnda vakolatli organ deb yuritiladi).

Vakolatli organ:

davlat xaridlari sohasida davlat tomonidan tartibga solishni va davlat siyosatini amalga oshiradi;

davlat xaridlarini tashkil etish va o‘tkazish tizimini, shu jumladan, elektron tizimni rivojlantirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish hamda ro‘yobga chiqarishning samaradorligi va ochiqligini oshirish bo‘yicha choralar ko‘radi;

davlat xaridlari elektron tizimi operatorlarini hamda ularning davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirishga taalluqli faoliyati tartibini, shuningdek maxsus axborot portali faoliyati tartibini belgilaydi;

davlat xaridlari elektron tizimining operatori faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik shaxslarga ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni qonunchilikda belgilangan tartibda beradi;

davlat xaridlarining elektron tizimiga nisbatan talablarni belgilaydi;

iqtisodiy jihatdan eng foydali taklifni baholash usulini qo‘llash tartibini (baholashning narxga asoslanmagan mezonlarini) ishlab chiqadi;

davlat xaridlari bo‘yicha axborotni joylashtirish, oshkor qilish va undan foydalanish tartibini hamda hajmlarini, shuningdek tovarga (ishga, xizmatga) hamda davlat xaridlarini amalga oshirish usuliga qarab e’lon qilishga doir qo‘shimcha talablarni belgilaydi;

xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lonlarning, xarid qilish hujjatlarining namunaviy shakllarini tasdiqlaydi;

Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrini shakllantirish tartibini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

Shartnomalarning yagona reyestrini yuritish tartibini belgilaydi;

davlat xaridlari sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarning bajarilishi ustidan monitoring va nazoratni ta’minlaydi;

davlat xaridlari subyektlaridan axborotlarni so‘rab oladi, jamlaydi, ularni tahlil qiladi va hisobotlarni shakllantiradi;

davlat xaridlari sohasida xarid qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish standartlari bo‘yicha sertifikatlashtirish tizimini joriy etishga doir takliflarni ishlab chiqadi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ko‘rib chiqish uchun kiritadi.

3-bob. Davlat xaridlarining subyektlari

19-modda. Davlat buyurtmachilari

Ushbu Qonun maqsadlari uchun davlat buyurtmachilari deganda quyidagilar tushuniladi:

1) budjet buyurtmachilari:

davlat organlari va muassasalari;

budjet tashkilotlari;

xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish uchun yo‘naltiriladigan budjet mablag‘larini oluvchilar;

davlat maqsadli jamg‘armalari;

budjet tashkilotlarida tashkil etilgan boshqa jamg‘armalar;

2) korporativ buyurtmachilar:

ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar;

ustav fondida (ustav kapitalida) ushbu moddaning 2-bandi ikkinchi va uchinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan tashkilotlarning ulushi jami 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar;

ustav fondida (ustav kapitalida) ushbu moddaning 2-bandi to‘rtinchi xatboshisida ko‘rsatilgan tashkilotlarning ulushi jami 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar.

Korporativ buyurtmachilar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan yuritiladi va axborot almashinuvi orqali maxsus axborot portalida shakllantiriladi.

Davlat buyurtmachisi:

mustaqil ravishda yoki ixtisoslashgan tashkilotni jalb etgan holda tovarning (ishning, xizmatning) boshlang‘ich narxini belgilash, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno;

davlat xaridlarini amalga oshirishda o‘z rasmiy veb-saytiga yoki o‘zining yuqori turuvchi organi rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalariga e’lon joylashtirish;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilaridan eng yaxshi takliflarni tanlashni va tenderni o‘tkazishda davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnoma (bundan buyon matnda shartnoma deb yuritiladi) tuzish va (yoki) shartnoma majburiyatlarini bajarish bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishini ta’minlaydigan zakalat yoki bank kafolatini kiritishni talab qilish;

xarid qilish tartib-taomillarining barcha ishtirokchilariga tatbiq etiladigan takliflarni taqdim etish muddatlarini uzaytirish;

qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari takliflarining amal qilish muddatini muayyan davrga uzaytirish to‘g‘risidagi taklif bilan ularga murojaat qilish huquqiga ega.

Davlat buyurtmachisi qonunchilikka va o‘zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Davlat buyurtmachisi:

davlat xaridlarini rejalashtirishi;

ushbu Qonunga muvofiq xarid qilish tartib-taomili turini tanlash to‘g‘risida qaror qabul qilishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda davlat xaridlarini amalga oshirishi;

davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotni qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda maxsus axborot portaliga joylashtirishi;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) va davlat xaridlarining tartib-taomillari bilan bog‘liq so‘rovlari bo‘yicha ularga qonunchilikka muvofiq tushuntirishlar berishi;

xarid qilish tartib-taomillarining g‘olib deb topilgan ishtirokchilari bilan shartnomalar tuzishi, shuningdek ularning ijro etilishini ta’minlashi;

davlat xaridlarini amalga oshirishda affillanganlik to‘g‘risidagi axborotni taqdim etishi;

bo‘lajak davlat xaridlari to‘g‘risidagi e’lonlarni faqat moliyalashtirish manbalari va miqdorlari mavjudligi tasdiqlangan taqdirdagina maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga va ommaviy axborot vositalariga joylashtirishi shart.

Korporativ buyurtmachilar o‘zi amalga oshirgan davlat xaridlari to‘g‘risida vakolatli organga har chorakda axborot taqdim etadi.

Davlat buyurtmachisining zimmasida qonunchilikka va o‘zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Davlat buyurtmachisining davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan majburiyatlari va vazifalari davlat buyurtmachisining rahbariyati, xarid komissiyalari va xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish uchun mas’ul bo‘lgan davlat buyurtmachisining tarkibiy bo‘linmalari yoki alohida xodimlari tomonidan amalga oshirilishi kerak.

20-modda. Xarid komissiyasi

Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish chog‘ida davlat buyurtmachisi tomonidan shakllantiriladigan, ushbu tartib-taomillarni o‘tkazish tartibida shakllantirilishi talab etiladigan kollegial organdir.

Xarid komissiyasi ishining asosiy maqsadi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo‘yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g‘olibni (g‘oliblarni) tanlashdan iborat.

Xarid komissiyasi davlat buyurtmachisi huzurida faoliyat ko‘rsatadigan, davlat buyurtmachisining tegishli qarorlari bilan shakllantiriladigan va tarqatib yuboriladigan organdir.

Xarid komissiyasi toq sonli a’zolardan iborat bo‘ladi, uning a’zolari tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog‘liq bo‘ladi hamda qonunchilikka muvofiq va olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o‘zgartirilishi mumkin.

Xarid komissiyasi a’zolari xolis bo‘lishi va xarid qilish tartib-taomili g‘olibini tanlashdan shaxsan manfaatdor bo‘lmasligi kerak.

Xarid komissiyasining ishiga rais rahbarlik qiladi, u xarid komissiyasi majlislarini chaqiradi va olib boradi, ovozga qo‘yishni va xarid komissiyasi tomonidan qabul qilingan

qarorlarni e’lon qiladi, shuningdek xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini imzolaydi. Xarid komissiyasi raisi yo‘qligida uning vazifalarini o‘rinbosari bajaradi.

Xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning ovoz berish huquqiga ega bo‘lmagan mas’ul kotibi tashkil etadi.

Xarid komissiyasining har bir a’zosi ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Xarid komissiyasining raisi ovoz berishda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega emas.

Xarid komissiyasining majlislari xarid komissiyasi a’zolari hozirligida yuzma-yuz o‘tkaziladi. Yuzma-yuz majlislar videokonferensiyalar (telekonferensiyalar va hokazo) shaklida o‘tkazilishi mumkin.

Xarid komissiyasi eng yaxshi takliflarni tanlashni tenderni va ikki bosqichli davlat xaridlarini elektron shaklda o‘tkazish chog‘ida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda masofadan turib ovoz berish huquqiga ega.

Xarid komissiyasi davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va davlat buyurtmachisining yuqori turuvchi tashkiloti mutaxassislarini jalb etish mumkin.

Vakolatli organ vakilini boshqa davlat buyurtmachisining xarid komissiyasi tarkibiga kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Xarid komissiyasi to‘g‘ri shakllantirilishi uchun davlat buyurtmachisi mas’uldir.

Xarid komissiyasi qarori xarid komissiyasi a’zolari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Ovozlar teng bo‘lib qolgan taqdirda xarid komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz bo‘ladi.

Xarid komissiyasi a’zolarida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud bo‘lgan taqdirda, xarid komissiyasining bunday a’zosi bu masala ko‘rib chiqilgan majlisda o‘zini o‘zi rad etishi va mazkur masala bo‘yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqda xarid komissiyasi majlisining bayonnomasida qayd etiladi.

Agar xarid komissiyasiga mazkur komissiya a’zosining affillanganligi mavjudligi tegishli masala yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar ma’lum bo‘lib qolgan bo‘lsa, uning o‘zi esa o‘zini o‘zi rad etmagan bo‘lsa, bunday a’zoning mazkur masala bo‘yicha ovoz berishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Agar xarid komissiyasiga tegishli masala bo‘yicha ovoz bergan mazkur komissiya a’zosining affillanganligi mavjudligi qaror qabul qilinganidan keyin ma’lum bo‘lib qolgan bo‘lsa, bunday a’zoning ovozi mazkur masala bo‘yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlanadi.

Xarid komissiyasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

xarid qilish hujjatlarini kelishadi;

takliflar qabul qilish muddatlarini belgilaydi;

takliflarni ochish tartib-taomillarini belgilaydi;

takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;

zarur bo‘lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta’minlash shaklini belgilaydi;

xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshiradi;

dastlabki malaka tanlovini o‘tkazadi, agar xarid qilish hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo‘lsa;

zarur bo‘lganda dastlabki malaka tanlovi natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi;

zarur bo‘lganda baholash guruhini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi;

xarid qilish tartib-taomillarini ushbu Qonunga muvofiq amalga oshiradi;

xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g‘olibini va zarur bo‘lganda zaxiradagi g‘olibni belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

Xarid komissiyasi davlat xaridlari ijrochisini aniqlash tartib-taomillarining davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi, o‘zi qabul qilayotgan qarorlarning asosliligi va beg‘arazligi uchun javobgar bo‘ladi.

Xarid komissiyasi davlat xaridlarining boshqa subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

Xarid komissiyasi tomonidan o‘z vakolati doirasida qabul qilinadigan qarorlar davlat buyurtmachisi va xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari uchun majburiydir.

21-modda. Ixtisoslashgan tashkilot

Ixtisoslashgan tashkilot davlat buyurtmachisining topshirig‘iga ko‘ra tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirishni tashkil etish bo‘yicha shartnomaga asosan pulli asosda xizmatlar ko‘rsatish huquqiga ega bo‘lgan yuridik shaxsdir.

Davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazishni tashkil etish maqsadida ixtisoslashgan tashkilotni jalb qilishga haqli.

Shartnomaning muhim shartlarini belgilash va shartnomani imzolash faqat davlat buyurtmachisi tomonidan amalga oshiriladi.

Ixtisoslashgan tashkilotni jalb qilish ushbu Qonunda belgilangan talablar va mezonlar asosida davlat buyurtmachisi tomonidan amalga oshiriladi.

Ixtisoslashgan tashkilotlar davlat xaridlarini o‘tkazishni tashkil etish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish uchun quyidagi talablarga muvofiq bo‘lishi kerak:

yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lishi;

ixtisoslashgan tashkilotning muassislari orasida davlat xaridining boshqa subyektlari bo‘lmasligi;

davlat xaridlarini o‘tkazishni tashkil etish bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha amaliy tajribaga ega bo‘lgan bir nafardan kam bo‘lmagan xodimga ega bo‘lishi;

maxsus axborot portaliga ulanish imkonini ta’minlovchi dasturiy-texnik vositalarga ega bo‘lishi.

Ixtisoslashgan tashkilot davlat buyurtmachisidan xarid tartib-taomillarini o‘tkazishni tashkil etish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish uchun zarur axborotni olish huquqiga ega, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Ixtisoslashgan tashkilot:

davlat buyurtmachisining talabiga binoan xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazishni tashkil etishning istalgan bosqichida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida hisobot taqdim etishi;

davlat xaridlarining asosiy prinsiplariga rioya etgan holda xizmatlar ko‘rsatishi;

davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organning, Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaning so‘roviga ko‘ra ushbu Qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi to‘g‘risidagi axborotni taqdim etishi;

xarid qilish tartib-taomillarining insofsiz ishtirokchilarning davlat xaridlarida ishtirok etishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha choralar ko‘rishi;

har bir davlat xaridi uchun xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazishni tashkil etish uchun mas’ul bo‘lgan shaxsni belgilashi;

xarid qilish tartib-taomillarini ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlari talablari asosida tashkil etishi shart.

Ixtisoslashgan tashkilot quyidagi xizmatlarni ko‘rsatadi:

tovarning (ishning, xizmatning) boshlang‘ich narxini aniqlaydi, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno;

marketing tadqiqotlarini va boshqa tadqiqotlarni o‘tkazadi;

reklama ishlarini tashkil etadi;

xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazish to‘g‘risidagi xabarnomalar, e’lonlar matnlarini, xarid qilish hujjatlarini rasmiylashtiradi;

xarid qilish tartib-taomillari talablari, shartlari va ular bo‘yicha tushuntirishlar matnlarini qonunchilikka muvofiq tayyorlaydi;

davlat buyurtmachisiga xarid qilish tartib-taomilining turini taklif qiladi;

davlat buyurtmachisining yozma murojaatiga koʻra davlat xaridlarining tartibi va muddatlari toʻgʻrisidagi axborotni davlat xaridlarining elektron tizimiga va maxsus axborot portaliga qonunchilikka muvofiq joylashtiradi;

gʻoliblar bilan imzolanadigan shartnomalar loyihalarini tayyorlaydi;

davlat buyurtmachisining yozma topshirigʻiga koʻra boʻlajak davlat xaridlari toʻgʻrisidagi e'lonlarni faqat moliyalashtirish manbalari mavjudligi tasdiqlangan taqdirda, joylashtiradi;

davlat buyurtmachisining yozma topshirigʻiga koʻra xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilariga oʻz takliflarining amal qilish muddatini muayyan muddatga uzaytirish toʻgʻrisidagi taklif bilan murojaat qiladi;

xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini rasmiylashtiradi;

xarid qilish tartib-taomillarini oʻtkazish yakunlari boʻyicha hisobotlar tuzadi;

xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etish uchun taklifnomalar yuborilishini ta'minlaydi.

Ixtisoslashgan tashkilot yoki uning affillangan shaxsi oʻzi tashkilotchi boʻlgan xarid qilish tartib-taomilida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi sifatida qatnashishi mumkin emas.

Davlat buyurtmachisi ixtisoslashgan tashkilotni ushbu moddada belgilangan talablarga muvofiq jalb etish uchun javobgardir.

Davlat xaridlarining amalga oshirilishi chogʻida ixtisoslashgan tashkilot tomonidan ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlari talablari buzilgan hollarda javobgarlik davlat buyurtmachisi va ixtisoslashgan tashkilot zimmasiga yuklatiladi.

22-modda. Ekspert, ekspert tashkiloti

Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida maslahat va (yoki) takliflarni koʻrib chiqish, baholash hamda taqqoslash boʻyicha xulosa olish uchun ekspertlar yoki ekspert tashkilotlari tegishli shartnoma asosida jalb etilishi, shu jumladan tekin asosda jalb etilishi mumkin.

Ekspert maslahat xizmatlarini koʻrsatish va (yoki) xulosa berish uchun davlat xaridlari predmeti bilan bogʻliq sohada maxsus bilimlarga ega boʻlgan jismoniy shaxsdir.

Ekspert tashkiloti xodimlari maslahat xizmatlarini koʻrsatish va (yoki) xulosa berish uchun davlat xaridlari predmeti bilan bogʻliq sohada maxsus bilimlarga ega boʻlgan yuridik shaxsdir.

Ekspert, ekspert tashkiloti xizmatlarni davlat xaridlari toʻgʻrisidagi qonunchilikka rioya etgan holda koʻrsatishi shart.

23-modda. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi

Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi (bundan buyon matnda ishtirokchi deb yuritiladi) xarid qilish tartib-taomilida davlat xaridlarini bajarish uchun talabgor sifatida ishtirok etayotgan, Oʻzbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti boʻlgan jismoniy yoki yuridik shaxsdir.

Ishtirokchi:

davlat xaridlari toʻgʻrisidagi axborotdan qonunchilikda nazarda tutilgan hajmda foydalanish;

davlat buyurtmachisiga yoki ushbu buyurtmachi tomonidan jalb etilgan ixtisoslashgan tashkilotga muayyan davlat xaridlarining tartib-taomillari, ularni oʻtkazish talablari va shartlari boʻyicha soʻrovlar berish hamda ulardan tushuntirishlar olish;

xarid komissiyasi tomonidan takliflar ochilayotganda belgilangan tartibda ishtirok etish;

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni koʻrib chiqish boʻyicha komissiyaga xarid qilish tartib-taomillari natijalari yuzasidan shikoyat qilish;

qonunchilikka muvofiq takliflarga oʻzgartirishlar kiritish yoki ularni qaytarib olish huquqiga ega.

Ishtirokchi:

davlat xaridlari toʻgʻrisidagi qonunchilik talablariga rioya etishi;

xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq boʻlgan takliflar va hujjatlarni taqdim etishi hamda taqdim etilgan axborotning ishonchliligi uchun javobgar boʻlishi;

asosiy benefitsiar mulkdor to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor etishi;

g‘olib deb topilgan taqdirda, davlat buyurtmachisi bilan qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda shartnoma tuzishi shart.

Ishtirokchi va uning affillangan shaxsi elektron do‘kon, kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili, auksion, eng yaxshi takliflarni tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari bo‘yicha ayni bitta lotda ishtirok etish huquqiga ega emas.

24-modda. Davlat xaridlarining ijrochisi

Davlat xaridlarining ijrochisi (bundan buyon matnda ijrochi deb yuritiladi) xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo‘yicha g‘olib deb topilgan va o‘zi bilan davlat xaridlari to‘g‘risida shartnoma tuzilgan ishtirokchidir.

Ijrochi:

davlat buyurtmachisi bilan tuzilgan shartnomani bajarish jarayonida tushuntirishlar olish uchun unga murojaat qilish;

yetkazib berilgan tovar (ish, xizmat) uchun haq olish;

shartnoma shartlariga muvofiq va (yoki) qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

Ijrochi:

qonunchilik talablariga rioya etishi;

shartnomani uning shartlariga muvofiq bajarishi;

asosiy benefitsiar mulkdor to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor etishi;

shartnomani bajarish jarayonida davlat buyurtmachisiga yoki vakolatli davlat organiga uning so‘rovi bo‘yicha tushuntirishlar va axborot berishi shart.

25-modda. Davlat xaridlari elektron tizimining operatori

Davlat xaridlari elektron tizimining operatori qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatli organ tomonidan beriladigan ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatga asosan davlat xaridlarining subyektlariga davlat xaridlarining elektron tizimlarida xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatadigan yuridik shaxsdir.

Davlat xaridlari elektron tizimining operatori:

davlat xaridlari elektron tizimining uzluksiz ishlashini, unga joylashtirilgan axborotning but saqlanishini va bir butunligini, o‘z elektron resursining tegishli davlat boshqaruvi organlarining rasmiy veb-saytlari va axborot tizimlari hamda maxsus axborot portali bilan belgilangan tartibda uyg‘un ishlashini ta’minlaydi;

qonunchilikka muvofiq axborotning elektron shaklda saqlanishini, shu jumladan elektron hujjatlar va elektron xabarlarning saqlanishini ta’minlash, shuningdek xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazishda davlat xaridlarining elektron tizimini to‘g‘ri ishlashi uchun javobgar bo‘ladi;

o‘z elektron resursini O‘zbekiston Respublikasi hududidagi apparat-texnika vositalariga joylashtiradi;

vakolatli organ, davlat xaridlari jarayonida ishtirok etayotgan boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

Davlat xaridlari elektron tizimining operatori:

ishtirokchi, ijrochi sifatida, shuningdek o‘zining elektron tizimida davlat buyurtmachisi sifatida davlat xaridlarida ishtirok etishga, ularning affillangan shaxsi bo‘lishga;

davlat xaridlarini amalga oshirish va narx belgilash jarayoniga aralashishga, kontragentlarni tanlashda va shartnomalar tuzishda davlat xaridlari subyektlarining erkinligini cheklashga, shuningdek davlat xaridlari subyektlarining huquqlarini boshqacha tarzda cheklashga, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

uzatiladigan, olinadigan va saqlanadigan elektron hujjatlar hamda elektron xabarlarning ishonchliligini, shuningdek agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ularning qonunchilikka muvofiqligini nazorat qilishga yoki tekshirishga;

davlat xaridlari subyektlari tomonidan joylashtiriladigan elektron hujjatlar va elektron xabarlarning mazmunini o‘zgartirishga haqli emas.

Davlat xaridlari elektron tizimining operatori davlat xaridlari subyektlarining ushbu operatorga beriladigan elektron hujjatlari va elektron xabarlarining, shu jumladan bo‘lajak davlat xaridlari to‘g‘risida davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladigan axborotning mazmuni bilan bog‘liq huquqiy oqibatlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

4-bob. Davlat xaridlari jarayoniga doir umumiy talablar

26-modda. Davlat xaridlari jarayoni

Davlat xaridlari jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

davlat xaridlarini rejalashtirish;

xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish;

shartnomani tuzish va bajarish;

davlat xaridlari monitoringi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga va boshqa davlat dasturlariga kiritilgan loyihalarni “foydalanishga tayyor holda topshirish” shartlari asosida “fast-track” usulida (bir vaqtning o‘zida loyihalashtirish, xarid qilish va qurilish ishlari) amalga oshirishga yo‘l qo‘yiladi.

27-modda. Maxsus axborot portali

Maxsus axborot portali vakolatli organ tomonidan yuritiladigan, davlat xaridlari amalga oshirilishi to‘g‘risidagi e’lonlar, davlat xaridlarining yakunlari, ishtirokchilarning takliflari haqidagi axborotni va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa axborotni elektron shaklda ko‘zdan kechirishni, shuningdek amalga oshirilgan elektron davlat xaridlari to‘g‘risida davlat xaridlari elektron tizimlarining operatorlari tomonidan kiritiladigan (yuboriladigan) axborotni to‘plashni ta’minlovchi veb-saytdir (maxsus elektron platforma).

Maxsus axborot portalida:

davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotning jamoatchilik uchun ochiqligi;

davlat xaridlari sohasidagi axborotni jamlash, unga ishlov berish va tahliliy hisobotni shakllantirish;

davlat xaridlarining elektron tizimlari va boshqa axborot tizimlari bilan hamkorlikni amalga oshirish;

xarid qilish tartib-taomillarining davlat nazoratini amalga oshiruvchi vakolatli davlat organlari tomonidan davlat xaridlari subyektlarining o‘z vazifalarini ushbu Qonun va davlat xaridlari sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlari talablari doirasida amalga oshirayotganligi ustidan monitoring va nazorat o‘tkazish ta’minlanadi.

Maxsus axborot portalida davlat xaridlarini rejalashtirish, xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish, shartnoma tuzish, davlat xaridlari monitoringi va nazoratini o‘tkazish jarayonlari tizimlashtiriladi.

Budjet buyurtmachilarining davlat xaridlari bo‘yicha to‘lovlari maxsus axborot portalida davlat xaridlarini rejalashtirish, xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish, shartnoma tuzish va ular to‘g‘risida axborot joylashtirish, shartnomani tegishli g‘aznachilik bo‘linmasida ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlari tugaganidan keyin O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

28-modda. Davlat xaridlarining elektron tizimi

Davlat xaridlari subyektlarining hamkorligini, elektron davlat xaridlari jarayonidagi xarid qilish tartib-taomillari o‘tkazilishini ta’minlaydigan tashkiliy, axborotga oid va texnik yechimlarning dasturiy majmui davlat xaridlarining elektron tizimidir.

Davlat xaridlarining elektron tizimi vakolatli organ tomonidan belgilangan talablarga, shu jumladan:

texnik parametrlarga oid talablarga;

texnik va texnologik imkoniyatlarga oid talablarga;

axborotni va tegishli ma’lumotlarni saqlovchi asbob-uskunalarning joylashish yeriga oid talablarga;

axborot xavfsizligi usullari va shartlariga;

maxsus axborot portali va boshqa tashqi axborot tizimlari bilan hamkorlik imkoniyatlariga;

xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazishga oid talablarga;

davlat xaridlari subyektlarining, vakolatli organning va xarid qilish tartib-taomillari ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi vakolatli davlat organlarining tizimdan foydalanish imkoniyatlariga;

davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa talablarga mos bo‘lishi kerak.

29-modda. Davlat xaridlarini rejalashtirish

Davlat xaridlarini rejalashtirish davlat buyurtmachisi tomonidan amalga oshiriladi va xaridlarni tizimlashtirishdan, davlat xaridlarini rejalashtirish hamda budjet va investitsiya jarayonlaridagi rejalashtirish, shuningdek xo‘jalik faoliyatini rejalashtirish o‘rtasida o‘zaro aloqani ta’minlashdan iborat bo‘ladi.

Davlat xaridlarining yillik reja-jadvali budjet buyurtmachilari tomonidan joriy yilning 25 -martiga qadar maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

Kelgusi yil uchun davlat xaridlarining yillik reja-jadvallari korporativ buyurtmachilar tomonidan joriy yilning 25-dekabriga qadar maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

Kelgusi chorak uchun davlat xaridlarining choraklik reja-jadvallari davlat buyurtmachilari tomonidan joriy chorak oxirgi oyining 25 sanasiga qadar maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

30-modda. Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari

Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari quyidagilardan iborat:

elektron do‘kon;

kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili;

boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion;

eng yaxshi takliflarni tanlash;

tender;

ikki bosqichli davlat xaridlari;

to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari.

Xarid qilish tartib-taomillari elektron shaklda amalga oshirilishi mumkin.

31-modda. Davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot

Davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot jumlasiga quyidagilar kiradi:

davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik;

davlat xaridlarining reja-jadvallari;

davlat xaridlari to‘g‘risidagi e’lonlar;

hujjatlarning namunaviy shakllari;

xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan namunaviy shartnomalar;

davlat xaridlari bosqichlarining natijalari to‘g‘risidagi axborot;

Shartnomalarning yagona reyestri;

Yagona yetkazib beruvchilar reyestri;

Insofsiz ijrochilarning yagona reyestri;

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaning qarorlari;

davlat xaridlari bo‘yicha statistik axborot.

Davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot maxsus axborot portalida e’lon qilinadi.

Davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘liq, xolis va ishonchli bo‘lishi kerak.

32-modda. Baholash mezonlariga va tartib-taomillariga taalluqli qoidalar

ILG5739

Ishtirokchilarning tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha davlat xaridlariga taalluqli bo‘lgan takliflarini baholash mezonlarida:

narx;

yetkazib berish bazisi;

yetkazib berish muddatlari;

tavsifnomalar va sifat ko‘rsatkichlari;

ekspluatatsiya qilish (foydalanish) muddati;

to‘lov va kafolatlar shartlari;

muayyan davrdagi ekspluatatsiya qilishga, shu jumladan foydalanish va ta’mirlashga doir xarajatlar;

qonunchilik talablariga zid bo‘lmagan boshqa mezonlar nazarda tutiladi.

Davlat buyurtmachisi tomonidan belgilanadigan davlat xaridi shartlarida ishtirokchilarning takliflarini baholash mezonlari, ularning nisbiy qiymati, baholash tartib-taomillari doirasida baholash mezonlarini qo‘llash tartibi bo‘lishi kerak.

Ishtirokchilarning takliflarini baholash va g‘olibni aniqlashda davlat buyurtmachisi faqat xarid qilish hujjatlarida ko‘rsatilgan baholash mezonlari va tartib-taomillaridan foydalanadi hamda bu mezonlar va tartib-taomillarni ushbu hujjatlarda bayon etilgan tartibda qo‘llaydi.

Davlat xaridlarini amalga oshirishda ekologik muhitni yaxshilashga ko‘maklashish yoki atrof-muhitga bo‘lgan salbiy ta’sirni kamaytirish maqsadida ishtirokchilarning takliflarini baholash va ijrochini aniqlash jarayonida energiya samaradorligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik jihatdan maqbul materiallardan hamda ikkilamchi xom ashyodan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish kabi mezonlardan va xarid qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) ekologik maqbulligini baholashga oid boshqa omillardan foydalanilishi mumkin.

33-modda. Davlat xaridlari qiymatini baholashga taalluqli qoidalar

Davlat xaridlari qiymatining bozor narxlariga muvofiqligini baholash uchun davlat buyurtmachisi ochiq axborot manbalaridagi axborotlardan yoki boshqa ishonchli manbalardan foydalanadi.

Davlat buyurtmachisi har bir davlat xaridini amalga oshirishda xarid predmetining narxini o‘rganishi shart.

Davlat buyurtmachisi davlat xaridlarida sotib olinadigan tovarlar va xizmatlarning narxi hamda ularning o‘rtacha bozor narxi o‘rtasidagi tafovutning eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan aniq chegarasiga nisbatan belgilangan talablarga amal qilishi lozim.

Davlat xaridlarida sotib olinadigan tovarlar va xizmatlarning narxi hamda ularning o‘rtacha bozor narxi o‘rtasidagi tafovutning eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan aniq chegarasini belgilash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

34-modda. Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlari tavsifiga va shartnoma shartlariga taalluqli qoidalar

Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi tavsifi xolis, funksional va umumiy xususiyatga ega. Tavsifda tovarlar (ishlar, xizmatlar) davlat xaridining tegishli texnik, sifat, zarur hollarda ekspluatatsiya qilinish xususiyatlari ko‘rsatiladi.

Davlat xaridlarining tavsifi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) texnik xossalaridan kelib chiqqan holda, tasniflarni, rejalarni, chizmalarni, eskizlarni, talablarni hamda sinovlar va sinov usullari, qadoqlash, tamg‘alash haqidagi yoki muvofiqlik sertifikati, shuningdek shartli belgilar va atamalar to‘g‘risidagi axborotni o‘z ichiga olishi mumkin.

Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi tavsifiga aniq tovar belgisiga yoki nomiga, patentga, konstruksiyaga yoki modelga, u mansub bo‘lgan muayyan manbaga yoki ishlab chiqaruvchiga, eksklyuziv vakolatli huquqqa doir talablar yoki havolalar kiritilmasligi kerak, bundan elektron do‘kon vositasida amalga oshiriladigan xaridlar hamda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi xususiyatlarini ta’riflashning boshqa yetarlicha aniq usuli mavjud bo‘lmagan hollar mustasno va bunda davlat xaridining tavsifiga “yoki analogi” degan so‘zlar kiritilishi kerak, bundan tovarlarning bir-biriga mos kelmasligi hollari mustasno.

Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi tavsifida quyidagilar bo‘lishi kerak:

tovarlarning soni;

bajarilishi (ko‘rsatilishi) kerak bo‘lgan ishlar (xizmatlar);

tovarlar yetkazib berilishi lozim bo‘lgan yoki ishlar bajarilishi, xizmatlar ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan joy;

tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatishning maqbul yoki talab etiladigan muddatlari, agar ular mavjud bo‘lsa.

Xarid qilish hujjatlarida xarid qilinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat buyurtmachisi tomonidan belgilangan talablarga muvofiqligini aniqlash imkonini beradigan ko‘rsatkichlar bo‘lishi kerak. Bunda shunday ko‘rsatkichlarning eng ko‘p va (yoki) eng kam qiymatlari, shuningdek o‘zgartirilishi mumkin bo‘lmagan ko‘rsatkichlarning qiymatlari ko‘rsatiladi.

Zarur bo‘lganda davlat buyurtmachisi tomonidan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) kafolat muddatiga va (yoki) ularning sifatiga beriladigan kafolatlar hajmiga, tovarga kafolat xizmati ko‘rsatishga, tovardan foydalanish xarajatlariga, tovarni montaj qilish va sozlashning majburiyligiga, tovardan foydalanuvchi va unga xizmat ko‘rsatuvchi shaxslarni o‘qitishga doir talablar belgilanadi.

Mashinalar va asbob-uskunalarni yetkazib beruvchi ijrochi aniqlangan taqdirda davlat buyurtmachisi xarid qilish hujjatlarida tovarning kafolat muddatiga va (yoki) uning sifatiga beriladigan kafolatlar hajmiga, tovarga kafolat xizmati ko‘rsatishga, tovarga kafolat muddati mobaynida xizmat ko‘rsatish xarajatlariga, shuningdek tovarni montaj qilish va sozlashga doir, agar bu tovarning texnik hujjatlarida nazarda tutilgan bo‘lsa, talablarni belgilaydi. Yangi mashinalar va asbob-uskunalarni yetkazib beruvchi ijrochi aniqlangan taqdirda davlat buyurtmachisi xarid qilish hujjatlarida ushbu tovarni ishlab chiqaruvchining va (yoki) yetkazib beruvchining kafolatini taqdim etishga hamda bunday kafolatning amal qilish muddatiga nisbatan qo‘shimcha ravishda talablar belgilaydi. Bunday kafolatni berish ushbu tovar bilan birga amalga oshiriladi.

Agar tovarlarning davlat xaridi tavsifida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, yetkazib berilayotgan tovar yangi bo‘lishi kerak.

Xarid qilish hujjatlariga tovarni ishlab chiqaruvchiga, ishtirokchiga nisbatan davlat xaridlarining asosiy prinsiplariga zid bo‘lgan, oshirib yuborilgan talablarni, shu jumladan ishtirokchining malakasiga nisbatan oshirib yuborilgan talabni (shu jumladan tovarning, ishning yoki xizmatning sifatiga, texnik xususiyatlariga doir talablar, tovarning funksional xususiyatlariga (iste’mol qilish xususiyatlariga) doir talablar shaklida) kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Xarid qilish tartib-taomili natijasi bo‘yicha tuzilgan shartnomaga qo‘shimcha kelishuv uning muhim shartlarini, xususan tovar (ish, xizmat), uning sifati va assortimentini o‘zgartirish, miqdorini va bahosini oshirish hamda yetkazib berish muddatini uzaytirish tarzida o‘zgartirmasa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzilishi mumkin, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan korxonalarga xizmat ko‘rsatuvchi anderrayterlar tomonidan qimmatli qog‘ozlar shartnomada nazarda tutilganligidan yuqoriroq narxda va (yoki) ko‘proq miqdorda joylashtirilgan taqdirda anderrayterlarning xizmatlari uchun shartnoma boshlang‘ich summasining 10 foizidan ortiq miqdorda haq to‘lanishiga ruxsat etiladi.

35-modda. Davlat xaridlarining tili

Davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot davlat tilida e’lon qilinadi va tarqatiladi. Davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot davlat tili bilan bir vaqtda boshqa tillarda ham e’lon qilinishi va tarqatilishi mumkin. Boshqa tillarda e’lon qilinayotgan davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotning mazmuni davlat tilida e’lon qilingan axborotga muvofiq bo‘lishi kerak.

36-modda. Ishtirokchilarga qo‘yiladigan talablar

Ishtirokchilar quyidagi mezonlarga muvofiq bo‘lishi kerak:

shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi;

shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik;

soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikning mavjud emasligi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining ma’lumotlar bazalarida ishtirokchining sud qarorlari bo‘yicha bajarilmagan majburiyatlari mavjud emasligi;

o‘ziga nisbatan joriy etilgan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrida qayd etilmaganligi.

37-modda. Ishtirokchilarga qo‘shimcha talablar qo‘yiladigan davlat xaridi

Davlat buyurtmachisi zarur bo‘lganda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) o‘ziga xos xossalaridan yoki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ishtirokchilarga qo‘shimcha talablar belgilashga haqli.

Ishtirokchilarga qo‘yiladigan qo‘shimcha talablar davlat xaridlarining asosiy prinsiplarga zid bo‘lmasligi kerak.

Davlat xaridi to‘g‘risidagi axborotda ishtirokchilarga qo‘yiladigan qo‘shimcha talablar ushbu axborot e’lon qilingan paytda ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Ishtirokchilarga qo‘shimcha talablar qo‘yiladigan davlat xaridida ishtirok etish uchun ishtirokchilar dastlabki malaka tanlovidan o‘tadi.

Davlat buyurtmachilari tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) ayrim toifalarini yetkazib berishga doir dastlabki malaka tanlovidan o‘tgan malakali ishtirokchilarning ro‘yxatini yuritishi mumkin.

Eng yaxshi takliflarni tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari jarayonida xarid qilish hujjatlarida nazarda tutilgan dastlabki malaka tanlovidan o‘tish to‘g‘risidagi talab mazkur ro‘yxatga kiritilgan ishtirokchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Davlat buyurtmachilari tomonidan ushbu ro‘yxat yuritilishi to‘g‘risidagi axborot maxsus axborot portalida e’lon qilinadi va har olti oyda kamida bir marta yangilanadi.

Mazkur ro‘yxatga kiritish talablariga yoki shartlariga kiritilgan har qanday o‘zgartirishlar to‘g‘risidagi axborot bunday o‘zgartirishlar kiritilgan kundan e’tiboran bir ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirilishi hamda ushbu ro‘yxatga kiritilgan barcha ishtirokchilarga yetkazilishi kerak.

Malakali ishtirokchilar o‘rtasida dastlabki malaka tanlovini va xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

38-modda. Birgalikdagi davlat xaridlari

Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) birgalikdagi davlat xaridlarini shakllantirish ikki va undan ortiq davlat buyurtmachisining davlat xaridlari reja-jadvallariga ko‘ra amalga oshiriladi.

Birgalikdagi davlat xaridlari natijalari bo‘yicha tuzilgan shartnomalar to‘g‘risidagi axborot davlat buyurtmachilari tomonidan maxsus axborot portaliga shartnomalar tuzilgan sanadan e’tiboran besh ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

38[1]-modda. Markazlashgan davlat xaridlari

Davlat xaridlari uchun ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish maqsadida bir nechta davlat buyurtmachisi ayni bir turdagi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) markazlashgan xaridini markazlashgan xarid organi orqali amalga oshirishi mumkin.

Markazlashgan xarid organi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, shu jumladan davlat buyurtmachisining tarkibidagi tashkilotlardan belgilanadigan yuridik shaxsdir.

Davlat buyurtmachilari markazlashgan xarid organi tomonidan xarid qilingan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabul qilib olgan taqdirda, davlat buyurtmachilari ushbu Qonunda nazarda tutilgan xarid qilish tartib-taomillariga rioya etgan deb hisoblanadi.

Markazlashgan xarid organi tomonidan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxati maxsus axborot portalida yuritiladi.

Davlat xaridlarini amalga oshirishda ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlari talablari markazlashgan xarid organi tomonidan buzilgan taqdirda javobgarlik markazlashgan xarid organining zimmasiga yuklatiladi.

Markazlashgan davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

38[2]-modda. Hadli kelishuv

Davlat buyurtmachisi eng yaxshi takliflarni tanlash yoki tender natijalari bo‘yicha aniqlanadigan bir nechta g‘olib bilan bir yildan uch yilgacha bo‘lgan muddatga hadli kelishuv tuzishi mumkin.

Davlat buyurtmachisi xarid qilish hujjatlarida hadli kelishuvni tuzish shartlarini, shuningdek hadli kelishuvning amal qilish muddati davomida davlat buyurtmachisining kutilayotgan ehtiyojlaridan kelib chiqib, tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) umumiy hajmini ko‘rsatadi. Bunda davlat buyurtmachisi hadli kelishuvda ko‘rsatilgan to‘liq summa uchun shartnoma tuzishga majbur emas.

Hadli kelishuvni tuzish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

39-modda. Takliflarni ta’minlash

Xarid komissiyasi ishtirokchilarga nisbatan takliflarning garov, kafolat, zakalat tarzida yoxud qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa usulda ta’minlanishi zarurligi to‘g‘risidagi talabni belgilashga haqli.

Ishtirokchilarga nisbatan takliflarning ta’minlanishi zarurligi tarzidagi talab barcha ishtirokchilarga taalluqli bo‘ladi va davlat xaridlarining shartlarida ko‘rsatiladi.

Xarid komissiyasi ishtirokchilarga nisbatan takliflarning ta’minlanishi zarurligi tarzida talab belgilagan taqdirda, takliflar yuborilguniga qadar ishtirokchi davlat buyurtmachisiga ta’minotning maqbulligini tasdiqlash to‘g‘risida so‘rov yuborishga haqli. Davlat buyurtmachisi bunday so‘rovga ikki ish kuni davomida javob beradi.

Davlat buyurtmachisi taklifni ta’minlash summasi to‘lanishini talab qilmaydi va ta’minlash to‘g‘risidagi hujjatni bir ish kuni davomida qaytaradi yoki quyidagi voqealardan biri yuz berganidan keyin uning qaytarilishini ta’minlaydi:

taklifni ta’minlashning amal qilish muddati tugashi;

shartnomaning kuchga kirishi va ushbu shartnomaning bajarilishi ta’minlanishi, agar bunday ta’minlash davlat xaridi shartlarida talab etilsa;

davlat xaridlarining bekor qilinishi;

takliflarni yuborishning oxirgi muddati tugaguniga qadar taklifning chaqirib olinishi.

40-modda. Muzokaralar olib borishni taqiqlash

Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda davlat buyurtmachisining davlat xaridlari elektron tizimining operatori bilan va davlat xaridlari elektron tizimi operatorining ishtirokchi bilan, shuningdek davlat buyurtmachisining g‘olib aniqlanguniga qadar ishtirokchilar bilan muzokaralar olib borishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

41-modda. Xarid qilish hujjatlari va xarid qilish tartib-taomillari yuzasidan tushuntirishlar

Ishtirokchilar xarid qilish hujjatlari va qo‘llanilayotgan xarid qilish tartib-taomili yuzasidan tushuntirishlar olish uchun davlat buyurtmachisiga yoki u tomonidan jalb etilgan ixtisoslashgan tashkilotga murojaat qilishi mumkin.

Davlat buyurtmachisi yoki u tomonidan jalb etilgan ixtisoslashgan tashkilot xarid qilish hujjatlari va qo‘llanilayotgan xarid qilish tartib-taomili yuzasidan tushuntirish berish to‘g‘risida so‘rov olganidan keyin so‘ralgan tushuntirishlarni ikki ish kuni ichida taqdim etadi.

Xarid qilish hujjatlari va xarid qilish tartib-taomili xususida tushuntirishlar xarid qilish hujjatlari va qo‘llanilayotgan xarid qilish tartib-taomili yuzasidan tushuntirish berish to‘g‘risidagi so‘rovi bilan bir xil shaklda taqdim etiladi.

42-modda. Ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatish shartlari

Xarid komissiyasi yoki davlat xaridlari elektron tizimining operatori ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatadi, agar:

u to‘g‘risida Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrida qayd mavjud bo‘lsa;

unda soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lsa;

o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari joriy etilgan bo‘lsa;

ishtirokchi xarid qilish hujjatlarining malaka, texnik va tijorat talablariga javob bermasa;

ishtirokchi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo‘llanilishiga ta’sir o‘tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to‘g‘risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;

ishtirokchi raqobatga qarshi harakatlarni sodir etsa yoki qonunchilikni buzgan holda manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqarsa, shuningdek affillanganlik hollari aniqlansa.

Xarid komissiyasining yoki davlat xaridlari elektron tizimi operatorining ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatish to‘g‘risidagi qarori va buning sabablari xarid qilish tartib-taomillari haqidagi hisobotga kiritiladi hamda ular haqida tegishli ishtirokchiga darhol xabar beriladi.

43-modda. G‘olib bo‘lgan taklifning aksepti hamda aksept uchun asoslar

Davlat buyurtmachisi o‘tkazilgan xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo‘yicha g‘olib bo‘lgan taklifning aksepti to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

G‘olib bo‘lgan taklifning aksepti quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin, agar:

davlat xaridlari bekor qilinmagan bo‘lsa;

g‘olib bo‘lgan taklifni yuborgan ishtirokchi chetlatilmagan bo‘lsa;

xarid qilish tartib-taomillari buzilmagan bo‘lsa.

44-modda. Davlat xaridini bekor qilish

Davlat buyurtmachisi g‘olib bo‘lgan taklif akseptiga qadar istalgan vaqtda davlat xaridini bekor qilish huquqiga ega. Davlat xaridi bekor qilingan taqdirda davlat buyurtmachisi bunday qaror qabul qilingandan keyin uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimi orqali maxsus axborot portalida mazkur qarorning asoslantirilgan sabablarini e’lon qiladi.

Davlat buyurtmachisi davlat xaridi bekor qilinganligi uchun javobgar bo‘lmaydi, bundan bekor qilish davlat buyurtmachisining g‘ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) oqibati bo‘lgan hollar mustasno.

45-modda. Odob-axloq qoidalari

Davlat buyurtmachilari, davlat xaridlari elektron tizimining operatori, ixtisoslashgan tashkilotlar, ekspert tashkilotlari davlat xaridlarini amalga oshirish uchun quyidagilarni nazarda tutuvchi Odob-axloq qoidalarini qabul qiladi:

manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish chora-tadbirlari;

tegishli xodimlarning kasbiy tayyorgarligini amalga oshirish tartib-taomillari va unga doir talablar.

Odob-axloq qoidalarida davlat buyurtmachilari, davlat xaridlari elektron tizimining operatori, ixtisoslashgan tashkilotlar, ekspert tashkilotlari xodimlarining, xarid komissiyasi a’zolarining kasbga doir va xizmatdan tashqari faoliyatida odob-axloqning yagona prinsiplari va qoidalari, kasbiy tayyorgarligiga doir talablar belgilanadi.

Davlat buyurtmachisining va davlat xaridlari elektron tizimi operatorining mas’ul shaxslari, ixtisoslashgan va ekspert tashkilotlarining xodimlari, xarid komissiyasi a’zolari, shuningdek ekspertlar tomonidan ishtirokchilar hamda ijrochilardan moddiy va nomoddiy boyliklarni olish taqiqlanadi.

Odob-axloq qoidalari davlat buyurtmachilarining yoki ularning yuqori turuvchi organlarining rasmiy veb-saytlarida e’lon qilinishi lozim.

46-modda. Davlat xaridlari jarayonidagi cheklovlar

Davlat xaridlari jarayonida quyidagilarga yo‘l qo‘yilmaydi:

agar ishtirokchining va (yoki) ushbu ishtirokchi vakolatli vakilining yaqin qarindoshlari ijrochini tanlash bo‘yicha qaror qabul qilish huquqiga ega bo‘lsa, shuningdek davlat buyurtmachisining yoki u tomonidan jalb etilgan ixtisoslashgan tashkilotning vakili bo‘lsa, ishtirokchining davlat xaridlarida ishtirok etishiga;

ishtirokchilarni kamsitishga, boshqa ishtirokchilarga zarar yetkazgan holda bir ishtirokchiga imtiyozlar yoki preferensiyalar taqdim etishga, bundan ushbu Qonun 16-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno;

manfaatlar to‘qnashuviga;

davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli bo‘lmagan usullarini qonunga xilof ravishda tanlashga, davlat xaridlari subyektlariga ta’sir o‘tkazishga, davlat xaridlarida ishtirokchilarning ishtirok etishi to‘g‘risidagi axborotni oshkor etishga, ularning sonini asossiz ravishda cheklashga yoki ularning malakasiga qo‘yilgan talablarni oshirishga, raqobatga yo‘l qo‘ymaslikning, uni cheklashning yoki bartaraf etishning boshqa shakllariga;

davlat xaridlari o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lonning matniga ishtirokchilar o‘rtasida raqobatni cheklaydigan qonunga xilof talablarni kiritishga;

narxlarni yoki ishtirokchilarni saralash natijalarini buzib ko‘rsatish maqsadida ishtirokchilarning oldindan til biriktirishiga;

ishonchsiz yoki buzib ko‘rsatilgan axborotni taqdim etishga yoki tarqatishga, shuningdek davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotdan foydalanishni asossiz ravishda cheklashga;

davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatga asoslangan usullarini chetlab o‘tish maqsadida davlat xaridlari hajmini qismlarga bo‘lib tashlashga;

ishtirokchilarning sun’iy tarzda pasaytirilgan narxlar bo‘yicha takliflar berishiga, keyinchalik shartnomani imzolashni yoki uni tegishli tarzda bajarishni rad etishiga;

davlat xaridi tarkibiga texnologik va funksional jihatdan o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) kiritishga;

firibgarlik, soxtalashtirish va korrupsiyaning namoyon bo‘lishiga;

moliyalashtirish manbalari va miqdorlari mavjudligi to‘g‘risida tasdiqlarga ega bo‘lmagan yoki ajratilgan mablag‘lar hajmidan ortiq miqdordagi davlat xaridlarini amalga oshirishga.

47-modda. Shartnomalarning yagona reyestri

Vakolatli organ davlat xaridlari elektron tizimlarining va maxsus axborot portalining axborotlar bazalari o‘rtasida axborot almashish orqali Shartnomalarning yagona reyestrini yuritadi.

Shartnomalarning yagona reyestriga quyidagi hujjatlar va axborot kiritiladi:

davlat buyurtmachisining nomi;

moliyalashtirish manbasi;

ijrochini aniqlash usuli;

xarid qilish tartib-taomilining natijalari sarhisob qilinadigan sana va shartnoma tuzish asoslarini tasdiqlovchi hujjatning rekvizitlari;

shartnoma tuzilgan sana;

tovarning (ishning, xizmatning) nomi, shartnoma bahosi va uni bajarish muddati, tovar (ish, xizmat) birligining narxi, u kelib chiqqan mamlakatning va ishlab chiqaruvchining nomi;

ijrochi soliq to‘lovchining nomi, firma nomi (agar mavjud bo‘lsa), joylashgan yeri (yuridik shaxs uchun — pochta manzili), familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo‘lsa), yashash joyi (jismoniy shaxs uchun), ijrochining soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami yoki chet ellik shaxs uchun tegishli chet davlatning qonunchiligiga muvofiq ijrochining soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami analogi, benefitsiar mulkdor to‘g‘risidagi axborot, bundan tarixiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan va davlat muzey, axborot-kutubxona, arxiv fondlarini, kino fondlarini, fotosuratlar fondlarini va shunga o‘xshash fondlarni to‘ldirish uchun mo‘ljallangan madaniy qimmatliklarni, shu jumladan muzey ashyolarini va muzey

kolleksiyalarini, shuningdek noyob va qimmatbaho nashrlarni, qo‘lyozmalarni, arxiv hujjatlarini (shu jumladan ularning ko‘chirma nusxalarini) yetkazib beruvchi bo‘lgan jismoniy shaxs to‘g‘risidagi axborot mustasno;

shartnomaning o‘zgartirilgan shartlari ko‘rsatilgan holda shartnomani o‘zgartirish to‘g‘risidagi axborot;

shartnomani ijro etish to‘g‘risidagi axborot, shu jumladan shartnoma uchun haq to‘lash, shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni tegishli tarzda bajarmaganlik munosabati bilan moliyaviy sanksiyalar (jarimalar, penyalar) hisoblanishi to‘g‘risidagi axborot;

bekor qilish sabablari va asoslari ko‘rsatilgan holda shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi axborot.

Shartnomalarning yagona reyestridagi axborot to‘lov undirilmagan holda tanishib chiqish uchun ochiqdir.

Shartnomalarning yagona reyestrini yuritish tartibi vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

Qaysi shartnomalar to‘g‘risidagi axborot Shartnomalarning yagona reyestriga kiritilmagan bo‘lsa, o‘sha shartnomalar bo‘yicha to‘lovlar amalga oshirilmaydi.

48-modda. Insofsiz ijrochilarning yagona reyestri

Insofsiz ijrochilarning yagona reyestri vakolatli organ tomonidan shakllantiriladigan ro‘yxatdan iborat bo‘lib, unga quyidagi ma’lumotlar kiritiladi:

xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo‘yicha belgilangan shartlar asosida davlat buyurtmachisi bilan shartnoma tuzishni va davlat xaridlarini amalga oshirishni rad etgan yoki boshqacha usulda bo‘yin tovlagan xarid qilish tartib-taomillari g‘oliblari to‘g‘risidagi;

majburiyatlarni bajarmaganlikda yoxud tegishli tarzda bajarmaganlikda belgilangan tartibda aybdor deb topilgan ijrochilar haqidagi, bundan majburiyatlar bartaraf etib bo‘lmaydigan kuchlar oqibatida bajarilmagan yoki tegishli tarzda bajarilmagan hollar mustasno;

davlat xaridlari jarayonida yolg‘on yoki soxta hujjatlarni taqdim etgan, ayni bitta lotda ishtirok etgan affillangan shaxslar yoki manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida ma’lumotlarni ochib bermagan ishtirokchilar to‘g‘risidagi;

sudning qaroriga ko‘ra firibgarlik, soxtalashtirish va korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etganlikda aybdor deb topilgan ijrochilar to‘g‘risidagi.

Insofsiz ijrochilarning yagona reyestriga kiritilgan ijrochining ikki yil davomida davlat xaridlarida ishtirok etishi mumkin emas, bu muddat tugaganidan keyin ijrochi Insofsiz ijrochilarning yagona reyestridan chiqarilgan hisoblanadi.

Ijrochilar Insofsiz ijrochilarning yagona reyestriga kiritish to‘g‘risidagi qaror ustidan sud tartibida shikoyat qilishga haqli.

Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrini shakllantirish tartibi vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadi.

5-bob. Elektron do‘kon

49-modda. Elektron do‘kon vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish mezonlari

Elektron do‘konda:

bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha (budjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming besh yuz baravarigacha) qiymatdagi tovarlarning;

bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha (budjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha) qiymatdagi ishlarning, xizmatlarning davlat xaridlari amalga oshirilishi mumkin.

Elektron do‘kon orqali budjet buyurtmachisi tomonidan ayni bir turdagi tovarlarning davlat xaridi bir moliya yili davomida bazaviy hisoblash miqdorining o‘n ming baravarigacha amalga oshirilishi mumkin.

Elektron do‘kon orqali budjet buyurtmachisi tomonidan ayni bir turdagi ishlarning, xizmatlarning davlat xaridi bir moliya yili davomida bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz

baravarigacha (korporativ buyurtmachilar uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravarigacha) amalga oshirilishi mumkin.

50-modda. Elektron do‘konda takliflarning joylashtirilishi

Elektron do‘kon ishtirokchilarning takliflaridan shakllantiriladi. Ishtirokchining elektron do‘konda qo‘yilgan taklifi davlat buyurtmachilariga yuborilgan ommaviy ofertadir.

Ishtirokchi tomonidan elektron do‘konda joylashtirilgan taklifda quyidagilar ko‘rsatiladi:

taklif etilayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) nomi;

sotish narxi;

tovarning eng ko‘p va eng kam to‘pi;

tovarning rusumi va texnik parametrlari (standartlashtirish bo‘yicha normativ hujjat, texnik pasport);

tovarning fotosurati;

tovar yetkazib beriladigan (ish bajariladigan, xizmat ko‘rsatiladigan) hudud;

tovarni ishlab chiqaruvchi va u kelib chiqqan mamlakat to‘g‘risidagi axborot;

kafolat shartlari va muddati to‘g‘risidagi axborot;

tovar ishlab chiqarilgan yil (oziq-ovqatlar va tez buziladigan tovarlarning ishlab chiqarilgan kuni, oyi, yili);

tovarning yaroqlilik muddati (kun, oy, yil);

ishni bajarish, xizmatni ko‘rsatish muddati;

tovarni (ishni, xizmatni) majburiy sertifikatlashtirish talab etiladigan hollarda muvofiqlik sertifikati to‘g‘risidagi axborot, shuningdek sanitariya-epidemiologik, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya xulosalari yoki ekologik ekspertiza haqidagi axborot;

qonunchilikka binoan litsenziyalashning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjat olishning yoxud faoliyatni boshlagani haqidagi xabarnomani yuborishning majburiy talabi mavjud bo‘lgan hollarda litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjat yoxud faoliyatni boshlagani haqidagi xabarnoma mavjudligi to‘g‘risidagi axborot.

Ishtirokchining ofertasi u elektron do‘konda joylashtirilgan paytdan e’tiboran o‘n besh ish kuni mobaynida amal qiladi. Ushbu muddat tugaganidan keyin ishtirokchi uni yana o‘n besh ish kuniga aktivlashtirishga haqli.

Oferta davlat buyurtmachisi tomonidan akseptlangunga qadar ishtirokchi ofertani har qanday muddatda chaqirib olishga yoki unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishga haqli.

51-modda. Elektron do‘konda xarid qilish tartib-taomilini o‘tkazish tartibi

Davlat buyurtmachisi elektron do‘konda ishtirokchilarning ofertalarini o‘rganish yo‘li bilan o‘zi uchun zarur bo‘lgan tovarni (ishni, xizmatni) tanlaydi va tovar (ish, xizmat) tanlanganidan keyin narxlar so‘rovi mexanizmidan foydalanadi.

Davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik rejimda, narxlar so‘rovi mexanizmini amalga oshirgan holda tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchiga, shuningdek elektron do‘konda o‘xshash tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) taklif etayotgan barcha ishtirokchilarga xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etish to‘g‘risida takliflar yuborilishini ta’minlaydi.

Ishtirokchilar narxlar so‘rovida ishtirok etish to‘g‘risidagi taklif davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan yuborilgan paytdan e’tiboran ikki ish kuni ichida o‘z takliflarini berishga haqli.

Ishtirokchilarga yuborilayotgan narxlar so‘rovida ishtirok etish to‘g‘risidagi taklif davlat buyurtmachisi tomonidan tanlangan ishtirokchining ofertasiga doir havolani o‘z ichiga oladi.

Xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etish taklifini olgan ishtirokchi davlat buyurtmachisi tomonidan tanlangan oferta narxidan pastroq narx bo‘yicha taklif kiritishga haqli.

Ishtirokchilar tomonidan berilgan narx bo‘yicha takliflarni taqqoslash davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik rejimda amalga oshiriladi.

Davlat xaridlarining elektron tizimi davlat buyurtmachisi va eng past narxni taklif qilgan ijrochi o‘rtasida tuzilgan bitimni ro‘yxatdan o‘tkazadi.

Ishtirokchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlardan davlat buyurtmachisi yoki ishtirokchilar yakunlar sarhisob qilinadigan paytga qadar foydalana olmaydi. Ijrochining nomi g‘olib aniqlangan paytda davlat xaridlarining elektron tizimida aks ettiriladi.

Davlat xaridlarining elektron tizimi shartnomani davlat buyurtmachisi tomonidan tanlangan ishtirokchining ofertasida bayon etilgan shartlarga muvofiq hamda ishtirokchilar tomonidan taklif etilgan eng past narxda shakllantiradi.

Xarid qilish tartib-taomillarining yakuniga ko‘ra faqat tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchigina ishtirok etgan hollarda davlat xaridlarining elektron tizimi davlat buyurtmachisiga elektron shaklda savdolashish imkonini beruvchi so‘rovni yuboradi. Bunda davlat buyurtmachisida tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchiga u taklif qilgan narxdan pastroq asoslangan narx so‘rovini yuborish imkoniyati paydo bo‘ladi. Tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchi bunday so‘rovni bir ish kuni ichida qabul qilishi yoki rad etishi mumkin.

Tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchi narx so‘rovini qabul qilganda davlat xaridlarining elektron tizimi davlat buyurtmachisi va ijrochi o‘rtasidagi bitimni davlat buyurtmachisi tomonidan yuborilgan so‘rov narxi asosida ro‘yxatdan o‘tkazadi.

Agar tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchi narx so‘rovini qabul qilmasa yoki rad etsa, davlat buyurtmachisi o‘z xohishiga ko‘ra mazkur ishtirokchi bilan shartnomani rasmiylashtirishi yoki ushbu Qonun talablariga muvofiq kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili yoki boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion yoxud eng yaxshi takliflarni tanlash orqali xaridni amalga oshirishi mumkin. Bunda javobgarlik davlat buyurtmachisining zimmasiga yuklatiladi.

Agar xarid qilish tartib-taomillari tugaganidan keyin bir ish kuni ichida davlat buyurtmachisi tomonidan narx so‘rovi yuborilmasa, davlat xaridlarining elektron tizimi davlat buyurtmachisi va ijrochi o‘rtasidagi bitimni ro‘yxatdan o‘tkazadi.

Davlat buyurtmachisi tomonidan narxlarni o‘rganish davlat xaridlarining elektron tizimi yoki boshqa ochiq manbalarning ma’lumotlaridan foydalanish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Savdolar yakunlariga ko‘ra shartnoma majburiyatlarini bajarish xarid qilish tartib-taomili ishtirokchisi tomonidan rad etilgan taqdirda davlat xaridlarining elektron tizimi g‘olibdan keyingi eng past narxni taklif etgan boshqa ishtirokchini g‘olib deb belgilaydi, bunda mazkur ishtirokchiga g‘olib tomonidan taklif etilgan narx asosida shartnoma tuzish taklif qilinadi.

Agar g‘olibdan keyingi eng past narxni taklif qilgan ishtirokchi shartnoma tuzishni rad etsa, davlat buyurtmachisi xaridni ushbu Qonun talablariga muvofiq kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili (ushbu Qonunning 51[1]-moddasida belgilangan mezonlar doirasida) yoki boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion yoxud eng yaxshi takliflarni tanlash orqali amalga oshirishi mumkin.

5[1]-bob. Kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili

51[1]-modda. Kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomilini amalga oshirish mezonlari

Summasi bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari miqdoridan oshmaydigan (budjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdoridan oshmaydigan) davlat xaridlari xarid komissiyasining ishtirokisiz o‘tkazilishi mumkin, biroq bir moliya yilida bir korporativ buyurtmachi uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravari miqdoridan oshmasligi va bir moliya yilida bir budjet buyurtmachisi uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravari miqdoridan oshmasligi kerak.

Bunda g‘olib davlat xaridlari o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon joylashtirilmagan holda, ochiq axborot manbalaridan olingan narxlarni solishtirish yo‘li bilan yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) kamida uchta potensial yetkazib beruvchilaridan narxlarni so‘rash yo‘li bilan davlat buyurtmachisi tomonidan aniqlanadi.

51[2]-modda. Kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomilini amalga oshirish natijalari bo‘yicha shartnoma tuzish

Davlat buyurtmachisi kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomilini amalga oshirish asoslarini, shuningdek tuzilgan shartnomalar va ularga doir qo‘shimcha kelishuvlar to‘g‘risidagi axborotni ular tuzilgan kundan e’tiboran besh ish kunidan kechiktirmay maxsus axborot portaliga joylashtiradi.

Kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomilini amalga oshirish natijalari bo‘yicha shartnoma davlat buyurtmachisi tomonidan tanlangan ishtirokchining taklifida ko‘rsatilgan shartlar asosida hamda ishtirokchilar tomonidan taklif etilgan eng past narx bo‘yicha tuziladi.

6-bob. Boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion

52-modda. Boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksionni o‘tkazish mezonlari

Boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion (bundan buyon matnda auksion deb yuritiladi) vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

tovarning standart xususiyatlarga ega bo‘lishi;

tovarning texnik, ekspluatatsiya qilinish xususiyatlarini va boshqa xususiyatlarini baholash hamda taqqoslash zarurati mavjud emasligi;

tovarning qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha (budjet buyurtmachilari uchun olti ming baravarigacha) bo‘lgan miqdorini tashkil etishi kerak.

Xizmatlar va ishlarning davlat xaridi auksion obyekti bo‘la olmaydi.

Tovarni e’londa bayon etilgan shartlar asosida eng past narx bo‘yicha yetkazib berishni taklif qilgan ishtirokchi auksion g‘olibi bo‘ladi. Bunda mazkur norma belgilangan sifat standartlariga muvofiq bo‘lgan tovarlarni yetkazib berish talabini bekor qilmaydi.

53-modda. Auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon

Auksion faqat elektron shaklda o‘tkaziladi.

Auksionda ishtirok etish uchun davlat buyurtmachisi maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga e’lon joylashtiradi.

Auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon u amalga oshirilishidan kamida besh ish kuni avval joylashtirilishi kerak.

Auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’londa quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

davlat buyurtmachisining nomi va manzili;

auksionning birinchi va oxirgi kuni (auksion o‘tkaziladigan davr);

auksion predmetining boshlang‘ich narxi;

auksion predmeti va uning xususiyati (auksion predmetining tasnifi);

tovarning miqdori;

tovarlarni yetkazib berish muddatlari va shartlari;

tovarlar yetkazib beriladigan joy (manzil);

tovarning amaldagi standart talabiga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat mavjudligi haqidagi talab;

tovar majburiy sertifikatlashtirilishi talab etiladigan hollarda, muvofiqlik sertifikati va sanitariya-epidemiologik xulosa mavjudligi to‘g‘risidagi talab;

zarur bo‘lganda, litsenziya, ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjat yoxud faoliyatni boshlagani haqidagi xabarnoma mavjudligi to‘g‘risidagi talab;

tovarning o‘ziga xos xususiy parametrlarini ifodalovchi shartlar.

Auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lonning va davlat buyurtmachisi buyurtmanomasining matniga auksion predmetiga taalluqli bo‘lmagan va ishtirokchilar o‘rtasida raqobatni cheklaydigan talablarni kiritish taqiqlanadi.

Maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtirilgan auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon avtomatik ravishda davlat buyurtmachisining buyurtmanomasi etib o‘zgartiriladi.

54-modda. Auksionni o‘tkazish tartibi

Auksion davlat xaridlarining elektron tizimida boshlang‘ich narxni qadam-baqadam pasaytirish yo‘li bilan o‘tkaziladi.

Auksionni o‘tkazish, kiritilgan ta’minot summasiga muvofiq har bir lot bo‘yicha auksiondan foydalanish, auksion g‘oliblarini aniqlash, bitimni ro‘yxatdan o‘tkazish va shartnomani shakllantirish davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik rejimda amalga oshiriladi.

Auksionni o‘tkazish chog‘ida ishtirokchilar auksion boshlangan paytdan e’tiboran va u tamom bo‘ladigan paytga qadar butun muddat ichida narx bo‘yicha takliflarni cheklanmagan miqdorda berishga haqli.

Ishtirokchilarning nomi va ular bilan bog‘lanishga doir ma’lumotlar auksion g‘olibi aniqlanadigan paytga qadar davlat xaridlarining elektron tizimida aks ettirilmaydi.

Auksion tugaydigan vaqt kelganda davlat xaridlarining elektron tizimi auksion o‘tkazilgan vaqt davomida berilgan takliflar orasida eng past narxni taklif qilgan taklifni avtomatik ravishda aniqlab oladi. Eng past narx ko‘rsatilgan taklifni bergan ishtirokchi auksion g‘olibi sifatida davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan saralab olinadi. Ijrochining nomi davlat xaridlarining elektron tizimida aks ettirilib, ushbu tizim tuzilgan bitimni avtomatik ravishda qayd etadi va davlat buyurtmachisining buyurtmanomasida bayon etilgan shartlarga muvofiq shartnomani shakllantiradi.

Auksion yakunlariga ko‘ra, shartnoma majburiyatlarini bajarish xarid qilish tartib-taomilining ishtirokchisi tomonidan rad etilgan taqdirda, davlat xaridlarining elektron tizimi g‘olibdan keyingi eng past narxni taklif qilgan ishtirokchini g‘olib deb belgilaydi, bunda mazkur ishtirokchiga g‘olib tomonidan taklif etilgan narx asosida shartnoma tuzish taklif qilinadi.

Agar g‘olibdan keyingi eng past narxni taklif qilgan ishtirokchi shartnoma tuzishni rad etsa, davlat buyurtmachisi xaridni ushbu Qonun talablariga muvofiq elektron do‘kon vositasida (ushbu Qonunning 49-moddasida belgilangan mezonlar doirasida) yoki kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili (ushbu Qonunning 51^1-moddasida belgilangan mezonlar doirasida) yoxud eng yaxshi takliflarni tanlash orqali amalga oshirishi mumkin.

55-modda. Auksionni o‘tkazilmagan deb e’lon qilishning umumiy tartibi va oqibatlari

Agar auksionda bir nafar ishtirokchi ishtirok etgan bo‘lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo‘lsa, auksion o‘tkazilmagan deb hisoblanadi va g‘olib aniqlanmaydi. Davlat buyurtmachisi auksionni uch ish kuniga uzaytirishi yoki xaridni ushbu Qonun talablariga muvofiq elektron do‘kon vositasida (ushbu Qonunning 49-moddasida belgilangan mezonlar doirasida) yoki kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili (ushbu Qonunning 51^1-moddasida belgilangan mezonlar doirasida) yoxud eng yaxshi takliflarni tanlash orqali amalga oshirishi mumkin.

Auksionni uzaytirish avvalgi auksion tamom bo‘lgan paytdan e’tiboran uch ish kuni ichida davlat buyurtmachisi tomonidan amalga oshiriladi.

7-bob. Eng yaxshi takliflarni tanlash

56-modda. Eng yaxshi takliflarni tanlashni o‘tkazish mezonlari

Eng yaxshi takliflarni tanlash (bundan buyon matnda tanlash deb yuritiladi) vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

g‘olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo‘ladi;

tovarning (ishning, xizmatning) qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha (budjet buyurtmachilari uchun olti ming baravarigacha) bo‘lgan miqdorni tashkil etadi.

Agar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan davlat buyurtmachilariga tender o‘tkazmasdan xaridlarni amalga oshirish huquqi berilsa, xarid qilish tartib-taomili davlat xaridining summasidan qat’i nazar tanlash orqali amalga oshiriladi. Bunda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming (budjet buyurtmachilari uchun olti ming) baravari miqdoridan oshgan hollarda davlat xaridiga doir texnik

topshiriqlar qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertiza uchun O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” davlat unitar korxonasiga (bundan buyon matnda Kompleks ekspertiza qilish markazi deb yuritiladi) kiritiladi.

Tanlash majburiy tartibda elektron shaklda o‘tkaziladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

57-modda. Tanlashni o‘tkazishda xarid komissiyasi

Davlat xaridini tanlash orqali amalga oshirish uchun davlat buyurtmachisining xodimlari orasidan kamida besh nafar a’zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi.

Tanlashni o‘tkazishda xarid komissiyasi a’zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo‘lishi lozim, har bir majlis va qabul qilingan qaror bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

58-modda. Tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon

Tanlash vositasidagi davlat xaridi to‘g‘risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan cheklanmagan miqdordagi shaxslarga maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek davlat buyurtmachisining xohishiga ko‘ra — uning rasmiy veb-saytiga yoki uning yuqori turuvchi organining rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalarida tanlash o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lonni va tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini joylashtirish yo‘li bilan ma’lum qilinadi.

Agar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan davlat buyurtmachilariga tender o‘tkazmasdan xaridlarni amalga oshirish huquqi beriladigan bo‘lsa, tanlash o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lon faqat davlat xaridiga doir texnik topshiriq bo‘yicha Kompleks ekspertiza qilish markazining ijobiy xulosasi olinganidan keyin joylashtiriladi.

Tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon va tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari davlat buyurtmachisi tomonidan takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida besh ish kuni oldin maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek davlat buyurtmachisining xohishiga ko‘ra — o‘zining rasmiy veb-saytiga yoki o‘zining yuqori turuvchi organining rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalarida joylashtiriladi.

Xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) o‘ziga xos xossalaridan yoki xususiyatlaridan kelib chiqib, davlat buyurtmachisi tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lonni ushbu moddaning uchinchi qismida belgilanganiga nisbatan uzoqroq muddatga joylashtirishga haqli.

Tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon quyidagi axborotlarni o‘z ichiga olishi kerak:

tanlashni o‘tkazish shakli;

tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va boshlang‘ich narxi;

tanlash o‘tkaziladigan joyning manzili;

ishtirokchilarga qo‘yiladigan talablar;

davlat buyurtmachisining ishtirokchilar bilan bog‘lanish uchun aloqa bog‘lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxslarining yoki boshqa xodimlarining familiyasi, ismi, sharifi, lavozimi va manzili;

ishtirokchilar tomonidan takliflar berish muddati tugaydigan sana va vaqt;

taklifni rasmiylashtirishga doir talablar.

Tanlash o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lon va (yoki) tanlashda ishtirok etish uchun taklif qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa axborotlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

59-modda. Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari

Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lonni joylashtirish bilan bir vaqtda davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladi.

Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’londa ko‘rsatilgan axborot;

ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniladigan valyuta, to‘lov tartibi va yetkazib berish shartlari haqidagi axborot;

tanlashda ishtirok etish uchun taklifni davlat tilida va, zaruriyatga qarab, boshqa tillarda tayyorlash majburiyligi to‘g‘risidagi talab;

ishtirokchilarga tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;

texnik topshiriq;

ushbu Qonunga muvofiq takliflarni baholash mezonlari va ko‘rib chiqish tartibi;

tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ariza taqdim etish majburiyligi haqidagi talab.

Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida davlat buyurtmachisi har bir tovar (ish, xizmat) xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi sifatida ko‘rib chiqilishini e’lon qilishi mumkin. Bunday holda davlat buyurtmachisi turli tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish uchun tanlashning bir nechta ishtirokchisi bilan shartnomalar tuzishi mumkin, bunda har bir tovar (ish, xizmat) uchun faqat bitta g‘olib aniqlanishi mumkin. Har bir tovar (ish, xizmat) uchun g‘olib xarid qilish tartib-taomilining shartlariga ko‘ra alohida-alohida aniqlanadi.

Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlariga ularning ajralmas qismi bo‘lgan shartnoma loyihasi ilova qilinadi.

Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi bilan kelishilgan tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini tasdiqlaydi.

Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tanlashda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan bir ish kunidan kechiktirmay tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli. Bunda ushbu tanlashda takliflarni taqdim etishning tugash muddati kamida uch ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan birga, e’londa ko‘rsatilgan axborot o‘zgartirilgan bo‘lsa, tanlash o‘tkazish to‘g‘risidagi e’longa o‘zgartirishlar kiritiladi. Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

60-modda. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi

Tanlash ishtirokchilarining takliflari e’londa va tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan tartibda ularning davlat xaridlari elektron tizimidagi shaxsiy kabinetlari orqali, e’londa ko‘rsatilgan muddatdan kechiktirmay elektron shaklda taqdim etiladi.

Elektron shaklda tanlash o‘tkazish chog‘ida tanlash ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Taklifda davlat xaridi obyekti bo‘lgan tovar eskizining, rasmining, chizmasining, fotosuratining va boshqa materiallarning elektron shakli bo‘lishi mumkin.

Tanlash ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyligi va to‘g‘riligi uchun javobgar bo‘ladi.

Tanlash ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli.

Tanlash uchun takliflarni qabul qilish maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimida chop etilgan e’londa ko‘rsatilgan muddat kelishi bilan tugatiladi.

61-modda. Tanlashni o‘tkazish

Agar tanlashda ishtirok etish uchun takliflarni taqdim etish muddati tugagan paytda faqat bitta taklif taqdim etilgan yoki birorta ham taklif taqdim etilmagan bo‘lsa, tanlash o‘tkazilmagan deb hisoblanadi. Bunda davlat buyurtmachisi ushbu Qonun talablariga muvofiq yangi tanlash o‘tkazishi yoxud elektron do‘kon (ushbu Qonunning 49-moddasida belgilangan mezonlar doirasida) yoki kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili (ushbu Qonunning 51_1-moddasida belgilangan mezonlar doirasida) yoxud auksion orqali xaridni amalga oshirishi mumkin.

E’londa tanlash o‘tkaziladigan vaqt sifatida ko‘rsatilgan vaqtda davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tanlash takliflarini tashkil etadigan elektron hujjatlarni ko‘rish imkoniyatini beradi. Davlat xaridlarining elektron tizimi ishtirokchi taklif etgan narxning boshlang‘ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to‘ldirilganligini tekshiradi. Agar ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narx boshlang‘ich narxdan yuqori bo‘lsa, shuningdek biriktirilishi zarur bo‘lgan hujjatlarni to‘ldirish va joylashtirish uchun majburiy bo‘lgan bo‘sh maydonlar mavjud bo‘lsa, davlat xaridlarining

elektron tizimi aniq sababni ko‘rsatgan holda, ishtirokchining taklifini rad etadi. Biriktirilgan hujjatlardagi ma’lumotlarning tanlash ishtirokchisining taklifida ko‘rsatilgan ma’lumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasining mas’ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

Agar xarid komissiyasi tomonidan ishtirokchilardan tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida ko‘rsatilgan talablarga javob beradigan kamida ikkita taklif olingan bo‘lsa, tanlash o‘tkazilgan deb hisoblanadi.

Ishtirokchilarning barcha takliflari tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida ko‘rsatilgan mezonlar asosida baholanadi va tanlash o‘tkazish bayonnomasida qayd etiladi.

Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran o‘n ish kunidan oshishi mumkin emas.

Ishtirokchilarning takliflarini baholash ikki bosqichda amalga oshirilishi mumkin.

62-modda. Tanlash g‘olibini aniqlash

Takliflarni taqqoslash natijalariga ko‘ra xarid komissiyasi tanlash g‘olibini aniqlaydi va tanlash o‘tkazish natijalarini bayonnomada aks ettiradi.

Xarid komissiyasining qarori bilan tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko‘rsatilgan mezonlarga muvofiq g‘olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan ishtirokchi sifatida e’tirof etilgan zaxiradagi g‘olib aniqlanishi mumkin.

Bayonnoma davlat buyurtmachisi tomonidan u rasmiylashtirilgan kunda davlat xaridlarining elektron tizimiga muhokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirilishi kerak.

Agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o‘tkazish natijalari bo‘yicha e’tirozlar kelib tushmagan bo‘lsa, davlat buyurtmachisi va xarid komissiyasi tomonidan g‘olib deb topilgan ishtirokchi o‘rtasida shartnoma tuziladi.

Muhokama uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin kelib tushgan e’tirozlar xarid komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqilmaydi.

Tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o‘tkazish natijalari bo‘yicha e’tirozlar kelib tushganda, xarid komissiyasi e’tirozlarni ko‘rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

Davlat buyurtmachisi tomonidan xarid komissiyasiga taqdim etilgan muhokama natijalari to‘g‘risidagi axborot asosida xarid komissiyasining tegishli majlisi bayonnomasi rasmiylashtiriladi va imzolangan kundan boshlab uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.

Tanlash natijalari bo‘yicha tuzilgan shartnoma to‘g‘risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan kundan boshlab besh ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

62^1-modda. Malakali ishtirokchilar o‘rtasida tanlash o‘tkazish

Malakali ishtirokchilar o‘rtasidagi tanlash ushbu Qonunning 37-moddasiga muvofiq dastlabki malaka tanlovidan o‘tgan ishtirokchilar o‘rtasida o‘tkazilishi mumkin.

Davlat buyurtmachisi dastlabki malaka tanlovidan o‘tgan barcha ishtirokchilarni tanlashda ishtirok etishga taklif qiladi yoxud xarid qilinayotgan tovar (ish, xizmat) xususiyatlarining murakkabligidan, ishtirokchilarning o‘z vaqtida sifatli mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish borasidagi salohiyati hamda ish tajribasidan kelib chiqqan holda, ularning orasidan ishtirokchilarning cheklangan sonini hamda malakali ishtirokchilar ro‘yxatini belgilashi mumkin.

Ishtirokchilarning cheklangan sonini va malakali ishtirokchilar ro‘yxatini belgilashda davlat buyurtmachisi ishtirokchilarning saviyasini xolisona va davlat xaridlarining asosiy prinsiplariga muvofiq aniqlaydi hamda ularga tanlashda ishtirok etish to‘g‘risidagi takliflarni yuboradi.

63-modda. Tanlash natijalarini rasmiylashtirish

Tanlash natijalariga doir shartnoma tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida va o‘zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik tarzda shakllantiriladi.

Davlat buyurtmachisi tomonidan tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida g‘olib shartnomaning shartlari bajarilishi ta’minotini taqdim etganidan keyin shartnoma tuzilishini nazarda tutuvchi shart qo‘yilishi mumkin.

G‘olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g‘olib aniqlangan bo‘lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g‘olibga o‘tadi. Bunda zaxiradagi g‘olib g‘olib tomonidan taklif etilgan narx bo‘yicha (bundan zaxiradagi g‘olib taklif etgan narx g‘olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo‘lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishni rad etishi mumkin.

Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g‘olib aniqlanmagan bo‘lsa yoki zaxiradagi g‘olib shartnoma tuzishni rad etgan bo‘lsa, davlat buyurtmachisi ushbu Qonun talablariga muvofiq yangi tanlash o‘tkazishi yoxud elektron do‘kon (ushbu Qonunning 49-moddasida belgilangan mezonlar doirasida) yoki kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili yoxud auksion orqali xaridni amalga oshirishi mumkin.

8-bob. Tender

64-modda. Tender o‘tkazish mezonlari

Tender vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

g‘olibni aniqlash mezonlari tovarning (ishning, xizmatning) nafaqat pul bilan baholanishini, balki miqdoriy va sifat jihatidan baholanishini ham o‘z ichiga oladi;

tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravaridan ortiq (budjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravaridan ortiq) miqdorni tashkil etadi.

Tender majburiy tartibda elektron shaklda o‘tkaziladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

65-modda. Tender o‘tkazish bo‘yicha xarid komissiyasi

Davlat xaridini tender o‘tkazish orqali amalga oshirish uchun kamida yetti nafar a’zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi.

Shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlari tender ishtirokchilarining takliflarini baholash bo‘yicha e’lon qilingan mezonlar asosida xarid komissiyasi tomonidan aniqlanadi.

Agar majlisda xarid komissiyasi a’zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo‘lsa, xarid komissiyasi vakolatli hisoblanadi. Barcha qabul qilingan qarorlar bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

66-modda. Tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon

Tender vositasidagi davlat xaridi to‘g‘risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan cheklanmagan miqdordagi shaxslarga maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek davlat buyurtmachisining xohishiga ko‘ra uning veb-saytiga yoki uning yuqori turuvchi organining rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalarida tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lonni va tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini joylashtirish yo‘li bilan ma’lum qilinadi.

Tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon faqat tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari yuzasidan Kompleks ekspertiza qilish markazining ijobiy xulosasi olinganidan keyin joylashtiriladi.

Tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon tender ishtirokchilaridan takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida o‘n ikki ish kuni va ko‘pi bilan o‘ttiz ish kuni oldin maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladi.

Tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon quyidagi axborotni o‘z ichiga olishi kerak:

tenderni o‘tkazish shakli;

tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va boshlang‘ich narxi;

tender o‘tkaziladigan joyning manzili;

tender ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar;

davlat buyurtmachisining ishtirokchilar bilan bog‘lanish uchun aloqa bog‘lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxslarining yoki boshqa xodimlarining familiyasi, ismi, sharifi, lavozimi va manzili;

takliflar berish muddati tugaydigan sana va vaqt;

tender taklifini rasmiylashtirishga doir talablar.

Tender o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lon qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa axborotni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

67-modda. Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari

Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lonni joylashtirish bilan bir vaqtda davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladi.

Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’londa ko‘rsatilgan axborot;

shartnoma bahosini va ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniladigan valyuta hamda to‘lov tartibi haqidagi axborot;

tenderda ishtirok etish uchun taklifni davlat tilida va, zaruriyatga qarab, boshqa tillarda tayyorlash majburiyligi to‘g‘risidagi talab;

tender ishtirokchisi taklifining texnik va narxga oid qismi, ularni baholash tartibi haqidagi axborot;

tender ishtirokchilariga tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;

texnik topshiriq;

ushbu Qonunga muvofiq tender ishtirokchilarining takliflarini baholash mezonlari va ko‘rib chiqish tartibi;

tender ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha arizani taqdim etish majburiyligi haqidagi talab.

Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida davlat buyurtmachisi har bir tovar (ish, xizmat) xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi sifatida ko‘rib chiqilishini e’lon qilishi mumkin. Bunday holda davlat buyurtmachisi turli tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish uchun tenderning bir nechta ishtirokchisi bilan shartnomalar tuzishi mumkin, bunda har bir tovar (ish, xizmat) uchun faqat bitta g‘olib aniqlanishi mumkin. Har bir tovar (ish, xizmat) uchun g‘olib xarid qilish tartib-taomili shartlariga ko‘ra alohida-alohida aniqlanadi.

Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlariga uning ajralmas qismi bo‘lgan shartnoma loyihasi ilova qilinadi.

Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi bilan kelishilgan tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini tasdiqlaydi.

Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tenderda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida bir ish kuni oldin tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli. Bunda ushbu tenderda takliflar berish tugaydigan muddat kamida o‘n ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan bir vaqtda, agar e’londa ko‘rsatilgan axborot o‘zgartirilgan bo‘lsa, tender o‘tkazish to‘g‘risidagi e’longa o‘zgartishlar kiritiladi. Tovarning (ishning, xizmatning) nomini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tender ishtirokchisi davlat buyurtmachisiga tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlar berish to‘g‘risida so‘rov yuborishga haqli. Mazkur so‘rov kelib tushgan sanadan e’tiboran ikki ish kuni ichida davlat buyurtmachisi, agar ushbu so‘rov davlat buyurtmachisiga takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki ish kuni oldin kelib tushgan bo‘lsa, tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlarni yuboradi. Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o‘zgartirmasligi kerak.

Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertiza uchun Kompleks ekspertiza qilish markaziga kiritiladi.

Davlat buyurtmachisi tuzilgan shartnomalar, import kontraktlari va ularga qo‘shimcha kelishuvlarning xarid qilish hujjatlariga muvofiqligi va haqiqiyligi uchun javobgar bo‘ladi.

68-modda. Tender ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi

Tender ishtirokchilarining takliflari e’londa va tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan tartibda ularning davlat xaridlari elektron tizimidagi shaxsiy kabinetlari orqali, e’londa ko‘rsatilgan muddatdan kechiktirmay elektron shaklda taqdim etiladi.

Elektron shaklda tender o‘tkazish chog‘ida tender ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Taklifda davlat xaridi obyekti bo‘lgan tovar eskizining, rasmining, chizmasining, fotosuratining va boshqa materiallarining elektron shakli bo‘lishi mumkin.

Tender ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyligi va to‘g‘riligi uchun javobgar bo‘ladi.

Tender ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli.

Tenderda ishtirok etish uchun takliflarni qabul qilish maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimida chop etilgan e’londa ko‘rsatilgan muddat kelishi bilan tugatiladi.

Agar takliflar berish muddati tugagan vaqtda tender ishtirokchilaridan kamida ikkita taklif olingan bo‘lsa, tender ishtirokchilarining takliflari xarid komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Tenderda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki hech kim ishtirok etmagan bo‘lsa, tender o‘tkazilmagan deb topiladi. Bunday holda davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomilini ayni o‘sha shartlarda hamda tovarga (ishga, xizmatga) doir ayni o‘sha mezonlarga va talablarga muvofiq takroran amalga oshirishi shart. Tovarga (ishga, xizmatga) doir baholash shartlari, mezonlari va talablarni o‘zgartirish zarur bo‘lganda, xarid komissiyasi asoslarni ko‘rsatgan holda tegishli qarorni qabul qiladi. Tender ishtirokchisi bunday takliflarni berish muddati tugaguniga qadar berilgan taklifni qaytarib olishga yoki unga o‘zgartishlar kiritishga haqli.

69-modda. Tender ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash

Tender ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran qirq besh ish kunidan oshishi mumkin emas.

Agar taklif ushbu Qonunning va tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarining talablariga muvofiq kelsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi.

Agar taklifni kiritgan tender ishtirokchisi ushbu Qonunda belgilangan talablarga mos kelmasa yoki tender ishtirokchisining taklifi tegishli tarzda rasmiylashtirilmagan bo‘lsa, shuningdek tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq kelmasa, xarid komissiyasi taklifni rad etadi.

E’londa tender o‘tkaziladigan vaqt sifatida ko‘rsatilgan vaqtda davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tender takliflarini tashkil etadigan elektron hujjatlarni ko‘rish imkoniyatini beradi. Davlat xaridlarining elektron tizimi ishtirokchi taklif etgan narxning boshlang‘ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to‘ldirilganligini tekshiradi. Agar ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narx boshlang‘ich narxdan yuqori bo‘lsa, shuningdek biriktirilishi zarur bo‘lgan hujjatlarni to‘ldirish va joylashtirish uchun majburiy bo‘lgan bo‘sh maydonlar mavjud bo‘lsa, davlat xaridlarining elektron tizimi aniq sababni ko‘rsatgan holda ishtirokchining tender taklifini rad etadi. Biriktirilgan hujjatlardagi ma’lumotlarning ishtirokchining tender taklifida ko‘rsatilgan ma’lumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasining mas’ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida ko‘rsatilgan mezonlar asosida tender g‘olibini aniqlash uchun xarid komissiyasi rad etilmagan takliflarni baholashni amalga oshiradi.

Birinchi bosqichda tender ishtirokchisi taklifining texnik qismini baholash amalga oshiriladi. Xarid komissiyasining tender taklifining texnik qismini baholash bo‘yicha qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi, bayonnomada tenderning birinchi bosqichini baholash yakunlari ko‘rsatiladi.

Tenderning ikkinchi bosqichi tenderning birinchi bosqichidan o‘tgan kamida ikki nafar ishtirokchining takliflari mavjud bo‘lganda o‘tkaziladi.

Tender taklifining miqdoriy ko‘rsatkichlarini, shu jumladan narx qismini baholash davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Takliflarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha:

birinchi bosqichda — agar xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo‘lsa yoki faqat bitta taklif tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq kelsa;

ikkinchi bosqichda — agar xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo‘lsa, tender o‘tkazilmagan deb topiladi.

Xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) texnik xususiyatlaridan kelib chiqib, tender bir bosqichda o‘tkazilishi mumkin. Bunda davlat buyurtmachisi bu haqda tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida ko‘rsatishi kerak. Mazkur holatda tender taklifining texnik va narxga oid qismlarini ochish hamda baholash bir vaqtning o‘zida amalga oshiriladi.

Tender bir bosqichda o‘tkazilganda, agar xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo‘lsa yoki faqat bitta taklif tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq kelsa, tender o‘tkazilmagan deb topiladi.

Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko‘rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif qilgan tender ishtirokchisi g‘olib deb topiladi.

Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko‘rsatilgan mezonlarga muvofiq g‘olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan deb topilgan ishtirokchi xarid komissiyasining qarori bilan zaxiradagi g‘olib deb belgilanishi mumkin.

Agar tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida tenderning har bir tovari (ishi, xizmati) xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi sifatida ko‘rib chiqilishi nazarda tutilgan bo‘lsa, xarid komissiyasi g‘olibni tenderning har bir predmeti bo‘yicha aniqlaydi.

Takliflarni ko‘rib chiqish va baholash natijalari takliflarni ko‘rib chiqish hamda baholash bayonnomasida qayd etiladi.

Takliflarni ko‘rib chiqish va baholash bayonnomasida quyidagi axborot bo‘lishi kerak:

tender takliflari ko‘rib chiqiladigan hamda baholanadigan sana va vaqt to‘g‘risidagi;

hozir bo‘lgan xarid komissiyasi a’zolarining va tender ishtirokchilari vakolatli vakillarining tarkibi haqidagi;

takliflari ko‘rib chiqilgan tender ishtirokchilari to‘g‘risidagi;

takliflari ularni rad etishning aniq sabablari ko‘rsatilgan holda rad etilgan tender ishtirokchilari haqidagi;

tender g‘olibi to‘g‘risida qabul qilingan qaror haqidagi;

tender g‘olibining nomi (yuridik shaxs uchun), familiyasi, ismi, otasining ismi (jismoniy shaxs uchun), turgan joyi (pochta manzili).

Xarid komissiyasi a’zolari majlisning davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda shakllantiriladigan elektron bayonnomasini elektron raqamli imzodan foydalangan holda tasdiqlaydi. Elektron bayonnoma davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda e’lon qilinadi.

Tenderning istalgan ishtirokchisi takliflarni ko‘rib chiqish va baholash bayonnomasi e’lon qilinganidan keyin davlat buyurtmachisiga tender natijalari bo‘yicha tushuntirishlarni taqdim etish to‘g‘risida so‘rov yuborishga haqli. Davlat buyurtmachisi bunday so‘rov kelib tushgan sanadan e’tiboran uch ish kuni ichida tender ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etadi.

Davlat buyurtmachisi va xarid komissiyasi takliflarni qabul qilish tugaydigan paytga qadar ularni muhokama qilishga haqli emas.

70-modda. Tender natijalari bo‘yicha shartnoma tuzish

Tender natijalari bo‘yicha shartnoma tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida va shartnoma tuzilayotgan tender ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko‘rsatilgan shartlar asosida davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik tarzda shakllantiriladi.

G‘olib shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g‘olib aniqlangan bo‘lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g‘olibga o‘tadi. Bunda zaxiradagi g‘olib g‘olib tomonidan taklif etilgan narxda (bundan zaxiradagi g‘olib taklif etgan narx g‘olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo‘lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g‘olib aniqlanmagan bo‘lsa yoki zaxiradagi g‘olib shartnoma tuzishdan bosh tortsa, davlat buyurtmachisi yangi tender o‘tkazadi.

Tender natijalari bo‘yicha tuzilgan shartnoma to‘g‘risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan sanadan boshlab besh ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

70[1]-modda. Malakali ishtirokchilar o‘rtasida tender o‘tkazish

Malakali ishtirokchilar o‘rtasidagi tender ushbu Qonunning 37-moddasiga muvofiq dastlabki malaka tanlovidan o‘tgan ishtirokchilar o‘rtasida o‘tkazilishi mumkin.

Davlat buyurtmachisi dastlabki malaka tanlovidan o‘tgan barcha ishtirokchilarni tenderda ishtirok etishga taklif qiladi yoxud xarid qilinayotgan tovar (ish, xizmat) xususiyatlarining murakkabligidan, ishtirokchilarning o‘z vaqtida sifatli mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish borasidagi salohiyati hamda ish tajribasidan kelib chiqqan holda, ularning orasidan ishtirokchilarning cheklangan sonini hamda malakali ishtirokchilar ro‘yxatini belgilashi mumkin.

Ishtirokchilarning cheklangan sonini va malakali ishtirokchilar ro‘yxatini belgilashda davlat buyurtmachisi ishtirokchilarning saviyasini xolisona va davlat xaridlarining asosiy prinsiplariga muvofiq aniqlaydi hamda ularga tenderda ishtirok etish to‘g‘risidagi takliflarni yuboradi.

8[1]-bob. Ikki bosqichli davlat xaridlari

70[2]-modda. Ikki bosqichli davlat xaridlarini o‘tkazish mezonlari

Ikki bosqichli davlat xaridlari quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

g‘olibni aniqlash mezonlari tovarning (ishning, xizmatning) nafaqat pul bilan baholanishini, balki texnik, ekspluatatsiya qilinish xususiyatlarini va boshqa xususiyatlarini aniqlash imkoniyati mavjud bo‘lmagan texnik jihatdan murakkab tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) miqdoriy va sifat jihatidan baholanishini ham o‘z ichiga oladi;

tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravaridan ortiq (budjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravaridan ortiq) miqdorni tashkil etadi.

70[3]-modda. Ikki bosqichli davlat xaridlarini o‘tkazish bo‘yicha xarid komissiyasi

Davlat xaridini ikki bosqichli davlat xaridlari o‘tkazish orqali amalga oshirish uchun kamida yetti nafar a’zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi.

Agar majlisda xarid komissiyasi a’zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo‘lsa, xarid komissiyasi vakolatli hisoblanadi. Barcha qabul qilingan qarorlar bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

70[4]-modda. Ikki bosqichli davlat xaridlari o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon

Ikki bosqichli davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan cheklanmagan miqdordagi shaxslarga maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek davlat buyurtmachisining xohishiga ko‘ra uning rasmiy veb-saytiga yoki uning yuqori turuvchi organining rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalariga xaridlarni o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lonni va xarid bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini joylashtirish yo‘li bilan ma’lum qilinadi.

Ikki bosqichli davlat xaridlari o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon faqat xarid qilish hujjatlari yuzasidan Kompleks ekspertiza qilish markazining ijobiy xulosasi olinganidan keyin joylashtiriladi.

Ikki bosqichli davlat xaridlari o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon va xarid qilish hujjatlari davlat buyurtmachisi tomonidan har bir bosqich bo‘yicha takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida yigirma ish kuni oldin maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek davlat buyurtmachisining xohishiga ko‘ra, uning rasmiy veb-saytiga yoki uning yuqori turuvchi organining rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalariga joylashtiriladi.

70^5-modda. Ikki bosqichli davlat xaridlari ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi

Birinchi bosqichda ikki bosqichli davlat xaridlari ishtirokchilari xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) eng kam texnik xususiyatlarini aks ettiruvchi dastlabki o‘z texnik takliflarini taqdim etadi.

Texnik talablar davlat buyurtmachisining ehtiyojlaridan, xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) mo‘ljallanilgan maqsadi va funksiyalaridan kelib chiqqan holda belgilanishi kerak.

Ikki bosqichli davlat xaridlari ishtirokchilari tomonidan taqdim etiladigan takliflar ikki bosqichli davlat xaridlarining xarid qilish hujjatlariga va ushbu Qonunda belgilangan talablarga muvofiq bo‘lishi kerak.

Ikki bosqichli davlat xaridlarini elektron shaklda o‘tkazish chog‘ida ikki bosqichli davlat xaridlari ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

70^6-modda. Ikki bosqichli davlat xaridlari ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash

Birinchi bosqichda takliflarni taqdim etish muddati tugagach, davlat buyurtmachisi takliflarni ko‘rib chiqadi va baholaydi. Bunda xarid qilish hujjatlarida nazarda tutilgan texnik parametrlarga asosan texnik va ekspluatatsiya qilinish xususiyatlari bo‘yicha eng maqbul takliflarni taqdim etgan ishtirokchilar birinchi bosqichdan muvaffaqiyatli o‘tgan hisoblanadi.

Davlat xaridlarining ikkinchi bosqichi birinchi bosqichdan o‘tgan kamida ikki nafar ishtirokchining takliflari mavjud bo‘lganda o‘tkaziladi.

Ikkinchi bosqichni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida davlat buyurtmachisi kelib tushgan dastlabki takliflarga muvofiq o‘zining dastlabki talablarini qayta ko‘rib chiqadi va takomillashtiradi, bunda davlat xaridi predmetini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ikki bosqichli davlat xaridlarining ikkinchi bosqichida davlat buyurtmachisi tomonidan o‘zgartirish kiritilgan xarid qilish hujjatlari birinchi bosqichdan muvaffaqiyatli o‘tgan ishtirokchilarga yigirma ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddatda yuboriladi va ularga o‘z uzil-kesil takliflarini taqdim etish orqali xaridda ishtirok etish taklif qilinadi.

Takliflar turli darajadagi texnik afzalliklardan, iqtisodiy barqarorlik jihatlaridan, shu jumladan hayotiy davrning qiymatidan kelib chiqqan holda baholanadi. Yakuniy baholash xarid qilish hujjatlarida ko‘rsatilgan tartibda davlat buyurtmachisi tomonidan amalga oshiriladi.

Ikki bosqichli davlat xaridlari ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash muddati har bir bosqich bo‘yicha takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran yigirma ish kunidan oshishi mumkin emas.

Takliflarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha ikki bosqichli davlat xaridlari, agar ikkinchi bosqichda xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo‘lsa, o‘tkazilmagan deb hisoblanadi.

70^7-modda. Ikki bosqichli davlat xaridlarining natijalari bo‘yicha shartnoma tuzish

Ikki bosqichli davlat xaridlarining natijalari bo‘yicha shartnoma tuziladi.

Ikki bosqichli davlat xaridlarining natijalari bo‘yicha tuzilgan shartnomalar to‘g‘risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga ular tuzilgan sanadan e’tiboran besh ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

9-bob. To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari

71-modda. To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi

To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha davlat xaridlari quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

1) Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan yagona yetkazib beruvchi bilan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

3) favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining ehtiyojlarini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

4) sud muhokamalarida ishtirok etish uchun advokatni (vakilni) tayinlash bilan bog‘liq bo‘lgan davlat xaridi;

5) boshqa yetkazib beruvchi tomonidan mahsulot yetkazib berish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, litsenziya bitimiga (shartnomasiga, kontraktiga) asosan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) intellektual faoliyat natijalari muallifidan yoki intellektual faoliyat natijalaridan mutlaq foydalanish huquqiga ega bo‘lgan yetkazib beruvchidan, shuningdek fan, adabiyot va san’at asarlari, ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko‘rsatuvlari yoki eshittirishlari kabi intellektual faoliyat natijalarining ushbu intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo‘lgan yagona shaxsdan davlat xaridi;

6) narxi (tarifi) davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

7) davlat buyurtmachisi faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmat safarlari va boshqa hollar uchun chiptalarning davlat xaridi (avia, temir yo‘l va yo‘nalishli transportiga), shuningdek yashash xarajatlari;

8) boshqa yetkazib beruvchi tomonidan xizmat ko‘rsatish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, yetkazib beruvchi tomonidan avval olib kelingan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) kafolat muddati tugaganidan keyin va joriy xizmat ko‘rsatish (ehtiyot qismlarni xarid qilish), shuningdek avval xarid qilingan dasturiy mahsulotni kuzatish va (yoki) uni funksiyaviy jihatdan kengaytirish;

9) giyohvandlik vositalarini va psixotrop moddalarni saqlash hamda olib kirish (olib chiqish);

10) favqulodda hollarda tabiat hodisalari, epidemiyalar va kasalliklar tarqalishining oldini olish yoki uning oqibatlarini bartaraf etish uchun zarur tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanadigan davlat xaridi;

11) tabiiy ofatlarning va texnogen halokatlarning oqibatlarini tezkor bartaraf etish, shuningdek davlat buyurtmachisining to‘laqonli faoliyat olib borishiga ta’sir ko‘rsatadigan tarzda kommunikatsiyalar, mexanizmlar, jihozlar va boshqa asbob-uskunalar ishdan chiqqan hollarda avariyalarni bartaraf etish uchun tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

12) O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining, vazirliklar, idoralar, davlat korxonalari va muassasalarining sanatoriy-kurort va sog‘lomlashtirish muassasalariga, bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlariga yo‘llanmalarning, shuningdek madaniy-ommaviy tadbirlarga chiptalarning davlat xaridi;

13) O‘zbekiston Respublikasining ishlab chiqaruvchilaridan yoki ularning rasmiy dilerlaridan va distribyutorlaridan xarid qilinadigan yangi avtotransport vositalarining, maxsus va qishloq xo‘jaligi texnikasining davlat xaridi;

14) qo‘shimcha ishlarni va xizmatlarni amalga oshirish uchun shartnoma umumiy boshlang‘ich summasining 10 foizidan oshmaydigan miqdordagi xarajatlar, bundan ushbu Qonun 34-moddasining o‘n birinchi qismida nazarda tutilgan hol mustasno;

15) aviatsiya korxonalari tomonidan ishlab chiqaruvchilardan yoki sertifikatlashtirilgan yetkazib beruvchilardan import shartnomalari bo‘yicha xarid qilinadigan aviatsiya texnika jihozlari, shu jumladan havo kemalari, aviadvigatellar va ularning butlovchi qismlari, aviatsiya uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarning davlat xaridi;

16) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, chet davlatlar va hukumatlar rahbarlarining, shuningdek parlament a’zolarining va xalqaro tashkilotlar rasmiy delegatsiyalarining tashriflari munosabati bilan yashash, ovqatlanish, madaniy tadbirlarni tashkil etish hamda o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar, transport xarajatlari, suvenirlar, sovg‘alar xaridi va boshqa tashkiliy masalalar uchun nazarda tutilgan xarajatlar;

17) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasidan ajratiladigan mablag‘lar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining chet el delegatsiyalarini qabul qilish va xorijiy mamlakatlarga delegatsiyalarni yuborish bo‘yicha rejalashtirilgan mablag‘lar hisobidan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

18) quyidagilar uchun oziq-ovqat mahsulotlarining davlat xaridi:

davolash-profilaktika va ta’lim muassasalari;

mehmonxona va restoran xizmatlari ko‘rsatish;

muruvvat va nogironligi bo‘lgan shaxslar uylari;

mehribonlik uylari va internatlar;

qariyalar uylari;

19) fuqarolarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va davolash, shu jumladan jarrohlik amaliyoti va reabilitatsiya yordami bilan bog‘liq xarajatlar;

20) mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish yuzasidan “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan ta’lim dasturlarini tashkil etish, respublikaga xorijiy olimlar va mutaxassislarni, shu jumladan vatandoshlarni jalb etish xizmatlari;

21) avval tuzilgan shartnomalardagi yetkazib beruvchilar bilan aloqa, Internet va teleradiouzatish xizmatlari bo‘yicha davlat xaridi;

22) madaniyat va san’at bo‘yicha xalqaro hamda davlatlararo darajadagi tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq davlat xaridi. Bunda bunday tadbirlarning darajalari qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlanadi.

Davlat buyurtmachilari to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzilganligi to‘g‘risidagi axborotni shartnoma tuzilgan paytdan e’tiboran besh ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirishi shart.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzilganligi to‘g‘risidagi axborot maxsus axborot portaliga joylashtirilmagan bo‘lsa, ushbu shartnomalar bo‘yicha to‘lovlar amalga oshirilmaydi.

Davlat buyurtmachisi ushbu moddada nazarda tutilgan davlat xaridlarini amalga oshirish chog‘ida xarid qilish tartib-taomillarining boshqa raqobatli turlaridan ham ushbu Qonun talablariga muvofiq foydalanishi mumkin.

Agar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida tovarning (ishning, xizmatning) davlat xaridini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma asosida amalga oshirishga ruxsat berilsa, shartnoma va shartnomaga oid qo‘shimcha kelishuvlar Kompleks ekspertiza qilish markazida kompleks ekspertizadan o‘tkazilishi lozim, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno.

Favqulodda holatning oldini olish maqsadida vakolatli organ tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzish o‘rniga hadli kelishuvdan yoki kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomilidan foydalanishga ruxsat beriladi.

72-modda. Yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridi

Ushbu Qonunda belgilangan tartibda yagona yetkazib beruvchi deb topilgan va Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchisi yagona yetkazib beruvchidir.

Yagona yetkazib beruvchidan tovar (ish, xizmat) olish zarur bo‘lgan taqdirda, yetkazib beruvchi hamda davlat buyurtmachisi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuziladi va bu shartnoma to‘g‘risidagi axborot u tuzilgan paytdan e’tiboran besh ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirilishi lozim.

Yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridi quyidagi alohida hollarda amalga oshiriladi:

bozorda muqobillari bo‘lmagan va faqat yagona yetkazib beruvchidan olish mumkin bo‘lgan texnik jihatdan murakkab tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

madaniy qimmatliklarni olish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarida yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida yagona yetkazib beruvchi sifatida belgilangan subyektlardan davlat xaridlari;

tabiiy monopoliya subyekti tovarlarining (ishlarining, xizmatlarining) davlat xaridi;

o‘z vakolatlariga muvofiq faqat davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari yoki ularning tasarrufidagi davlat muassasalari va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan ishlarga yoki ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan xizmatlarga ehtiyoj paydo bo‘lishi.

73-modda. Yagona yetkazib beruvchilar reyestri

Yagona yetkazib beruvchilar reyestri vakolatli organ tomonidan maxsus axborot portalida yuritiladigan axborot resursidir.

Yagona yetkazib beruvchilar reyestri yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxati va yagona yetkazib beruvchilar ro‘yxatidan iboratdir.

10-bob. Xarid qilish tartib-taomillarini monitoring va nazorat qilish

74-modda. Davlat xaridlari sohasidagi monitoring va nazorat

Davlat xaridlari sohasidagi monitoring davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishini, davlat xaridlarining ushbu Qonunda belgilangan maqsadlari, prinsiplari va cheklovlari amalga oshirilishini davlat xaridlarining o‘tkazilishi haqidagi axborotni to‘plash, umumlashtirish, tizimlashtirish va baholash orqali doimiy asosda kuzatish tizimidir.

Davlat xaridlari sohasidagi nazorat mazkur sohadagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo‘yishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir.

Qonunchilikda belgilangan tartibda statistik va boshqa axborotni taqqoslash hamda tahlil qilish orqali amalga oshiriladigan tekshirishlar davlat organlarining davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etishi ustidan nazorat qilishning asosiy shaklidir.

Davlat xaridlari sohasidagi monitoring va nazorat tegishli vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat xaridlarini amalga oshiruvchi davlat organlari o‘z tasarrufidagi davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan davlat xaridlari bo‘yicha monitoring va nazorat o‘tkazishga haqlidir.

Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish chog‘ida qonunchilikda nazarda tutilmagan tekshirishlar o‘tkazilishiga va hisobot berish shakllarini talab qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

75-modda. Xarid qilish tartib-taomillarining davlat nazorati

Ushbu Qonunning va davlat xaridlari sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlarining to‘g‘ri qo‘llanilishi ustidan davlat nazoratini quyidagilar o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiradi:

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi.

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan davlat xaridlarini auditdan o‘tkazadi va audit natijalarini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga har yilning yakuni bo‘yicha kiritadigan hisobotida ko‘rsatadi, shuningdek ochiq axborot manbalariga joylashtiradi.

Ushbu Qonunning va davlat xaridlari sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlarining to‘g‘ri qo‘llanilishi ustidan davlat nazoratini qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatli davlat organlari ham o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiradi.

76-modda. Xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazorati

Xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazorati davlat xaridlarini rivojlantirish va takomillashtirishga ko‘maklashish, davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablari

buzilishlarining oldini olish va ularni aniqlash hamda davlat buyurtmachilarini, vakolatli davlat organlarini aniqlangan qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish maqsadida amalga oshiriladi.

Xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazorati ochiqlik va shaffoflik prinsiplarini ro‘yobga chiqarish vositasida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga haqli.

Jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari:

davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirishga doir takliflar tayyorlashga;

xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish va shartnomalarni bajarishning borishi to‘g‘risida axborot taqdim etish haqidagi so‘rovlarni davlat buyurtmachilariga yuborishga;

xarid qilish tartib-taomillari yuzasidan mustaqil monitoringni va davlat xaridlari samaradorligini baholashni, shu jumladan ularning ushbu Qonun talablariga muvofiqligini baholashni amalga oshirishga;

tekshiruv tadbirlarini o‘tkazish tashabbusi bilan davlat organlariga murojaat qilishga;

davlat buyurtmachisi, davlat xaridlari elektron tizimi operatori, vakolatli organ, xarid komissiyalari va ularning a’zolari harakatlarida (harakatsizligida) qoidabuzarliklar aniqlangan hollarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishga;

qonunchilikka muvofiq sudga murojaat qilishga haqli.

77-modda. Loyihaga doir faoliyat bo‘yicha davlat xaridlarining samaradorligi va natijadorligi tahlili

Loyihaga doir faoliyat bo‘yicha amalga oshirilgan davlat xaridlarining samaradorligi va natijadorligi tahlili tegishli vakolatli organ tomonidan o‘tkaziladi.

O‘tkazilgan tahlil natijalari bilan davlat buyurtmachisining rahbari yoki loyihani boshqarish bo‘yicha davlat buyurtmachisi tomonidan tayinlangan vakil imzo qo‘ygan holda tanishib chiqadi.

Davlat xaridlarining samaradorligi va natijadorligi yuzasidan loyihadan keyingi monitoring loyiha bo‘yicha davlat xaridi tugallanganidan keyin uch yil ichida tegishli vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi.

11-bob. Shikoyatlarni ko‘rib chiqish

78-modda. Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya

Vakolatli organ tomonidan shikoyatlarni adolatli, tezkor va samarali ko‘rib chiqish maqsadida doimiy ravishda faoliyat ko‘rsatadigan Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya tuziladi, uning tarkibi tegishli davlat organlari, davlat xaridlari elektron tizimining operatorlari va jamoatchilik vakillaridan iborat bo‘ladi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaga kelib tushgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Vakolatli organ Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaning ishchi organi bo‘lib, uning faoliyatini tashkil etadi.

Har bir ishtirokchi, shuningdek nazoratni amalga oshirayotgan shaxslar davlat buyurtmachisining, xarid komissiyasining, uning a’zolarining, davlat xaridlari elektron tizimi operatorining harakatlari (harakatsizligi) ustidan, agar bunday harakatlar (harakatsizlik) ishtirokchining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan bo‘lsa, sud tartibida yoki ushbu bobda belgilangan tartibda Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaga shikoyat qilish huquqiga ega.

ILG5739

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya a’zolariga doir malaka talablari qonunchilikda belgilanadi.

79-modda. Shikoyatlarni berish va ko‘rib chiqish tartibi

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya shikoyatni qabul qilib olganda shikoyat kelib tushgan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida shikoyat haqida davlat buyurtmachisini xabardor qiladi hamda xarid qilish tartib-taomilini o‘n ish kunigacha bo‘lgan umumiy muddatga to‘xtatib turadi.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya shikoyatni davlat buyurtmachisi va ishtirokchining ishtirokida ko‘rib chiqadi, bundan ishtirokchi shikoyatni uning ishtirokisiz ko‘rib chiqishga rozilik bildirgan yoki uzrli sabablarsiz ishtirok etmagan hollar mustasno.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya shikoyat olinganidan keyin yetti ish kuni ichida u bo‘yicha qaror chiqarishi va bu haqdagi axborotni maxsus axborot portalida joylashtirishi kerak.

Qabul qilingan qarorda oshkor etilishi ishtirokchining (ijrochining) tijoratga oid manfaati buzilishiga olib keladigan yoki insofli raqobatga xavf soladigan axborot bo‘lmasligi kerak, bundan Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya ushbu axborotni e’lon qilish to‘g‘risida qaror chiqargan hollar mustasno.

Ishtirokchining shikoyati asosli deb topilgan taqdirda, Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya quyidagi choralarni ko‘rishi mumkin:

davlat buyurtmachisining qonunga xilof harakatlariga, qarorlariga yoki u tomonidan qonunga xilof tartib-taomillar bajarilishiga doir taqiq belgilash;

davlat buyurtmachisining qonunga xilof qarorlarini, shu jumladan davlat xaridlari sohasidagi hujjatlarning shartlarini buzadigan qarorlarini qisman yoki to‘liq bekor qilish;

xarid qilish tartib-taomillarini tugatish haqida qaror chiqarish;

ijrochini Insofsiz ijrochilarning yagona reyestriga kiritish.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaning qarorlari davlat xaridlarining barcha subyektlari tomonidan ijro etilishi shart.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya o‘z faoliyatini ushbu Qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

Ijrochi Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaning qarori ustidan sud tartibida shikoyat qilishi mumkin.

79^{1}-modda. Shikoyatlarni ko‘rib chiqishda manfaatlar to‘qnashuvi

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya a’zolarida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari bilan manfaatlar to‘qnashuvi, shuningdek affillanganlik mavjud bo‘lgan taqdirda, Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaning bunday a’zosi bu masala ko‘rib chiqilgan majlisda o‘zini o‘zi rad etishi va mazkur masala bo‘yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqda Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya majlisining bayonnomasida qayd etiladi.

Agar Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaga mazkur komissiya a’zosining manfaatlar to‘qnashuvi, shuningdek affillanganligi mavjudligi tegishli masala yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar ma’lum bo‘lib qolgan bo‘lsa, uning o‘zi esa o‘zini o‘zi rad etmagan bo‘lsa, Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya bunday a’zosining mazkur masala bo‘yicha ovoz berishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Agar qaror qabul qilinganidan keyin Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaga tegishli masala bo‘yicha ovoz bergan mazkur komissiya a’zosining manfaatlar to‘qnashuvi, shuningdek affillanganligi mavjudligi to‘g‘risida ma’lum bo‘lib qolsa, Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaning bunday a’zosi ovozi mazkur masala bo‘yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlanadi.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya raisi ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan hollarda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tegishli axborotni kiritadi.

12-bob. Yakunlovchi qoidalar

80-modda. Nizolarni hal etish

Davlat xaridlari sohasida yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

81-modda. Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Davlat xaridlari subyektlari va ularning mansabdor shaxslari ushbu Qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi va shartnoma bo‘yicha o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar lozim darajada bajarilishi uchun javobgar bo‘ladi.

Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

82-modda. Ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish

Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

1) O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-aprelda qabul qilingan “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-472-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2018-yil, № 4, 220-modda);

2) O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda qabul qilingan “Mehnatga haq to‘lash, pensiyalar va boshqa to‘lovlar miqdorlarini aniqlash tartibi takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-586-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 12, 880-modda) 53-moddasi.

83-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta’minlash

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

84-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

85-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

Eng yaxshi takliflarni tanlash va tender xarid qilish tartib-taomillarini majburiy tartibda elektron shaklda o‘tkazish to‘g‘risidagi talab 2022-yil 1-yanvardan e’tiboran amalga kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2021-yil 22-aprel,
O‘RQ-684-son

ILG5739

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI **DAVLAT XARIDLARI QIYMATINI BAHOLASHNING SHAFFOF TIZIMINI JORIY ETISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 26-dekabrdagi PF-259-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq davlat xaridlari qiymatining bozor narxlariga muvofiqligini baholash uchun davlat buyurtmachisi ochiq axborot manbalaridagi axborotlardan yoki boshqa ishonchli manbalardan foydalanishi, shuningdek, davlat buyurtmachisi har bir davlat xaridini amalga oshirishda xarid predmetining narxini o‘rganishi shartligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 26-dekabrdagi PF-259-son Farmoniga muvofiq davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portalida (keyingi o‘rinlarda — Portal) ayrim turdagi tovarlarning o‘rtacha bozor narxini sun’iy intellekt texnologiyalari asosida hisoblab beruvchi elektron modul sinov rejimida ishga tushirilgani ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Davlat xaridi predmetining o‘rtacha bozor hamda boshlang‘ich narxini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini o‘rganish tartibi;

davlat xaridlarida o‘rtacha bozor narxlari bo‘yicha elektron modulni joriy qilish;

xaridlarni amalga oshirishda narxlarning shakllantirilishi yuzasidan davlat va jamoatchilik nazorati.

3. Belgilansinki, 2026-yil 1-oktabrdan boshlab barcha davlat buyurtmachilari davlat xaridlarini amalga oshirishdan oldin davlat xaridlari predmetining o‘rtacha bozor va boshlang‘ich narxini mazkur qarorga muvofiq Portalning alohida modulida shakllantiradi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi:

O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda 2027-yil 1-yanvarga qadar Portalda davlat xaridi predmetining o‘rtacha bozor hamda boshlang‘ich narxini hisoblab beruvchi elektron modulda sun’iy intellekt texnologiyalari to‘liq joriy etilishini ta’minlasin;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2027-yil 1-oktabrga qadar davlat buyurtmachilari tomonidan davlat xaridi predmetining o‘rtacha bozor hamda boshlang‘ich narxini aniqlash tartiblarini takomillashtirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi, Soliq qo‘mitasi, Milliy statistika qo‘mitasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2027-yil 1-yanvarga qadar tegishli axborot tizimlarini Portalga integratsiya qilish orqali tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) narxlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar real vaqt rejimida Portalga taqdim etilishini yo‘lga qo‘ysin.

Bunda tegishli axborot tizimlari “Elektron hukumat” tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali integratsiya qilinadi.

6. Belgilansinki, 2027-yil 1-yanvardan boshlab Portaldagi narxlar moduli ushbu qaror bilan tasdiqlangan Vaqtinchalik nizomga ilovada keltirilgan ro‘yxatdagi tovarlarning o‘rtacha

bozor narxini sun’iy intellekt texnologiyalari asosida avtomatik ravishda aniqlaydi hamda davlat buyurtmachilari uchun tegishli tahliliy ma’lumotlarni shakllantiradi.

Bunda avtomatik ravishda aniqlangan o‘rtacha bozor narxi davlat buyurtmachisi tomonidan xarid predmetining boshlang‘ich narxini belgilashda axborot-tahliliy asos sifatida qo‘llanadi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi:

2026-yil 1-oktabrdan boshlab davlat xaridlarida o‘rtacha bozor narxlari bo‘yicha elektron modul to‘liq ishga tushirilishini ta’minlasin;

2026-yil 1-dekabrga qadar O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi bilan birgalikda Davlat xaridlari sohasida foydalanadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) milliy klassifikatorini Mahsulot va xizmatlarning identifikatsiya kodlari (MXIK) va Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan o‘zaro muvofiqlashtirsin va tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qaysi kodlarga to‘g‘ri kelishi bo‘yicha ro‘yxatni e’lon qilsin hamda doimiy yangilab borsin;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda davlat xaridi predmetining o‘rtacha bozor narxini aniqlash yuzasidan o‘quv kurslarini tashkil etsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 833-son qarori bilan tasdiqlangan “Raqamli transformatsiya markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining elektron kooperatsiya portalida axborotni joylashtirish va xaridlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri J.A. Qo‘chqorov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2026-yil 8-sentabr,
480-son

ILG5739

Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 8-sentabrdagi 480-son qaroriga
1-ILOVA

Davlat xaridi predmetining o‘rtacha bozor hamda boshlang‘ich narxini aniqlash tartibi to‘g‘risida
VAQTINCHALIK NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Vaqtinchalik nizom davlat buyurtmachilari tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirish uchun davlat xaridi predmetining o‘rtacha bozor hamda boshlang‘ich narxini aniqlash tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Vaqtinchalik nizom 2028-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

3. Ushbu Vaqtinchalik nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ — O‘zbekiston Respublikasi Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi;

narxlar moduli — xarid predmetining o‘rtacha bozor hamda boshlang‘ich narxini aniqlash imkonini beradigan va narxlar bo‘yicha ma’lumotlar yuritiladigan davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portalining (keyingi o‘rinlarda — Portal) alohida moduli;

tovarning (ish, xizmatning) bozor narxi (keyingi o‘rinlarda — bozor narxi) — ochiq axborot manbalari yoki boshqa ishonchli manbalardan olingan ma’lumotlarga ko‘ra tovarlar (ishlar, xizmatlar) bozorida shakllangan narx;

tovarning (ish, xizmatning) xususiyatlari — o‘rtacha bozor narxini o‘rganishda taqqoslash (muvofiqlikni baholash) uchun davlat buyurtmachisi tomonidan xarid predmetining xususiyatidan kelib chiqib belgilanadigan sifat va miqdor ko‘rsatkichlari, funksional, texnik hamda ekspluatatsiya tavsiflari majmui bo‘lib, zarur hollarda ushbu xususiyatlar standartlar (texnik reglamentlar), komplektatsiya, model (marka), ishlab chiqarilgan yil, kafolat va servis shartlari, ish (xizmat) bo‘yicha esa bajarish natijasi, hajmi, muddati, bajarish joyi, topshirish-qabul qilish, tovar (ish, xizmat) narxiga ta’sir qiluvchi shartlar va omillar, shuningdek, davlat xaridlarida barqarorlik prinsipini qo‘llashda e’tiborga olinadigan hamda shunga o‘xshash boshqa talablar bilan to‘ldirilishi mumkin;

xarid predmetining o‘rtacha bozor narxi — bozor narxlaridan foydalangan holda davlat buyurtmachisi tomonidan ushbu Vaqtinchalik nizomga muvofiq o‘rganib, shakllantiriladigan hamda narxlar modulida yuritiladigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) o‘rtacha narxi.

4. Davlat buyurtmachisi:

davlat xaridlari uchun ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanishi, shu jumladan, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilishdan ko‘rilgan foyda (naf), ularning sifati va qiymati o‘rtasidagi maqbul nisbatni (foydalanish davri xarajatlarini hisobga olgan holda) ta’minlashi;

davlat xaridlarining maqsadga muvofiqligi va zarurligi, tovarni (ishni, xizmatni) tanlashda uning xususiyatlari, shuningdek, davlat xaridlarini o‘tkazish xarajatlarini va tovar (ish, xizmat) qiymatining asoslanganini hisobga olgan holda amalga oshirishi;

har bir davlat xaridini amalga oshirishda xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini o‘rganishi;

xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini bozor narxlariga muvofiq shakllantirish uchun davlat buyurtmachisi faqat ochiq axborot manbalaridagi axborotlardan yoki boshqa ishonchli manbalardan foydalanishi;

o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilangan miqdorlardan ortiqcha hajmda hamda xususiyatlariga ko‘ra zarur bo‘lmagan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilmasligi;

davlat xaridlarini amalga oshirishda mablag‘larni talon-toroj qilish hamda tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxini sun’iy oshirib yuborish holatlarining oldini olishi;

davlat xaridlari natijalariga ko‘ra tuzilgan shartnomalardagi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) narxlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ochiqlab borishi shart.

5. Xarid predmetining o‘rtacha bozor hamda boshlang‘ich narxi ushbu Vaqtinchalik nizomga 1-ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq shakllantiriladi.

6. Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishdan oldin davlat buyurtmachisi narxlar moduli orqali xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini shakllantirishda oxirgi 90 kunda shakllangan bozor narxlari bo‘yicha ma’lumotlardan foydalanadi.

Oxirgi 90 kunda shakllangan bozor narxlari bo‘yicha ma’lumotlar mavjud bo‘lmagan taqdirda, oxirgi 365 kungacha bo‘lgan ma’lumotlardan foydalanishga ruxsat beriladi.

7. Xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini shakllantirishda o‘rganilayotgan ma’lumotlardagi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xususiyatlari davlat buyurtmachisi tomonidan xarid qilinishi rejalashtirilayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xususiyatlari bilan, qoida tariqasida, o‘zaro mos yoki taqqoslanadigan bo‘lishi lozim, biroq sifatni pasaytirish hisobiga arzonroq hamda taqqoslanmaydigan variantlarni tanlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

8. Narxlar moduli davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ tomonidan yuritiladi hamda u quyidagi sahifalardan tashkil topadi:

xarid predmeti bo‘yicha narxlarni o‘rganish uchun e’lon joylashtirish va takliflarni elektron tarzda qabul qilish va joylashtirish sahifasi;

davlat xaridlarida ishtirok etayotgan salohiyatli yetkazib beruvchilardan tovar (ish, xizmat) narxlarini manzilli so‘rash sahifasi;

avvalgi davlat xaridlari natijalariga ko‘ra tuzilgan shartnomalar bo‘yicha narxlarning ma’lumotlar bazasi;

xarid predmetining o‘rtacha bozor narxi, yuqori va past chegara narxlari, so‘nggi tendensiyalar va dinamik o‘zgarishlarni hisoblash sahifasi;

davlat buyurtmachisi tomonidan shakllantirilgan xarid predmetining o‘rtacha bozor narxi bo‘yicha rasmiylashtirilgan hujjatlarni elektron tarzda yuklash, saqlash va ochiqlash imkoniyati;

ushbu Vaqtinchalik nizomga 3-ilovada keltirilgan ro‘yxatdagi tovarlar bo‘yicha sun’iy intellekt texnologiyalari asosida avtomatik ravishda aniqlanadigan o‘rtacha bozor narxlari sahifasi.

2-bob. Xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda o‘rganish

9. Narxlar moduli Portal bilan ma’lumotlar almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan tegishli vazirlik va idoralar axborot tizimlari hamda davlat xaridlari elektron tizimi operatorlarining ma’lumotlari asosida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda, ushbu Vaqtinchalik nizomga 2-ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq mazkur Vaqtinchalik nizomga 3-ilovada keltirilgan ro‘yxatdagi tovarlarning o‘rtacha bozor narxlarini avtomatik ravishda shakllantiradi.

Ushbu Vaqtinchalik nizomga 3-ilovadagi ro‘yxatga kiritilgan tovar bo‘yicha xarid predmetining boshlang‘ich narxi, qoida tariqasida, narxlar modulida sun’iy intellekt texnologiyalari asosida avtomatik ravishda aniqlangan o‘rtacha bozor narxi asosida belgilanadi hamda e-ma’lumotnoma shu asosda shakllantiriladi, ushbu Vaqtinchalik nizomning 19-bandida belgilangan hollar bundan mustasno.

Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini avtomatik ravishda aniqlash imkoni mavjud bo‘lmagan hollarda, davlat buyurtmachisi xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini ushbu Vaqtinchalik nizom talablariga muvofiq mustaqil ravishda shakllantiradi.

10. Narxlar modulida sun’iy intellekt texnologiyalaridan xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini aniqlash, tovarning xususiyatlarini taqqoslash, ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish, shuningdek, davlat buyurtmachisiga axborot-tahliliy yordam ko‘rsatish maqsadida foydalaniladi.

11. Narxlar modulida sun’iy intellekt texnologiyalari asosida aniqlangan o‘rtacha bozor narxlari, ularni hisoblashda foydalanilgan asosiy parametrlar, manbalar soni, hisoblash sanasi hamda tegishli tahliliy ma’lumotlar barcha uchun ochiq tarzda joylashtiriladi.

12. Davlat buyurtmachisi tomonidan mazkur Vaqtinchalik nizomga 3-ilovada keltirilgan ro‘yxatdagi tovarlarning boshlang‘ich narxini belgilashda sun’iy intellekt texnologiyalari asosida avtomatik ravishda aniqlangan o‘rtacha bozor narxi ustuvor manba sifatida qo‘llanadi.

Davlat buyurtmachisi sun’iy intellekt texnologiyalari asosida avtomatik ravishda aniqlangan o‘rtacha bozor narxidan foydalanishda uning xarid predmeti xususiyatlariga mosligi yoki taqqoslanadigan bo‘lishini, manbalarning yetarliligi va hisoblash natijasining ishonchliligini inobatga oladi.

Zarur hollarda, davlat buyurtmachisi ushbu Vaqtinchalik nizom talablariga muvofiq qo‘shimcha o‘rganish o‘tkazishi mumkin.

3-bob. Xarid predmetining o‘rtacha bozor va boshlang‘ich narxi elektron ma’lumotnomasini (e-ma’lumotnoma) shakllantirish tartibi

13. Xarid predmetining o‘rtacha bozor va boshlang‘ich narxi elektron ma’lumotnomasi (keyingi o‘rinlarda — e-ma’lumotnoma) ushbu Vaqtinchalik nizomga 4-ilovaga muvofiq namunaviy shaklda shakllantiriladi va unda quyidagilar aks ettiriladi:

xarid predmeti;

o‘rganilgan manbalar (nomi yoki havolasi), shu jumladan, tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqidagi ma’lumotlar;

xarid predmetining o‘rtacha bozor va boshlang‘ich narxini aniqlash bo‘yicha hisob-kitoblar.

Bir nechta tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha bitta e-ma’lumotnoma shakllantirilishi mumkin.

Ushbu Vaqtinchalik nizomga 3-ilovada keltirilgan ro‘yxatdagi tovarlar bo‘yicha e-ma’lumotnomada sun’iy intellekt texnologiyalari asosida avtomatik ravishda aniqlangan o‘rtacha bozor narxi, uni hisoblash sanasi, manbalar soni hamda zarur hollarda qo‘shimcha o‘rganish o‘tkazilgani haqidagi ma’lumotlar ham aks ettiriladi.

14. E-ma’lumotnoma narxlar modulida elektron tarzda O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi — so‘mda shakllantiriladi.

Chet el valyutasida aks ettirilgan bozor narxidan (narxlaridan) foydalanilgan hollarda, e-ma’lumotnoma u shakllantiriladigan sanadagi milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi asosida shakllantiriladi.

Bunda shakllantirilgan e-ma’lumotnomadan tegishliligi bo‘yicha davlat xaridlari to‘g‘risida e’lon joylashtirilgan yoki ishtirokchining ofertasi tanlangan yoxud qonunchilikka muvofiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri, shuningdek, boshqacha tarzda shartnoma tuzilgan sanadagi milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi asosida qayta hisob-kitob qilish orqali foydalanishga ruxsat beriladi.

15. Xarid qilish tartib-taomillarini e-ma’lumotnoma mavjud bo‘lgan taqdirdagina amalga oshirishga ruxsat beriladi va u xarid qilish hujjatlarining ajralmas qismi sifatida ilova qilinadi, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno.

Davlat buyurtmachisi e-ma’lumotnomadagi xarid predmetining boshlang‘ich narxidan (narxlaridan) yuqori bo‘lmagan narx (narxlar) bo‘yicha davlat xaridlarini amalga oshiradi, ushbu Vaqtinchalik nizomning 36-bandida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. E-ma’lumotnoma davlat xaridlarining reja-jadvaliga biriktirilishi mumkin.

16. Davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishdan oldin ochiq axborot manbalaridan yoki boshqa ishonchli manbalardan olingan kamida uchta narxlarni solishtirish yo‘li bilan yoxud tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) kamida uchta salohiyatli yetkazib beruvchilaridan narxlar bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlar asosida e-ma’lumotnomani narxlar modulidan foydalangan holda shakllantiradi, ushbu Vaqtinchalik nizomga 3-ilovada keltirilgan ro‘yxatdagi tovarlar bo‘yicha sun’iy intellekt texnologiyalari asosida avtomatik ravishda aniqlangan o‘rtacha bozor narxidan foydalaniladigan hollar bundan mustasno.

Agar davlat buyurtmachisi bunday tovarlar bo‘yicha qo‘shimcha o‘rganish o‘tkazsa, ushbu band talablari tatbiq etiladi.

Agar ochiq axborot manbalaridan yoki boshqa ishonchli manbalardan kamida uchta narx yoxud tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) kamida uchta salohiyatli yetkazib beruvchilaridan narxlar bo‘yicha ma’lumotlar topilmasa, davlat buyurtmachisi bu holatni asoslovchi dalillarni, shu

jumladan, boshqa ma’lumotlarning mavjud emasligini tasdiqlovchi axborotlarni (qidiruv natijalari, so‘rovlar va javoblar, skrinshotlar va boshqalar) narxlar moduliga joylashtiradi.

Ushbu talablarga rioya etilgan taqdirda, mavjud ma’lumot (ma’lumotlar) asosida e-ma’lumotnoma shakllantirilishi mumkin.

Yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridi amalga oshirilishida e-ma’lumotnoma ushbu Vaqtinchalik nizomning 27-bandida belgilangan manbalarning kamida biridan foydalangan holda shakllantiriladi.

Bunda narx ma’lumotining tarkibi (QQS, yetkazib berish, montaj/o‘rnatish, kafolat va servis shartlari) aniq ko‘rsatilishi shart.

17. Davlat buyurtmachisiga e-ma’lumotnomadan u shakllantirilgan sanadan boshlab ko‘pi bilan 90 kungacha bo‘lgan muddatda foydalanishga, shuningdek, takroriy foydalanishga ruxsat beriladi.

Bunda takroriy foydalanish uchun davlat buyurtmachisi tomonidan xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari ushbu davlat buyurtmachisiga tegishli ilgari shakllantirilgan e-ma’lumotnomadagi tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlariga to‘liq mos kelishi shart.

Ushbu bandda nazarda tutilgan 90 kunlik muddat e-ma’lumotnoma shakllantirilgan hamda tegishliligi bo‘yicha davlat xaridlari to‘g‘risidagi e’lon joylashtirilgan yoki ishtirokchining ofertasi tanlangan yoxud qonunchilikka muvofiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri, shuningdek, boshqacha tarzda shartnoma tuzilgan sanalar orasidagi farq bilan aniqlanadi.

18. E-ma’lumotnoma davlat buyurtmachisining davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan tarkibiy bo‘linmasi yoki alohida xodimi yoxud kollegial organi tomonidan shakllantiriladi va u e-ma’lumotnoma to‘g‘ri shakllantirilishi, qo‘shimcha o‘rganish o‘tkazilgan hollarda uning natijalari to‘g‘ri rasmiylashtirilishi uchun mas’ul hisoblanadi.

19. Xarid predmetining narxi yoki boshlang‘ich narxi qonunchilikka muvofiq tegishli vakolatli organlar tomonidan belgilangan yoki tavsiya etilgan yoxud taqdim etilgan hollarda, ushbu narx asosida davlat buyurtmachisi tomonidan narxlar modulidagi e-ma’lumotnoma shakllantiriladi.

20. Ochiq axborot manbalari yoki boshqa ishonchli manbalar quyidagilardan tashkil topadi:

ijro etilgan davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomalar (to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzilgan shartnomalar bundan mustasno) bo‘yicha davlat xaridlari elektron tizimidagi axborotlar;

tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) narxlari to‘g‘risida vazirlik va idoralarning axborot manbalaridagi ma’lumotlar, jumladan, hisobvaraq-faktura va invoys ma’lumotlari;

ommaviy axborot vositalari, elektron va bosma davriy nashrlar (kataloglar) hamda tijorat takliflari ma’lumotlari;

narxlar moduli orqali xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini o‘rganish bo‘yicha davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtirilgan e’lon, shuningdek, so‘rovnoma asosida olingan takliflar;

yetkazib beruvchilar, shuningdek, yagona yetkazib beruvchilar tomonidan narxlar moduliga joylashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlari;

birja kotirovka ma’lumotlari;

yetkazib beruvchilarning Internet jahon axborot tarmog‘idagi veb-saytlaridagi, ommaviy ofertalaridagi (takliflaridagi) axborotlari;

xorijiy davlatlar hamda xalqaro tashkilotlarning rasmiy axborot manbalari;

ekspert, ekspert tashkiloti yoki ixtisoslashgan tashkilot tomonidan xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini o‘rganish bo‘yicha rasmiylashtirilgan hujjatlar;

O‘zbekiston Respublikasining “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq baholash obyektlarining baholash natijalari.

Narx to‘g‘risidagi ma’lumotlar ushbu bandda nazarda tutilgan manbalardan rasmiy yozishmalar, elektron pochta, elektron hujjat almashinuvi tizimlari, narxlar modulida e’lon

joylashtirish, so‘rovnoma yuborish, ochiq axborotni yig‘ish va tahlil qilish, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa usullar orqali olinishi mumkin.

Bunda telefon aloqasi, messenjerlar, videokonferensaloqa va boshqa tezkor aloqa vositalari orqali olingan ma’lumotlardan, agar bunday ma’lumotlar xizmat yozuvi, bayonnoma, skrinshot, elektron xabar yoki boshqa tasdiqlovchi materiallar bilan qayd etilgan hamda narxlar moduliga joylashtirilgan bo‘lsa, foydalanishga yo‘l qo‘yiladi.

Ushbu bandda sanab o‘tilgan manbalar ro‘yxati cheklangan hisoblanmaydi. Davlat buyurtmachisi mazkur Vaqtinchalik nizomning 22-bandida nazarda tutilgan cheklovlarga rioya etgan holda narxni tekshirish, taqqoslash va asoslash imkonini beradigan boshqa ochiq axborot manbalari yoki ishonchli manbalardan ham foydalanishi mumkin.

Ushbu bandda nazarda tutilgan manbalardan olingan barcha ma’lumotlar, shu jumladan, ularni olish usuli va tasdiqlovchi materiallar davlat buyurtmachisi tomonidan narxlar moduliga joylashtiriladi.

21. Davlat buyurtmachisi xarid predmetining xususiyati, bozor konyunkturasi, xarid shartlari va mavjud axborotdan kelib chiqib, o‘rtacha bozor narxini o‘rganishda foydalaniladigan manbalar va usullarni, ularni qo‘llash ketma-ketligini, o‘zaro taqqoslash tartibini hamda qaysi ma’lumotlarni asos sifatida qabul qilishni mustaqil ravishda belgilaydi, ushbu Vaqtinchalik nizomning 6, 7, 17, 19 va 22-bandlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

22. Xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini aniqlash uchun quyidagi manbalardan olingan ma’lumotlardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi:

Insofsiz ijrochilarning yagona reyestriga kiritilgan yetkazib beruvchilardan;

anonim, manbai noma’lum axborotlardan;

texnik topshiriqdagi talablarga yoki so‘rov predmetiga javob bermaydigan takliflardan;

qonunchilikka muvofiq affillangan subyektlarning narx takliflaridan;

amal qilish muddati ko‘rsatilmagan tijorat takliflaridan.

23. Davlat buyurtmachisi xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini o‘rganish uchun ekspert, ekspert tashkiloti yoki ixtisoslashgan tashkilot xizmatlaridan foydalanishi mumkin.

Ekspert, ekspert tashkiloti yoki ixtisoslashgan tashkilot ochiq axborot manbalardan olingan ma’lumotlarni tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirishi kerak.

Bunda xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini o‘rganish uchun ekspert ushbu sohada amaliy tajribaga ega bo‘lishi, ekspert tashkiloti va ixtisoslashgan tashkilot narxlarni tahlil qilish bo‘yicha xodimga ega bo‘lishi talab etiladi.

4-bob. Xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini o‘rganish bo‘yicha e’lon joylashtirish hamda so‘rovnoma yuborish tartibi

24. Davlat buyurtmachisi narxlar modulida ushbu Vaqtinchalik nizomga 5-ilovaga muvofiq xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini o‘rganish bo‘yicha e’lonni kamida ikki ish kuniga joylashtirishi mumkin.

Davlat buyurtmachisi e’longa qo‘shimcha ravishda xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini o‘rganish bo‘yicha ushbu Vaqtinchalik nizomga 6-ilovadagi namunaviy shakl asosida so‘rovnomani salohiyatli yetkazib beruvchilarga yuborishi mumkin.

E’londa (so‘rovnomada) takliflarni taqdim etish tartibi belgilanib, unda narxlar aniq va asosli bo‘lishi, taklifda tovarning (ishning, xizmatning) bir birlik narxi va umumiy hajmi, shuningdek, taklif rasmiy oferta emasligi va shartnoma tuzish majburiyati yuklanmasligi ko‘rsatiladi.

Zarur hollarda, davlat buyurtmachisi tovarning (ishning, xizmatning) narxlarini o‘rganish bo‘yicha yuborilgan so‘rovga ishlab chiqilgan texnik topshiriq va boshqa hujjatlarni ilova qilishi hamda salohiyatli yetkazib beruvchilarning malaka ma’lumotlarini so‘rashi mumkin.

25. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari (salohiyatli yetkazib beruvchilar) o‘z takliflarini davlat buyurtmachisi tomonidan e’londa (so‘rovnomada) belgilangan talablar asosida taqdim etadi.

Taklifda belgilangan xarid qilinadigan tovarning (ishning, xizmatning) bir birlik narxi, umumiy hajmi va boshqa talab etilgan ma’lumotlar ko‘rsatilishi lozim. Bunda narxlarning sun’iy va/yoki asossiz ravishda oshirib yuborilishiga yo‘l qo‘yilmasligiga alohida e’tibor qaratish nazarda tutiladi.

26. Davlat buyurtmachisi kelib tushgan takliflarni ularning e’londa (so‘rovnomada) belgilangan talablarga muvofiqligi, tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari hamda narxlarning asoslanganini inobatga olgan holda ko‘rib chiqib, belgilangan talablarga muvofiq kelgan takliflardan xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini o‘rganishda foydalanadi.

27. Yagona yetkazib beruvchi bilan xarid predmetining narxi quyidagi manbalardan biri orqali o‘rganiladi:

yagona yetkazib beruvchilar tomonidan narxlar moduliga joylashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlari;

davlat buyurtmachisi tomonidan yagona yetkazib beruvchiga ushbu Vaqtinchalik nizomga muvofiq yuborilgan so‘rovnoma asosida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlari.

5-bob. Xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini shakllantirish tartibi

28. Narxlar modulida xarid predmeti bo‘yicha o‘rganilgan bozor narxlari narxlarning o‘zgarish koeffitsiyenti formulasi bo‘yicha taqqoslanadi.

29. Narxlarning o‘zgarish koeffitsiyenti narxlar modulida avtomatik ravishda aniqlanadi.

30. Narxlarning o‘zgarish koeffitsiyenti 30 foizdan oshmagan taqdirdagina, xarid predmetining o‘rtacha bozor narxi o‘rganilgan deb hisoblanadi.

Agar narxlarning o‘zgarish koeffitsiyenti 30 foizdan oshsa, davlat buyurtmachisi xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini qayta o‘rganishi lozim.

31. Xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini o‘rganishda narxlarning o‘zgarish koeffitsiyenti quyidagi formulaga asosan aniqlanadi:

bu yerda:

a) o‘rtacha kvadratik og‘ish quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

bu yerda:

X1,2…n — har bir manba bo‘yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlari;

O‘BN — xarid predmetining o‘rtacha bozor narxi;

n — o‘rganishda foydalanilgan narxlar soni;

b) xarid predmetining o‘rtacha bozor narxi quyidagi formula bo‘yicha shakllantiriladi:

$$O‘BN = \frac{(X1 * Y1 + X2 * Y2 + ... + Xn * Yn)}{(Y1 + Y2 + ... + Yn)}$$

bu yerda:

X1,2…n — har bir manba bo‘yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlari;

Y1,2…n — har bir manba bo‘yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlari.

32. Xarid predmetining boshlang‘ich narxi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$BN = (O‘BN * V) * (1 + t/100)$$

bu yerda:

v — xarid qilinadigan tovar (ish, xizmat) miqdori (hajmi);

t — xarid predmetining boshlang‘ich narxi hamda uning o‘rtacha bozor narxi o‘rtasidagi tafovut miqdori.

Bunda:

ILG5739

to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xaridlar moduldagi xarid predmetining o‘rtacha bozor narxidan oshmagan holda amalga oshiriladi, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

davlat buyurtmachisi e-ma’lumotnomada tovar (ish, xizmat) miqdorini (hajmini) 10 foizdan oshmagan miqdorda o‘zgartirish huquqiga ega. Bunda tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlarini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Mazkur huquq bitta e-ma’lumotnoma doirasida bir marta qo‘llanadi.

33. Davlat buyurtmachisi xarid predmetining boshlang‘ich narxini hisoblash maqsadida xarid predmetining boshlang‘ich narxi hamda uning o‘rtacha bozor narxi o‘rtasidagi tafovut miqdorini belgilab, xarid qilinadigan tovar (ish, xizmat) miqdorini (hajmini) ko‘rsatgan holda, ushbu ma’lumotlarni narxlar moduliga kiritadi va e-ma’lumotnomani shakllantirish va tasdiqlash uchun elektron raqamli imzodan foydalangan holda tegishli topshiriqni tasdiqlaydi.

34. Narxlar moduli e-ma’lumotnoma shakllantirilgandan so‘ng tegishli ma’lumotlar davlat xaridlari elektron tizimlariga yuboriladi.

35. Davlat xaridlari elektron tizimi davlat buyurtmachisiga e-ma’lumotnoma bo‘yicha kelib tushgan ma’lumotlar asosida davlat xaridlariga ruxsat beradi. E-ma’lumotnoma bo‘yicha ma’lumot shartnoma to‘g‘risidagi axborotda aks ettiriladi.

36. Elektron do‘kon tartib-taomilida, shuningdek, elektron kooperatsiya portalida ishtirokchining ofertasi bo‘yicha shartnoma davlat buyurtmachisi tomonidan shakllantirilgan xarid predmetining boshlang‘ich narxidan yuqori narxda shakllanish holati yuzaga kelganda, davlat buyurtmachisiga ushbu shartnomani shakllantirish yoki shakllantirishni rad etish imkoniyati yaratiladi.

Bunda davlat buyurtmachisi bir ish kuni ichida shartnomani shakllantirish yoki shakllantirishni rad etish bo‘yicha so‘rovni qabul qilmasa, davlat xaridlari elektron tizimi shartnomani shakllantirishni avtomatik ravishda rad etadi.

37. Davlat xaridlari elektron tizimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PF-259-son Farmoni 4-bandining “a” kichik bandida belgilangan xavf-xatarlar to‘g‘risidagi axborotlar davlat xaridlari sohasidagi nazoratni amalga oshiruvchi organlarning shaxsiy kabinetlariga real vaqt rejimida yuborilishini ta’minlaydi.

6-bob. Xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini o‘rganish jarayonida shaxsiy manfaatdorlik va manfaatlar to‘qnashuvi

38. Xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini o‘rganish jarayonida shaxsiy manfaatdorlik va manfaatlar to‘qnashuviga, shu jumladan, affillanganlikka olib keladigan holatlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

39. Xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini o‘rganish jarayonida quyidagi holatlar taqiqlanadi:

ma’lum mahsulot yetkazib beruvchilarning axborotini asossiz rad etish yoki ulardan foydalanishga to‘sqinlik qilish;

ma’lum manfaatdor shaxslar yoki affillangan subyektlarning narx takliflaridan foydalanish;

narxni sun’iy ravishda yuqori yoki past ko‘rsatish maqsadida ma’lumotlarni taqdim etish, tanlab o‘rganish yoki o‘zgartirish;

bir yoki bir nechta subyekt manfaatida hisob-kitoblarni qalbakilashtirish;

bozor narxlarini o‘rganishda raqobatni cheklovchi yoki manfaatlar to‘qnashuviga olib keluvchi harakatlarni sodir etish.

40. Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risidagi axborotlarni olgan rahbar yoki komplayens-nazorat bo‘linmasi uning oldini olish yoki uni bartaraf etish bo‘yicha o‘z vaqtida choralar ko‘rishi kerak.

Agar davlat buyurtmachisi xodimi xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini o‘rganish jarayonida manfaatlar to‘qnashuvi holatiga duch kelsa, bu haqida o‘zining bevosita rahbariga yoki komplayens-nazorat bo‘linmasiga darhol xabar berishi shart. Bunda manfaatlar to‘qnashuvini

aniqlashda ishtirok etadigan xodimlarga ishonib topshirilgan yoxud ularga kasbiy, xizmat yoki mehnat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan ma’lum bo‘lib qolgan shaxslarning shaxsga doir ma’lumotlarini oshkor etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

41. Manfaatlar to‘qnashuvi haqida xabar olgan rahbar yoki komplayens-nazorat bo‘linmasi O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi va “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq zudlik bilan tegishli choralarni ko‘rishi shart.

42. Xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini tahlil qilish jarayonida manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etmasdan harakat qilgan davlat buyurtmachisi xodimlari hamda ularning rahbarlari amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar hisoblanadi.

43. Davlat buyurtmachisi komplayens-nazorat bo‘linmalari (yoki ushbu vazifa yuklangan mas’ul shaxslar) xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini o‘rganish jarayonida ishtirok etayotgan xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuviga va korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘ymaslik ustidan muntazam nazoratni amalga oshirishlari shart.

7-bob. Xarid predmetining o‘rtacha bozor narxi shakllantirilishida davlat va jamoatchilik nazorati

44. Portalda va/yoki davlat xaridlari elektron tizimida narxlarni shakllantirish bo‘yicha jamoatchilik nazorati e-ma’lumotnomalardagi, ofertalardagi hamda davlat xaridlari elektron tizimlarida joylashtirilgan e’lonlardagi, shuningdek, xarid qilish tartib-taomillari natijalariga ko‘ra tuzilgan shartnomalardagi shubhali narxlarga “ogohlantirish” tugmasi orqali izoh qoldirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Portal va/yoki davlat xaridlari elektron tizimi ushbu holat xavf-xatarlar sifatida davlat xaridlari sohasidagi nazoratni amalga oshiruvchi organlarning shaxsiy kabinetlariga real vaqt rejimida yuborilishini ta’minlaydi.

45. Davlat xaridlari sohasidagi nazoratni amalga oshiruvchi organlar tomonidan davlat buyurtmachisi va yagona yetkazib beruvchi o‘rtasida tuzilgan shartnomalar bo‘yicha narx belgilanishi va uning asoslangani yuzasidan alohida nazorat tadbirlari o‘tkazib borilishi mumkin.

46. Agar qonunchilikda yoki mazkur Vaqtinchalik nizomda muayyan xarid obyekti yoki alohida holat uchun majburiy manba yoki usul to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilanmagan bo‘lsa, davlat xaridlari sohasidagi nazoratni amalga oshiruvchi organlar davlat buyurtmachisi tomonidan tanlangan manba, usul, axborot olish shakli yoki ularning qo‘llanish ketma-ketligini boshqacha manba yoki usuldan ham foydalanish mumkin bo‘lgani vaji bilan noto‘g‘ri deb baholashga haqli emas.

Foydalanilgan manba yoki usulning o‘zi, shuningdek, ularning turi, agar davlat buyurtmachisi tomonidan xarid predmetining o‘rtacha bozor narxi o‘rganilgani, foydalanilgan ma’lumotlar va ularning manbalari qayd etilgani, ularning taqqoslanuvchanligi va ishonchliligi asoslangani, tegishli materiallar narxlar moduliga joylashtirilgani hamda mazkur Vaqtinchalik nizomda belgilangan majburiy talablarga rioya etilgani mavjud bo‘lsa, xarid tartib-taomilini buzish deb topish uchun asos hisoblanmaydi.

Davlat nazorati o‘rtacha bozor narxi o‘rganilgani, foydalanilgan ma’lumotlarning qayd etilgani, ularning ishonchliligi va taqqoslanuvchanligi hamda qonunchilikda belgilangan majburiy talablarga rioya etilgani doirasida amalga oshiriladi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

47. Davlat buyurtmachisi g‘olib bo‘lgan taklif akseptiga qadar istalgan vaqtda xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini bozor narxlariga muvofiqligi yuzasidan qayta o‘rganish huquqiga ega.

48. “Davlat xaridlari to‘g‘risida” Qonunning 71-moddasi birinchi qismi 6-bandida nazarda tutilgan hollarda hamda tabiiy monopoliya subyektlaridan xaridlar amalga oshirilganda e-ma’lumotnoma shakllantirish talab etilmaydi.

49. Davlat tomonidan qo‘riqlanishi lozim bo‘lgan shaxslarning xavfsizligini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasida mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni ta’minlash va ichki tartibni saqlash uchun davlat xaridlariga, davlat sirlari bilan bog‘liq bo‘lgan davlat xaridlariga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari saylovlariga, O‘zbekiston Respublikasining referendumlariga tayyorgarlik ko‘rish hamda ularni o‘tkazish uchun davlat xaridlariga ushbu Vaqtinchalik nizom talablari tavsiyaviy ahamiyatga ega.

50. Davlat buyurtmachilari ushbu Vaqtinchalik nizomga muvofiq xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini o‘rganish uchun rasmiylashtirilgan hujjatlarni Portalga joylashtirilishi va 5 yil davomida saqlanishini ta’minlashi shart.

Narxlar moduliga joylashtirilgan hujjatlar kamida 5 yil mobaynida saqlanadi. Joylashtirilgan hujjatlar jamoatchilikka ochiqlanishi lozim, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno.

51. Davlat buyurtmachisi bozor narxlari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanishda suiiste’mol qilish holatlari uchun javobgar hisoblanadi.

52. Davlat xaridlari elektron tizimining operatorlari davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtirilgan axborotning shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq saqlanishini va oshkor etilmasligini ta’minlaydi.

53. Davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini shakllantirishda foydalanilgan ma’lumotlar bo‘yicha kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

54. Mazkur Vaqtinchalik nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Davlat xaridi predmetining o‘rtacha bozor hamda boshlang‘ich narxini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomga

1-ILOVA

Xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini shakllantirish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Davlat buyurtmachisi	Xarid qilinishi rejalashtirilgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlarini aniqlaydi.	Zaruratga ko‘ra
2-bosqich	Davlat buyurtmachisi	Zarur hollarda narxlar modulida ushbu Nizom talablari asosida xarid predmetining o‘rtacha bozor narxlarini o‘rganish bo‘yicha e’lonni (Vaqtinchalik nizomga 5-ilovaga muvofiq) joylashtirishi, shuningdek, e’lon joylashtirish bilan bir vaqtda salohiyatli yetkazib beruvchilarga so‘rovnoma (Vaqtinchalik Nizomga 6-ilovaga muvofiq) yuborishi mumkin.	Takliflarni qabul qilish muddati tugashidan kamida 2 ish kuni oldin
3-bosqich	Salohiyatli yetkazib beruvchilar yoki ishtirokchilar	E’londa (so‘rovnomada) belgilangan talablarga muvofiq o‘zining takliflarini yuboradi.	E’londa belgilangan muddat ichida
4-bosqich	Davlat buyurtmachisi	Takliflarni e’londa (so‘rovnomada) belgilangan talablarga muvofiqligi yuzasidan ko‘rib chiqadi hamda ushbu talablarga muvofiq kelgan takliflardan foydalanadi.	Zaruratga ko‘ra
5-bosqich	Davlat buyurtmachisi	Ochiq axborot manbalaridan yoki boshqa ishonchli manbalardan olingan kamida uchta narxni solishtirish yo‘li bilan yoxud kamida uchta tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) salohiyatli yetkazib beruvchilaridan narxlar bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlar asosida Vaqtinchalik nizomning 16-bandiga muvofiq e-ma’lumotnomani narxlar modulidan foydalangan holda shakllantiradi.	Davlat xaridlarini amalga oshirishdan oldin
6-bosqich	Narxlar moduli	Davlat buyurtmachisi tomonidan o‘rganilgan barcha ma’lumotlar asosida xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini avtomatik ravishda hisoblaydi.	Avtomatik ravishda

ILG5739

		Agar narxlarning o‘zgarish koeffitsiyenti 30 foizdan oshsa, davlat buyurtmachisiga xarid predmetining o‘rtacha bozor narxi qayta o‘rganilishi kerakligi to‘g‘risida xabar beradi.	
7-bosqich	Davlat buyurtmachisi	Xarid predmetining boshlang‘ich narxini hisoblash maqsadida xarid predmetining boshlang‘ich narxi hamda uning o‘rtacha bozor narxi o‘rtasidagi tafovut miqdorini belgilab, xarid qilinadigan tovar (ish, xizmat) miqdorini (hajmini) ko‘rsatgan holda ushbu ma’lumotlarni narxlar moduliga kiritadi va e-ma’lumotnomani shakllantirish va tasdiqlash uchun elektron raqamli imzo orqali topshiriqni tasdiqlaydi.	Boshlang‘ich narxni belgilash jarayonida
8-bosqich	Narxlar moduli	E-ma’lumotnomani shakllantiradi hamda tegishli ma’lumotlarni davlat xaridlari elektron tizimlariga yuboradi.	Avtomatik ravishda
9-bosqich	Davlat xaridlari elektron tizimi	Davlat buyurtmachilari tomonidan e-ma’lumotnoma bo‘yicha kelib tushgan ma’lumotlar asosida davlat xaridlarini amalga oshirishga ruxsat beradi va e-ma’lumotnoma ma’lumotlarini shartnoma to‘g‘risidagi axborotda aks ettiradi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PF-259-son Farmonining 4-bandi “a” kichik bandida belgilangan xavf-xatarlar to‘g‘risidagi axborotlar davlat xaridlari sohasidagi nazoratni amalga oshiruvchi organlarning shaxsiy kabinetlariga real vaqt rejimida yuborilishini ta’minlaydi.	Avtomatik ravishda

Izoh.

2 — 4-bosqichlar davlat buyurtmachisining ixtiyoriga ko‘ra amalga oshiriladi.

Ushbu sxema Vaqtinchalik nizomga 3-ilovadagi *ro‘yxatga kiritilmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha, shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalari asosida avtomatik aniqlash imkoni mavjud bo‘lmagan yoki qo‘shimcha o‘rganish talab etilgan hollarda qo‘llanadi.*

Davlat xaridi predmetining o‘rtacha bozor hamda boshlang‘ich narxini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomga

ILG5739

2-ILOVA

Xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini sun’iy intellekt texnologiyalari asosida avtomatik ravishda shakllantirish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Davlat buyurtmachisi	Xarid qilish tartib-taomillarini boshlashdan oldin xarid predmeti Vaqtinchalik nizomga 3-ilovadagi ro‘yxatga kiritilganligini tovar nomi va tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yagona milliy klassifikatori kodi orqali aniqlaydi. Xarid qilinadigan tovarning texnik, funksional va ekspluatatsiya xususiyatlari, komplektatsiyasi, yetkazib berish, kafolat va servis shartlari, miqdori, qonunchilikda belgilangan hollarda modeli (markasi) hamda narxga ta’sir qiluvchi boshqa shartlarini Narxlar moduliga kiritib, e-ma’lumotnomani shakllantirish so‘rovini yuboradi.	Xarid qilish tartib-taomilini boshlashdan oldin
2-bosqich	Narxlar moduli	Davlat buyurtmachisi kiritgan ma’lumotlarni Vaqtinchalik nizomga 3-ilovadagi ro‘yxat va tegishli tovar kodi bilan avtomatik solishtiradi. Tovar xususiyatlarining avtomatik ravishda mos yoki taqqoslash mumkinligini tekshiradi. Tovar ro‘yxatda mavjud bo‘lmagan yoki avtomatik ravishda identifikatsiya qilish imkoni bo‘lmagan hollarda, davlat buyurtmachisiga o‘rtacha bozor narxini Vaqtinchalik nizomga 1-ilovaga muvofiq shakllantirish zarurligi haqida xabar beradi.	Avtomatik ravishda
3-bosqich	Narxlar moduli / sun’iy intellekt texnologiyalari	Oxirgi 90 kunda shakllangan narx ma’lumotlaridan, bunday ma’lumotlar mavjud bo‘lmaganda esa oxirgi 365 kungacha bo‘lgan ma’lumotlardan foydalanib, xarid predmetining o‘rtacha bozor narxi, yuqori va past chegara narxlari, narxlar dinamikasi hamda narxlarning o‘zgarish koeffitsiyentini	Avtomatik ravishda

		hisoblab, davlat buyurtmachisiga tegishli ma’lumotlarni taqdim etadi.	
4-bosqich	Narxlar moduli	Narxlarning o‘zgarish koeffitsiyenti 30 foizdan oshgan yoki manbalar soni va sifati yetarli bo‘lmagan hollarda, avtomatik natijani “qo‘shimcha o‘rganish talab etiladi” maqomida belgilaydi hamda bu haqida davlat buyurtmachisiga xabar beradi.	Avtomatik ravishda
5-bosqich	Davlat buyurtmachisi	Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida avtomatik aniqlangan o‘rtacha bozor narxining xarid predmeti xususiyatlariga mosligi, manbalar yetarliligi va hisoblash natijasining ishonchliligini inobatga olgan holda xarid qilinadigan tovarning sonini, shuningdek, zarur hollarda qonunchilikka muvofiq xarid predmetining boshlang‘ich narxi hamda uning o‘rtacha bozor narxi o‘rtasidagi tafovut miqdorini Narxlar moduliga e-ma’lumotnomani shakllantirish uchun kiritadi. Zarur hollarda ushbu Vaqtinchalik nizomga 1-ilovaga muvofiq qo‘shimcha o‘rganish o‘tkazadi.	Xarid qilish tartib-taomilini boshlashdan oldin
6-bosqich	Narxlar moduli	Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida aniqlangan xarid predmetining o‘rtacha bozor narxi, hisoblash sanasi, manbalar soni, asosiy parametrlar, zarur hollarda qo‘shimcha o‘rganish natijalari va boshqa ma’lumotlarni boshlang‘ich narxni aniqlash uchun hisob-kitoblari ko‘rsatilgan e-ma’lumotnomani Narxlar modulida, davlat buyurtmachisining shaxsiy kabinetida shakllantiradi hamda e-ma’lumotnoma axborotlarini davlat xaridlari elektron tizimlariga yuboradi.	Avtomatik ravishda
7-bosqich	Davlat xaridlari elektron tizimi	E-ma’lumotnoma bo‘yicha kelib tushgan ma’lumotlar asosida davlat xaridlarini amalga oshirishga ruxsat beradi, ma’lumotlarni shartnoma to‘g‘risidagi axborotda aks ettiradi hamda belgilangan xavf-xatarlar to‘g‘risidagi axborotlar davlat xaridlari sohasidagi nazoratni amalga oshiruvchi	Avtomatik ravishda

		organlarning shaxsiy kabinetlariga real vaqt rejimida yuborilishini ta’minlaydi.	

Izoh. *Mazkur sxema Vaqtinchalik nizomga* 3-ilovada *keltirilgan ro‘yxatdagi tovarlarga nisbatan qo‘llanadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida avtomatik aniqlash imkoni mavjud bo‘lmagan yoki qo‘shimcha o‘rganish talab etilgan hollarda, davlat buyurtmachisi xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini Vaqtinchalik nizomning* 1-ilovaga *muvofiq mustaqil shakllantiradi.*

Davlat xaridi predmetining o‘rtacha bozor hamda boshlang‘ich narxini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomga

3-ILOVA

Narxlar modulida o‘rtacha bozor narxi sun’iy intellekt texnologiyalari asosida avtomatik ravishda aniqlanadigan tovarlar

RO‘YXATI

T/r	Tovar nomi	Davlat xaridlari sohasida foydalaniladigan Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yagona milliy klassifikatori kodi	Mos keluvchi MXIK
Kompyuter, elektron va optik uskunalar			
1.	Televizor	26.40.20.122-00001	08528001001
2.	Shaxsiy kompyuter	26.20.13.000-00006	08471001002
3.	Monoblok	26.20.13.000-00003	08471010009
4.	Planshet kompyuter	26.20.11.110-00003	08471001020
5.	Noutbuk	26.20.11.110-00001	08471001001
6.	Grafik planshetlar	26.20.16.000-00001	08471001020
7.	Interfaol panel	26.20.13.000-00001	08471010010
8.	Ko‘p funksiyali moslama	26.20.18.000-00001	08443001028
9.	Kompyuterga ulanadigan monitor	26.20.17.110-00001	08528002001
10.	Elektr quvvati ishlab chiqarilishi yoki iste’moli hisoblagichlari	26.51.63.130-00001	09028001005
11.	Uzluksiz quvvat manbai	26.20.40.110-00001	08504006999
12.	Kompyuter sichqonchasi	26.20.16.170-00001	08471012005
13.	Klaviatura	26.20.16.110-00001	08471012004
14.	Flesh xotira kartasi	26.20.21.120-00002	08523001001
Elektr va boshqa uskunalar			
15.	Maishiy konditsioner	28.25.12.130-00001	08415001001
16.	Maishiy sovitkich	27.51.11.110-00001	08418001001
17.	Maishiy tikuv mashinalari	28.94.40.000-00001	08452001003
18.	Elektr plita	27.51.28.130-00001	08516006016
19.	Gaz plitasi	27.52.11.110-00001	07321001003
20.	Elektr go‘sht qiymalagich	27.51.21.122-00001	08509001009
21.	Elektr suv isitkich	27.51.25.110-00001	08516001001
22.	Burchak silliqlaydigan mashina (bolgarka)	28.93.13.132-00001	08467001096
23.	Elektr dastakli qo‘l dreli (parmadasta)	28.24.11.000-00005	08467001001
24.	Perforator	28.24.11.000-00002	08467001002
25.	O‘t o‘chirgich	28.29.22.110-00001	08424001001
26.	Elektrmagnitli ishga tushirish apparati	27.33.13.150-00001	08536007013
27.	Avtomatik bo‘lmagan o‘chirib yoqish moslamasi	27.33.11.140-00001	08536004016

Mebel			
28.	Yozuv stoli	31.01.10.000-00001	09403001127
29.	Yog‘ochdan yasalgan ishxona tumbasi	31.01.12.150-00001	09403001016
30.	Yog‘och karkasli stul	31.01.12.160-00001	09401001030
31.	Metall karkasli stul	31.01.11.150-00001	09401001030
32.	Divan	31.09.12.111-00001	09401001012
Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari			
33.	Formatli oq qog‘oz	17.12.14.109-00001	04802001006
34.	Ofis texnikasi uchun suratga olish qog‘ozi	20.59.11.130-00001	04810001006
35.	Kirish hujjatlarini qayd etish jurnali	17.23.13.110-00001	04820001001
36.	Bloknot	17.23.13.191-00001	04820008001
Boshqa tayyor buyumlar			
37.	Kanselyariya ruchkasi	32.99.12.110-00001	09608001001
38.	Qattiq po‘stloqli grifellari bor oddiy va rangli qalamlar	32.99.15.110-00001	09609001001
39.	Marker	32.99.12.120-00001	09608001002
40.	Shaxmat o‘ynash uchun to‘plam	32.40.42.191-00001	09504001008
To‘qimachilik va to‘qimachilik mahsulotlari			
41.	Gilam	13.93.11.100-00001	05705003001
42.	Choyshab to‘plami	13.92.12.194-00001	06302001007
43.	Tibbiy doka	13.20.44.120-00001	03005001002
44.	Deraza jalyuzisi	13.92.22.120-00001	03925001006 06303001005 07610001001
Oziq-ovqat mahsulotlari			
45.	Qisqa muddat saqlanadigan non	10.71.11.110-00001	01905002004
46.	Ta’m beruvchi qo‘shimchalarsiz qattiq pishloq	10.51.40.131-00001	00406001001
47.	Sut	10.51.11.000-00001	00401001001
48.	Meva va (yoki) sabzavotlar sharbati	10.32.10.000-00001	02009001006
Boshqalar			
49.	Mosh doni	01.11.79.121-00001	00708005001
50.	Aluminiy radiator	25.21.11.130-00003	07616003001
51.	Metall eshik	25.12.10.000-00001	07326999999
52.	Suv-gaz o‘tkazuvchi po‘lat quvur	24.20.13.160-00001	07304001001
53.	Bostirma plita	23.61.12.142-00001	06810006002
54.	Rakovina	23.42.10.130-00001	06910001001
55.	Sopol plitka	23.31.10.125-00001	06907001012
56.	Quruq qurilish aralashmasi	23.64.10.110-00001	03214001003
57.	Polietilen bosimli quvur	22.21.21.122-00001	03917001001
58.	Nometall eshik	16.23.11.130-00001	04418002001 04418002006 07020999011
59.	Kesilgan taxta	16.10.21.119-00004	04407002001 04407002002 04407002003 04407002004 04407002005 04407002006

			04407002007 04407002010 04407002011 04407002012 04407002013 04407002014 04407002015 04407002016 04407002102 04407002103 04407002104
60.	Qurilish qumi	08.12.11.130-00001	02505001004

Izoh. Davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ narxlar modulida sun’iy intellekt texnologiyalari asosida o‘rtacha bozor narxi avtomatik aniqlanadigan tovarlar ro‘yxatiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishi mumkin.

ILG5739
ILG5739
ILG5739
ILG5739

Davlat xaridi predmetining o‘rtacha bozor hamda boshlang‘ich narxini aniqlash tartibi
to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomga
4-ILOVA

O‘rtacha bozor va boshlang‘ich narx bo‘yicha ma’lumotnoma — e-ma’lumotnomaning NAMUNAVIY SHAKLI

E-MA’LUMOTNOMA

20___ yil “___” _____dagi _____-son

1.	**Davlat buyurtmachisi to‘g‘risida ma’lumot**				
	Davlat buyurtmachisining	nomi			
		STIRi			
2.	**Xarid predmeti to‘g‘risida umumiy ma’lumot**				
	Xarid predmeti nomi:				
	Xarid predmetining qisqacha tavsifi:				
3.	**Xarid predmetining o‘rganilgan bozor narxi manbalari bo‘yicha ma’lumot**				
	Xarid predmetining o‘rganilgan bozor narxi manbai nomi		*(1)*	*(2)*	*(...)*
	Lot raqami *(mavjud bo‘lganda)*				
	Tadbirkorlik subyekti	nomi			
		STIRi			
	Tovar (ish, xizmat) nomi				
	Tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari				
	O‘lchov birligi				
	Miqdori				
	Bir birlik narxi				
	Valyutasi				
	agar xorijiy valyutada bo‘lsa,	*shu kundagi Markaziy bankning so‘mdagi valyuta kursi*			
		so‘mdagi qiymati			
	Yagona milliy klassifikator kodi				
4.	**Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida avtomatik ravishda aniqlangan ma’lumotlar** *(ushbu bo‘lim Vaqtinchalik nizomga 3-ilovada keltirilgan ro‘yxatdagi tovarlar bo‘yicha to‘ldiriladi)*				
	Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida avtomatik aniqlangan o‘rtacha bozor narxi		_____ so‘m		
	Avtomatik hisoblash sanasi		20___ yil “____” _____		
	Avtomatik hisoblashda foydalanilgan manbalar soni		____ ta		
	Qo‘shimcha o‘rganish o‘tkazilgani		ha / yo‘q		
	Qo‘shimcha o‘rganish o‘tkazilgan bo‘lsa, uning asosi		*(davlat buyurtmachisi tomonidan to‘ldiriladi)*		

5.	**Yuqoridagi ma’lumotlar asosida hisob-kitoblar**	
	Narxlarning o‘zgarish koeffitsiyenti:	
	bu yerda:	
a)	o‘rtacha kvadratik og‘ish: *(agar narxlarning o‘zgarish koeffitsiyenti 30 foizdan oshsa, e-ma’lumotnoma shakllantirilmaydi)*	
b)	xarid predmetining o‘rtacha bozor narxi:	
v)	xarid predmetining boshlang‘ich narxi hamda uning o‘rtacha bozor narxi o‘rtasidagi tafovut miqdori	

Mazkur hisob-kitoblarga ko‘ra _____*(xarid predmeti nomi)*ning **boshlang‘ich narxi _____ so‘m** miqdorida belgilandi.

Davlat buyurtmachisining e-ma’lumotnomani shakllantirish uchun mas’ul bo‘lgan tarkibiy bo‘linmasi nomi yoki mas’ul xodimi ma’lumotlari (lavozimi va F.I.O) yoxud kollegial organi haqida ma’lumot:

_____

Tashkilot rahbari (lavozimi, F.I.O.):

_____

[*Elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi*]

Izoh. Davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organga e-ma’lumotnomaning namunaviy shakliga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqi beriladi.

ILG5739

Davlat xaridi predmetining o‘rtacha bozor hamda boshlang‘ich narxini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomga
5-ILOVA

Xarid predmetining o‘rtacha bozor narxlarini o‘rganish bo‘yicha
E’LON

Hudud: _____ **20___ yil “____” _____**

E’lonning tugash muddati _____

Mazkur e’lon davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini o‘rganish maqsadida joylashtirilmoqda.

Sizdan quyidagi jadval va so‘rovnoma asosida o‘z takliflaringizni taqdim etishingizni so‘raymiz.

Ushbu jarayondagi hamkorligingiz davlat xaridlarini oqilona va samarali amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

I. Xarid obyekti bo‘yicha ma’lumotlar:

T/r	Tovar (ish, xizmat) nomi	O‘lchov birligi	Talab etilgan miqdor	Yagona milliy klassifikator kodi
1.				
2.				
…				

II. So‘rovnoma*:

1.	**Narx birligi va valyuta:**	

Narx tarkibi:

Qo‘shimcha qiymat solig‘i	☐ kiritilgan	☐ kiritilmagan
Boshqa soliq turlari: _____	☐ kiritilgan	☐ kiritilmagan
Bojlar va boshqa majburiy to‘lovlar: _____	☐ kiritilgan	☐ kiritilmagan
Yetkazib berish xarajatlari	☐ kiritilgan	☐ kiritilmagan
Montaj/demontaj ishlari yoki o‘rnatish ishlari	☐ kiritilgan	☐ kiritilmagan
Qadoqlash/yuklash-tushirish	☐ kiritilgan	☐ kiritilmagan
Boshqa xarajatlar: _____	☐ kiritilgan	☐ kiritilmagan

2.	**Tovar (ish, xizmat) xususiyatlari, jumladan:**	
-	iste’mol, funksional, texnik va ekspluatatsiya xususiyatlari:	
-	standartlar (texnik reglamentlar):	
-	komplektatsiya (yetkazib beriladigan to‘plam tarkibi):	
-	model (marka)**:	
-	ishlab chiqarilgan yili:	
-	kafolat va servis xizmat ko‘rsatish shartlari:	
-	qabul qilish (topshirish-qabul qilish) shartlari:	
-	tovarni yetkazib berish joyi yoki ish bajarish (xizmat ko‘rsatish) joyi:	
-	sifat ko‘rsatkichlari:	
3.	Taklifning amal qilish muddati:	
4.	Yetkazib beruvchi haqida ma’lumot va uning rekvizitlari:	
5.	Taklifning oxirgi taqdim etish sanasi va vaqti:	
6.	Yetkazib berish muddati (ishda/xizmatda — bajarish grafigi):	
7.	Yetkazib berish shartlari *(qabul qilish yoki topshirish-qabul qilish)* shartlari:	

III. Takliflarni taqdim etish tartibi va qo‘shimcha talablar:

T/r	Talab nomi	
1.		
...		

IV. Davlat buyurtmachisi ma’lumotlari:

1.	Yuridik manzil:	
2.	Elektron pochta:	
3.	Davlat buyurtmachisining telefon raqami:	
4.	Mas’ul shaxs telefon raqami:	
5.	Yetkazib berish shartlari *(qabul qilish yoki topshirish-qabul qilish)* shartlari:	

Izoh:

** davlat buyurtmachisi so‘rovnoma ma’lumotlarini zaruratdan kelib chiqib to‘ldiradi yoki ishtirokchilar (salohiyatli yetkazib beruvchilar) tomonidan to‘ldirilishi majburiy bo‘lgan maydonlarni belgilaydi;*

*** ushbu ma’lumotlardan davlat xaridlarini amalga oshirishda qonunchilik hujjatlarida ruxsat berilgan hollarda foydalaniladi.*

Ushbu e’lon bo‘yicha taqdim etiladigan taklif rasmiy oferta hisoblanmaydi va shartnoma tuzish majburiyatini yuklamaydi.

Tashkilot rahbari (lavozimi, F.I.O):

Elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi

ILG5739

Davlat xaridi predmetining o‘rtacha bozor hamda boshlang‘ich narxini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomga

6-ILOVA

Xarid predmetining o‘rtacha bozor narxlarini o‘rganish bo‘yicha SO‘ROVNOMA

Hudud: _____ **20__ yil “___” _____**

Hurmatli

_____,

(tadbirkorlik subyekti nomi)

Mazkur e’lon davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid predmetining o‘rtacha bozor narxini o‘rganish maqsadida joylashtirilmoqda.

Sizdan quyidagi jadval va so‘rovnoma asosida o‘z takliflaringizni taqdim etishingizni so‘raymiz.

Ushbu jarayondagi hamkorligingiz davlat xaridlarini oqilona va samarali amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

I. Xarid obyekti bo‘yicha ma’lumotlar:

T/r	Tovar (ish, xizmat) nomi	O‘lchov birligi	Talab etilgan miqdor	Yagona milliy klassifikator kodi
1.				
2.				
…				

II. So‘rovnoma*:

1.	**Narx birligi va valyuta:**	

Narx tarkibi:

Qo‘shimcha qiymat solig‘i	☐ kiritilgan	☐ kiritilmagan
Boshqa soliq turlari: _____	☐ kiritilgan	☐ kiritilmagan
Bojlar va boshqa majburiy to‘lovlar: _____	☐ kiritilgan	☐ kiritilmagan
Yetkazib berish xarajatlari	☐ kiritilgan	☐ kiritilmagan
Montaj/demontaj ishlari yoki o‘rnatish ishlari	☐ kiritilgan	☐ kiritilmagan

Qadoqlash/yuklash-tushirish	☐ kiritilgan	☐ kiritilmagan
Boshqa xarajatlar: _____	☐ kiritilgan	☐ kiritilmagan

2.	**Tovar (ish, xizmat) xususiyatlari, jumladan:**	
-	iste'mol, funksional, texnik va ekspluatatsiya xususiyatlari:	
-	standartlar (texnik reglamentlar):	
-	komplektatsiya (yetkazib beriladigan to‘plam tarkibi):	
-	model (marka)**:	
-	ishlab chiqarilgan yili:	
-	kafolat va servis xizmat ko‘rsatish shartlari:	
-	qabul qilish (topshirish-qabul qilish) shartlari:	
-	tovarni yetkazib berish joyi yoki ish bajarish (xizmat ko‘rsatish) joyi:	
-	sifat ko‘rsatkichlari:	
3.	Taklifning amal qilish muddati:	
4.	Yetkazib beruvchi haqida ma'lumot va uning rekvizitlari:	
5.	Taklifning oxirgi taqdim etish sanasi va vaqti:	
6.	Yetkazib berish muddati (ishda/xizmatda — bajarish grafigi):	
7.	Yetkazib berish shartlari *(qabul qilish yoki topshirish-qabul qilish)* shartlari:	

III. Takliflarni taqdim etish tartibi va qo‘shimcha talablar:

T/r	**Talab nomi**	
1.		
...		

IV. Davlat buyurtmachisi ma'lumotlari:

1.	Yuridik manzil:	
2.	Elektron pochta:	
3.	Davlat buyurtmachisining telefon raqami:	
4.	Mas'ul shaxs telefon raqami:	
5.	Yetkazib berish shartlari *(qabul qilish yoki topshirish-qabul qilish)* shartlari:	

Izoh:

** so‘rovnoma ma'lumotlari zaruratdan kelib chiqib to‘ldiriladi;*

*** ushbu ma'lumotlardan davlat xaridlarini amalga oshirishda qonunchilik hujjatlarida ruxsat berilgan hollarda foydalaniladi.*

Ushbu so‘rovnoma bo‘yicha taqdim etiladigan taklif rasmiy oferta hisoblanmaydi va shartnoma tuzish majburiyatini yuklamaydi.

Tashkilot rahbari (lavozimi, F.I.O.):

Elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI 26.12.2025 YILDAGI PF-259-SON

DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA RAQOBAT MUHITI VA SHAFFOFLIKNI TA’MINLASH BO‘YICHA NAVBATDAGI CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

[Ko‘chirma]

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etish, davlat xaridlarida raqobat muhitini rivojlantirish, shuningdek, ushbu sohada mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ishtirokini yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida qaror qilaman:

I. Maqsadlar

1. Davlat buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda davlat xaridlarining qulay, zamonaviy va servisga yo‘naltirilgan ekotizimini yaratish va unga sun’iy intellekt texnologiyalarini keng tatbiq etish davlat xaridlari sohasida Iqtisodiyot va moliya vazirligining birinchi darajali vazifasi etib belgilansin.

2. 2030-yilgacha davlat xaridlari sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari etib quyidagilar belgilansin:

(a) davlat xaridlarida raqobatli usullardan foydalanish darajasini 80 foizga yetkazish;

(b) davlat xaridlarida iqtisod qilingan mablag‘ miqdorini 25 trln so‘mga yetkazish;

(v) tadbirkorlik subyektlarining davlat xaridlaridagi faolligini ikki karra oshirish;

(g) davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlarda mahalliy mahsulotlar ulushini kamida 85 foizga yetkazish;

(d) davlat buyurtmachilarining xaridlar uchun mas’ul bo‘lgan malakasi oshirilgan xodimlari ulushi 98 foizdan kam bo‘lmasligini ta’minlash.

II. Davlat xaridlari tizimida tejamkorlik va samaradorlikni oshirish

3. 2026-yil 1-martdan boshlab davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portalida davlat xaridi predmetining o‘rtacha bozor narxini sun’iy intellekt texnologiyalari asosida hisoblab beruvchi elektron modul (keyingi o‘rinlarda — modul) ishga tushirilsin.

4. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq davlat buyurtmachisi davlat xaridini amalga oshirishdan oldin davlat xaridlari predmetining o‘rtacha bozor narxini modulda shakllantiradi. Bunda:

(a) davlat xaridlari predmetining boshlang‘ich narxi yoki shartnoma bahosi va uning moduldagi o‘rtacha bozor narxi o‘rtasidagi tafovut 10 foizdan ortiq yoxud 20 foizdan past bo‘lsa, ushbu xaridlar davlat xaridlari sohasidagi davlat nazorati organlari tomonidan birinchi darajada tekshiriladigan yuqori xavf-xatar sifatida baholanadi va navbatdan tashqari tekshirish o‘tkazish uchun asos bo‘ladi;

(b) to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xaridlar moduldagi xarid predmetining o‘rtacha bozor narxidan oshmagan holda amalga oshiriladi, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

5. Iqtisodiyot va moliya vazirligi Hisob palatasi, Bosh prokuratura va Adliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda davlat xaridi predmetining o‘rtacha bozor narxini aniqlash tartibini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

III. Davlat xaridlari sohasida raqobat muhitini rivojlantirish

6. Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Hisob palatasi va Bosh prokuraturaning 2026-yil 1-yanvardan boshlab davlat xaridlarida raqobatli usul orqali ayrim turdagi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilishning “taklif so‘rovi” yangi tartib-taomilini joriy etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

7. Quyidagilar:

(a) Davlat buyurtmachilari tomonidan “taklif so‘rovi” orqali xarid qilinishi mumkin bo‘lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

(b) Davlat buyurtmachilari tomonidan “taklif so‘rovi” orqali xaridlarni amalga oshirish sxemasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Belgilansinki, 2026-yil 1-yanvardan boshlab:

(a) To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxati bekor qilinib, mazkur ro‘yxat bo‘yicha davlat xaridlari raqobatli usullardan foydalangan holda amalga oshiriladi, bundan “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno;

(b) “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzishga ruxsat berish haqida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda davlat xaridi ijrochisining nomi aniq ko‘rsatiladi. Davlat xaridi ijrochisining nomi aniq ko‘rsatilmagan taqdirda, ushbu xaridlar “taklif so‘rovi” xarid qilish tartib-taomili orqali amalga oshirilishi nazarda tutiladi;

(v) to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzishni nazarda tutuvchi barcha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari Adliya vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining tartibga solish ta’sirini baholash hamda Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining raqobat muhitiga ta’sirini baholash natijalari asosidagi xulosalari mavjud bo‘lsa, shuningdek, korrupsiyaga qarshi ekspertiza o‘tkazilgan taqdirda, belgilangan tartibda qabul qilinadi;

(g) davlat xaridlarida elektron do‘konga ofertalarni joylashtirish muddati 15 kundan 60 kungacha uzaytiriladi hamda tovarlarni yetkazib berish muddati kamida 5 kun etib belgilanadi;

(d) Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazida xarid hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish muddatlari ularning qiymati va murakkabligidan kelib chiqib qisqartiriladi.

IV. Davlat xaridlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirokini yanada qo‘llab-quvvatlash

9. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga ko‘ra 2026-yil 1-yanvardan boshlab:

(a) davlat buyurtmachilarining xarid rejalari e’lon qilingandan keyin ushbu ma’lumotlar avtomatik ravishda mahalliy ishlab chiqaruvchilarga elektron xabarnoma tarzida yuboriladi;

(b) budjet buyurtmachilari hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida o‘tkaziladigan mahalliy auksion savdolarini o‘tkazish yo‘lga qo‘yiladi. Bunda savdolar boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan elektron auksion tartib-taomillari asosida ikki ish kuni muddatiga e’lon joylashtirish orqali shartnoma qiymati bilan bog‘liq cheklovlarsiz o‘tkaziladi;

(v) mahalliylashtirish darajasi 30 foiz va undan ortiq bo‘lgan mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan budjet buyurtmachilari o‘rtasida tuzilgan shartnomalar bo‘yicha yetkazib beriladigan tovarlar uchun bo‘nak to‘lovlarini mahalliylashtirish darajasiga mutanosib ravishda, lekin mahalliylashtirish darajasidan kam bo‘lmagan va korxona jami aktivlari miqdoridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda to‘lab berishga ruxsat beriladi;

(g) boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksionda bitta tadbirkorlik subyekti ishtirok etgan taqdirda, auksion o‘tkazilgan deb hisoblanadi;

(d) eng yaxshi takliflarni tanlash savdolarida bitta tadbirkorlik subyekti ishtirok etgan taqdirda, davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomilini hamda tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) oid mezonlarni o‘zgartirmagan holda takroran e’lon joylashtirganda va takroriy ushbu savdolarda ham yagona ishtirokchi ilgari ishtirok etgan tadbirkorlik subyekti bo‘lsa, u holda eng yaxshi takliflarni tanlash savdolari o‘tkazilgan deb hisoblanadi. Ushbu tartib “Davlat xaridlari

to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan talablarga mos kelmaydigan va taklifini tegishli tarzda rasmiylashtirmagan eng yaxshi takliflarni tanlash ishtirokchilariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

10. 2026-yil 1-iyuldan quyidagilar joriy etilsin:

(a) davlat xaridlariga oid takliflarni davlat xaridlari elektron tizimi orqali faqat elektron shaklda baholash;

(b) davlat buyurtmachilari tomonidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabul qiluvchi shaxslarga ishonchnomalarni davlat xaridlari elektron tizimi orqali elektron ko‘rinishda rasmiylashtirish.

ILG5739

V. Xarid jarayonlarini rejalashtirish va tartibga solish choralari

11. “UzAssets” AJ boshqaruvidagi yirik davlat korxonalariga (keyingi o‘rinlarda — yirik davlat korxonalari) nisbatan davlat xaridlarini amalga oshirishning amaldagi tartibiga qo‘shimcha ravishda quyidagi tartibotlar joriy qilinsin:

(a) 2026-yil 1-iyuldan boshlab “Yagona g‘aznachilik” va ERP axborot tizimlaridagi davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq barcha axborotlarning davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portaliga real vaqt rejimida uzatib borish;

(b) omborxonalarda saqlanayotgan tovarlarni uch oy muddatda, keyinchalik har yili kamida bir marta xatlovdan o‘tkazib, aniqlangan samarasiz saqlanib kelinayotgan nolikvid tovarlarning belgilangan tartibda sotilishini ta’minlash va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish;

(v) tegishli yil uchun xarid rejalari faqat xatlov natijalaridan kelib chiqib shakllantirish;

(g) xarid jarayonlarining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlari samaradorligini har 2 yilda bir marta baholashdan (forenzik) o‘tkazish va uning natijasini 3 kun ichida “Davlat auditi” dasturiy kompleksiga kiritilishini ta’minlash.

ILG5739

12. Belgilansinki, yirik davlat korxonalarining rahbarlari ushbu Farmonning 11-bandida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni o‘z vaqtida va puxta bajarish uchun shaxsan javobgar bo‘ladi.

13. Hisob palatasi va Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi:

(a) uch oy muddatda Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining foydalanishida mavjud bo‘lgan xizmat avtotransport vositalarini xatlovdan o‘tkazsin hamda xatlov natijalariga ko‘ra belgilangan me’yorlar bo‘yicha limitdan ortiqcha bo‘lgan xizmat avtotransport vositalarining o‘rnatilgan tartibda sotilishini va amalga oshirilgan ishlar haqida 2026-yil 1-iyunga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritilishini;

(b) davlat buyurtmachilari kesimida avtotransport vositalarini xarid qilish ustidan doimiy ravishda nazorat o‘rnatilishini ta’minlasin.

ILG5739

VI. Davlat xaridlari sohasida jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish va qonuniylikni ta’minlash

14. Belgilab qo‘yilsinki, 2026-yil 1-yanvardan boshlab:

(a) davlat buyurtmachilari tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzishga ruxsat berish haqida normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqishdan oldin aynan ushbu xarid bo‘yicha kamida uch ish kuniga davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portalida e’lon joylashtirish talab etiladi;

ILG5739

(b) xarid qilishga oid hujjatlar loyihalarini kamida ikki ish kuni davomida davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portaliga joylashtirish orqali jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi. Bunda taklif va e’tirozlar kelib tushgan xarid qilishga oid hujjatlar loyihalari Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi tomonidan doimiy monitoring qilib boriladi va monitoring natijasida aniqlangan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishi bilan bog‘liq holatlar bo‘yicha ko‘rsatmalar va ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan taqdimnomalar kiritiladi;

(v) O‘zbekiston Respublikasining alohida maxsus savdo maydonchalaridagi elektron (birja) savdolari natijalariga ko‘ra tuzilgan shartnomalar yuzasidan ma’lumotlar davlat buyurtmachilari tomonidan Shartnomalarning yagona reyestrida aks ettiriladi;

(g) davlat buyurtmachilarining xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazishga mas’ul bo‘lgan xodimlarining malakasi davlat xaridlari bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etgan davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan ikki yilda kamida bir marotaba oshiriladi;

(d) davlat buyurtmachilari, shu jumladan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining davlat xaridi natijalari davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portalida ochiqlanishi shart, bundan davlat sirlari va tijorat siri bilan bog‘liq hollar mustasno. Bunda davlat nazoratini amalga oshiruvchi vakolatli davlat organlari tomonidan:

(i) barcha davlat xaridi natijalarini ochiqlash bo‘yicha talablarga so‘zsiz rioya etilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatiladi;

(ii) davlat xaridi natijalarini ochiqlash bo‘yicha talablarni buzgan davlat buyurtmachilariga nisbatan qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlik choralari ko‘riladi.

15. 2026-yil 1-martdan boshlab xarid komissiyasining raisi etib faqatgina davlat buyurtmachisining rahbari, uning o‘rinbosari yoki ularning vazifasini bajaruvchi shaxs tayinlanishi lozim.

16. Davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portalida davlat xaridlari sohasida qonunbuzilishi holatlarining oldini olishga qaratilgan quyidagi mexanizmlarni nazarda tutuvchi “Davlat xaridlarida nazorat” sahifasi joriy etilsin:

(a) davlat xaridlari sohasiga oid huquqbuzarliklar vujudga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarning yagona tasnifini shakllantirish;

(b) xavf-xatarlarni toifalarga ajratish, shuningdek, ularni avtomatik aniqlash va xabardor qilish;

(v) davlat buyurtmachilarini sodir etgan huquqbuzarliklariga ko‘ra toifalarga ajratish;

(g) davlat xaridlarida eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oluvchi “Xaridlarda KPI” raqamli reytingini joriy qilish.

17. Iqtisodiyot va moliya vazirligi Hisob palatasi va Bosh prokuratura bilan birgalikda 2026-yil 1-iyunga qadar mazkur Farmonning 16-bandida nazarda tutilgan mexanizmlarni joriy qilish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

18. Vazirlar Mahkamasi 2026-yildan boshlab har chorakda yirik davlat korxonalari va budjet buyurtmachilari rahbarlarining davlat xaridlari shaffofligini ta’minlash va samaradorligini oshirish, sohada korrupsiyaviy holatlarni bartaraf etish bo‘yicha hisobotlarini tanqidiy muhokama qilib borish amaliyotini yo‘lga qo‘ysin.

19. Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi uch oy muddatda davlat xaridlarida raqobatni cheklaydigan yoki cheklashga olib keladigan harakatlarning oldini olish maqsadida davlat xaridlari subyektlari uchun uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqib, davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portaliga joylashtirsin hamda doimiy tarzda qonunchilikka muvofiqlashtirib borsin.

VII. Farmon ijrosini tashkil etish, ta’minlash va nazorat

20. Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

21. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi uch oy muddatda Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Adliya vazirligi hamda Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi bilan birgalikda davlat xaridlarida manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini “e-anticor.uz” elektron platformasida masofadan aniqlash va ularning oldini olish tizimini joriy etsin hamda ushbu tizimni davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portali bilan integratsiya qilsin.

22. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ikki oy muddatda:

(a) Adliya vazirligi bilan birgalikda elektron tizim operatorlarida shakllanadigan davlat xaridlari to‘g‘risidagi tegishli shartnoma loyihalari yuzasidan yuridik xizmat xulosalarini “E-huquqshunos” dasturi orqali elektron tarzda taqdim etish amaliyotini yo‘lga qo‘ysin;

(b) Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda:

(i) davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portalida davlat xaridi predmetining o‘rtacha bozor narxlarini sun’iy intellekt texnologiyalari asosida hisoblab beruvchi elektron modulni ishlab chiqsin;

(ii) ayrim tovarlarning davlat xaridida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish orqali xarid komissiyasining aralashuvisiz avtomat tarzda g‘olibni aniqlash va xavflarni oldindan tahlil qilish imkoniyatlarini yaratish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqsin hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

(v) davlat buyurtmachilarining davlat xaridlari to‘g‘risidagi hisobotlarini davlat xaridlari elektron tizimi orqali elektron taqdim etish imkoniyatini joriy etsin;

(g) qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga 4-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari 5-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

25. Mazkur Farmon ijrosini monitoring qilib borish rejasi 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda:

(a) Iqtisodiyot va moliya vazirligi Farmon ijrosini monitoring rejasiga asosan har yili 10-fevralga qadar monitoringdan o‘tkazsin hamda monitoring natijalarini Hisob palatasi va Adliya vazirligiga kiritib borsin;

(b) Hisob palatasi Adliya vazirligi bilan birgalikda monitoring rejasi asosida Farmon ijrosini nazorat qilsin hamda har yili 20-fevralga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib borsin;

(v) “Ijro.gov.uz” tizimida Farmon ijrosini nazoratdan yechishda monitoring rejasida ko‘rsatilgan maqsadlarga erishilganligi inobatga olinsin.

26. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Bosh vazir o‘rinbosari J.A. Qo‘chqorov belgilansin.

27. Ushbu Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2025-yil 26-dekabr,
PF-259-son

ILG5739

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PF-259-son Farmoniga
1-ILOVA

Davlat buyurtmachilari tomonidan “taklif so‘rovi” orqali xarid qilinishi mumkin bo‘lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)

RO‘YXATI

1. Bank (banklararo) xizmatlar va operatsiyalar, qurilish obyektlarida banklar tomonidan amalga oshiriladigan nazorat o‘lchovi xizmatlari bundan mustasno.

2. Davlat buyurtmachisi tomonidan uning tarkibidagi yoki yuqori turuvchi tashkiloti ishlab chiqaradigan tovar (ko‘rsatadigan xizmat, bajaradigan ish)larning ayni bir turi uchun amalga oshiriladigan davlat xaridi.

3. Sport, madaniy-ommaviy tadbirlar, ko‘rgazmalar, yarmarkalar, anjumanlar, seminarlar va o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish hamda o‘tkazish uchun binolar, inshootlar va asbob-uskunalarni ijaraga olish.

4. Ommaviy axborot vositalarida matbuot anjumani, brifing, mavzuli teleko‘rsatuv va boshqa tadbirlarni o‘tkazish, reklama joylashtirish, maqola chop etish.

5. Turar yoki noturar joyni (inshootni) xarid qilish yoki ijaraga olish, shuningdek, uning ta’minoti bo‘yicha ekspluatatsiya xarajatlari.

6. Davriy nashrlar (gazetalar, jurnallar)ga, shu jumladan, ularning elektron variantlariga obuna bo‘lish.

7. Benzin, suyultirilgan va siqilgan gaz, dizel yonilg‘isi va ko‘mir mahsulotlari hamda elektr energiyasi manbalarida harakatlanuvchi transport vositalarini quvvatlantiruvchi elektr energiyasi*.

8. Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari, Toshkent shahrining shahar budjeti, tuman va shaharlar budjetlari zaxira jamg‘armalaridan ajratiladigan mablag‘lar hisobidan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar).

9. Maxsus va xizmat avtotransporti vositalarini, havo kemalarini, shuningdek, tibbiyot uskunalarini ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar.

10. Xalqaro va davlatlararo darajadagi tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar.

11. Fuqaro aviatsiyasi korxonalari tomonidan ishlab chiqaruvchilardan yoki sertifikatlashtirilgan yetkazib beruvchilardan havo kemalarini ekspluatatsiya qilish va ta’mirlash uchun xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) va materiallar, shu jumladan, aviatsiya servis tovarlari, materiallar, inventarlar va ularning qismlari, maxsus gilam qoplamalari, havo kemalari o‘rindiqlariga qoplamalar tayyorlash uchun matolar, aviatsiya shinalari, shuningdek, aviatsiya korxonalarining chet eldagi vakolatxonalari uchun zarur bo‘lgan tovarlarning (ishlar, xizmatlar) xaridi.

12. Ta’lim muassasalari uchun darsliklar va o‘quv-metodik jamlanmalarni nashr etish (qayta nashr etish) uchun mo‘ljallangan qog‘oz va boshqa sarflash materiallari.

13. O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi huzuridagi futbol akademiyalari uchun elektron hisoblash uskunalari, o‘yinlar va o‘quv-mashq yig‘inlarini tahlil qilish dasturiy ta’minot va uskunalar, Xalqaro futbol assotsiatsiyalari federatsiyasi talablari bo‘yicha futbol to‘plari, sport kiyimlari va ekipirovkalar hamda futbol uchun oyoq kiyimlar.

14. Xalqaro sport federatsiyalari (assotsiatsiyalari) tomonidan ularning talab va tavsiyalariga asosan xalqaro sport musobaqalari hamda professional sportchilar shug‘ullanishi

uchun zarur bo‘ladigan xorijda ishlab chiqarilgan sport anjomlari, jihozlari, uskunalari, maxsus mashg‘ulot trenajyorlari, zamonaviy ilmiy texnologiya vositalari, maxsus sport kiyimlari (ekipirovkalar), sport tibbiyoti jihozlari, tibbiy biologik va farmakologik preparatlar.

15. Xalqaro sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishgan ishtirokchilarni kutib olish bilan bog‘liq xaridlar (transport xizmatlarini ko‘rsatish, asbob-uskunalarni ijaraga olish, banket va ovqatlanishni tashkil etish bo‘yicha xizmatlar, suvenirlar, sovg‘alar, gullar hamda gul bilan bezatish, bannerlar va bukletlar tayyorlash, tadbirlar va anjumanlarni tashkil etish, maxsus va milliy kiyimlar va boshqalar).

16. O‘rmon va yashil hududlarni ko‘paytirish, cho‘llanishga qarshi kurashish agentligi tizimidagi tashkilotlar va botanika bog‘lari hamda Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan yetishtirilgan ko‘chat va nihollar, shuningdek, ularni parvarish qilish bo‘yicha xizmatlar.

17. O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan xorijiy kompaniyalarning prodyuserlik va reklama xizmatlari, xorijiy teleradiokompaniyalar va boshqa ommaviy axborot vositalarining reklamalar, reportajlar va boshqa roliklarni tayyorlash va translyatsiya qilish bo‘yicha xizmatlari.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Davlat rezidensiyalariga xizmat ko‘rsatish va tadbirlarni tashkil etish boshqarmasi tuzilmasiga kiradigan davlat rezidensiyalari hududlarini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish uchun Hukumat qarorlari va topshiriqlari asosida, shu jumladan, pudratchilar tomonidan, ushbu maqsadlarga ajratilgan mablag‘lar hisobiga tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilish.

19. Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari loyihalarini bajarishda ishtirok etuvchi budjet tashkilotlari tomonidan tadqiqotlar o‘tkazish maqsadida reaktivlar va reagentlar xarid qilish.

20. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi milliy normativ hujjatlar, davlat standartlarini ishlab chiqish va qayta ishlash.

21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi muzeyi ekspozitsiyasi, muzey va kutubxona fondlarini shakllantirish maqsadida xorijda va O‘zbekistonda tayyorlanadigan eksponatlar, san’at asarlari, suratlar, haykallar va byustlar, gilamlar, matolar, qo‘lyozmalar va nashr asarlari nusxalari, xaritalar, pannolar, stendlar, video-audio va yuqori texnologik namoyishlar uchun materiallar xaridi.

22. Oliy ta’lim muassasalari tomonidan xorijiy davlatlardan o‘quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o‘quv qo‘llanmalarni (mualliflik huquqi bo‘lgan ishlab chiqaruvchilardan), sarflanadigan laboratoriya materiallari (reaktivlar, kimyoviy idish, butlovchi, biologik materiallar va boshqa obyektlar) xarid qilish.

23. Monopolist korxonalar va (yoki) ustav fondi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxs, ustav fondi (kapitali)ning 50 foizi va undan ortig‘i ustav fondi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan yuridik shaxs tomonidan birja savdolarida sotilayotgan mahsulotlarni xaridorlarga affillangan shaxs bo‘lgan tashish xizmatini ko‘rsatuvchi korxonalarning avtotransportda tashish xizmatlari.

24. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘ladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridi.

25. Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan Davlat budjeti hamda Suv xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha suv xo‘jaligi obyektlarining loyiha hujjatlarini ishlab chiqish xizmatlari.

26. O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlari.

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida “taklif so‘rovi” bo‘yicha amalga oshiriladigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi.

** Mazkur ilovada ko‘rsatilgan benzin, suyultirilgan va siqilgan gaz, dizel yonilg‘isi va ko‘mir mahsulotlari hamda elektr energiyasi manbalarida harakatlanuvchi transport vositalarini quvvatlantiruvchi elektr energiyasining xaridi, qonunchilikda belgilangan tartibda korporativ bank kartalari (xarid kartalari) orqali amalga oshirilishi mumkin.*

ILG5739

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PF-259-son Farmoniga
2-ILOVA

Davlat buyurtmachilari tomonidan “taklif so‘rovi” orqali xaridlarni amalga oshirish
SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Davlat buyurtmachisi	Xarid predmetining o‘rtacha bozor narxlari bo‘yicha elektron ma’lumotnomani shakllantiradi.	Zaruratga ko‘ra
2-bosqich	Davlat buyurtmachisi	1. “Taklif so‘rovi”ni o‘tkazish haqidagi e’lonni davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtiradi. 2. O‘z ixtiyoriga ko‘ra salohiyatli yetkazib beruvchilarga o‘z takliflarini taqdim etish uchun “taklif so‘rovlari”ni yuboradi.	Takliflarni qabul qilish muddati tugashidan kamida ikki ish kuni oldin
3-bosqich	Ishtirokchi	“Taklif so‘rovi” o‘tkazish haqidagi e’lon bo‘yicha takliflarni taqdim etadi.	“Taklif so‘rovi” o‘tkazish haqidagi e’londa belgilangan muddatga qadar
4-bosqich	Davlat buyurtmachisi	1. “Taklif so‘rovi” o‘tkazish haqidagi e’lon bo‘yicha kelib tushgan takliflarni ko‘rib chiqadi (agar kelib tushgan bo‘lsa). 2. Salohiyatli yetkazib beruvchilarning takliflarini va (yoki) ofertalarini o‘rganadi.	G‘olib aniqlangunga qadar
5-bosqich	Davlat buyurtmachisi	Takliflarni va (yoki) oferta(lar)ni ko‘rib chiqish (o‘rganish) natijalari bo‘yicha eng maqbul taklif taqdim etgan ishtirokchini g‘olib deb topadi va bu haqida davlat xaridlari elektron tizimiga axborot joylashtiradi. Bunda bitta taklif yoki oferta kelib tushgan bo‘lsa ham xarid qilish tartib-taomili bo‘lib o‘tgan hisoblanadi.	E’lon bo‘yicha takliflarni qabul qilish muddati tugagan paytdan e’tiboran yigirma ish kuni ichida
6-bosqich	Davlat buyurtmachisi	G‘olib deb topilgan ishtirokchi bilan elektron shaklda shartnoma tuzadi (xorijiy	G‘olib aniqlangan

		yetkazib beruvchilar bilan tuziladigan shartnomalar bundan mustasno).	vaqtdan boshlab o‘n ish kunida
7-bosqich	Davlat xaridlari elektron tizimi	G‘olib aniqlangan vaqtdan boshlab davlat buyurtmachisi to‘qqiz ish kuni ichida shartnoma tuzish bo‘yicha g‘olibga taklif yubormasa, ushbu jarayon davlat xaridlari elektron tizimi tomonidan avtomat tarzda amalga oshiriladi va g‘olib bir ish kuni ichida shartnoma tuzish yoki uni rad etish bo‘yicha qaror qabul qiladi. Bunda g‘olib shartnoma tuzish to‘g‘risidagi taklifni bir ish kuni ichida rad etmagan bo‘lsa, shartnoma avtomatik rejimda tuzilgan deb hisoblanadi.	G‘olib aniqlangan vaqtdan boshlab o‘n birinchi ish kunida
8-bosqich	Davlat xaridlari elektron tizimi	Tuzilgan shartnoma to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Shartnomalarning yagona reyestriga kiritadi.	Avtomatik ravishda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PF-259-son Farmoniga
3-ILOVA

Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish bo‘yicha
CHORA-TADBIRLAR REJASI

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
I. Davlat xaridlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish					
1.	Raqamli texnologiyalaridan foydalangan holda davlat xaridlari tizimida **kompleks monitoring yuritishni takomillashtirish** va **shaffoflikni** yanada oshirish.	1. Maxsus axborot portalida tegishli davlat organlari bilan ma’lumotlar almashinuvini ta’minlash orqali korporativ buyurtmachilarning davlat xaridlarini raqamli texnologiyalardan foydalangan holda **elektron monitoring qilishni** bosqichma-bosqich tatbiq etish. 2. Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlarining xatti-harakatlari, jumladan, **moderatsiya jarayonlari ustidan onlayn shikoyat** qilish imkonini yaratish.	Amaliy chora-tadbirlar	2026-yil davomida Muntazam ravishda	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Raqobat qo‘mitasi, manfaatdor vazirlik va idoralar

		Shikoyat bo‘yicha qoidabuzarliklar aniqlanganda davlat xaridlari elektron tizimi operatorlariga nisbatan **jarima qo‘llash** va shikoyatlar **natijalarini ochiqlash** amaliyotlarini yo‘lga qo‘yish.			
2.	Maxsus axborot portalini takomillashtirish orqali foydalanuvchilar uchun qo‘shimcha qulaylik va imkoniyatlar yaratish.	1. Davlat xaridlarida **ishonchnomani elektron tarzda yuborishni** yo‘lga qo‘yish. 2. Nazorat organlari tomonidan aniqlangan xato va kamchiliklar asosida davlat buyurtmachilariga **xabarnomani elektron shaklda yuborish** amaliyotini yo‘lga qo‘yish.	Amaliy chora-tadbirlar	2026-yil iyul 2026-yil sentabr	Iqtisodiyot va moliya vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Hisob palatasi, Raqobat qo‘mitasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi
3.	Davlat xaridlari uchun ajratilgan **mablag‘lardan samarali foydalanish**.	1. Budjet buyurtmachilarining ayrim tovar va xizmatlari bo‘yicha xarid rejalarini tovar-moddiy zaxiralarini inobatga olgan holda elektron shakllantirish imkonini beruvchi “**xaridlarni rejalashtirish moduli**”ni ishlab chiqish. Bunda ayrim tovar va xizmatlar ro‘yxatini tasdiqlash yuzasidan tegishli takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish. 2. 2027-yil uchun xarajatlar smetasiga davlat xaridlarida foydalaniladigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) **yagona milliy klassifikator kodlari kiritilgan**	Tahliliy ma’lumot Amaliy chora-tadbirlar	2026-yil aprel 2026-yil sentabr	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar

		holda **reja-jadvallarini** shakllantirish.			
4.	Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlarida **raqamlashtirish ishlarini yanada takomillashtirish**.	1. “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunning 47-moddasida belgilangan **reyestrda ko‘rsatilishi shart bo‘lgan axborotlarning** davlat xaridlari elektron tizimi operatorlarida to‘liq holda joylashtirilishini ta’minlash. 2. “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunning 42-moddasida ko‘rsatilgan holatlar aniqlanganda **ishtirokchining xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatilishini ta’minlash.** 3. Moderatsiya jarayonlarini bosqichma-bosqich **inson omilisiz** amalga oshirish choralarini ko‘rish. 4. Davlat xaridlari elektron tizimida ishtirokchining ofertasi bo‘yicha shartnoma davlat buyurtmachisi tomonidan shakllantirilgan xarid predmetining boshlang‘ich narxidan yuqori narxda shakllanishi holati yuzaga kelganda, davlat buyurtmachisiga ushbu shartnomani shakllantirish yoki shakllantirishni rad etish bo‘yicha imkoniyat yaratish.	Amaliy chora-tadbirlar	2026-yil yanvar 2026-yil mart	Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi
5.	O‘zbekistonda davlat xaridlari tizimini **“MAPS”**da	Xalqaro moliya institutlarini jalb etgan holda davlat xaridlari tizimini kompleks tahlil	Amaliy chora-tadbirlar	2026-2027 -yillar	Iqtisodiyot va moliya vazirligi

	(The Methodology for Assessing Procurement Systems) baholashdan o‘tkazish.	qilish choralarini ko‘rish. Baholash natijalari va ko‘rilgan choralar haqida Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish.	Tahliliy ma’lumot		
II. Davlat xaridlari sohasida normativ-huquqiy va uslubiy bazani takomillashtirish					
6.	Davlat xaridlari sohasini yanada takomillashtirish.	1. Davlat xaridlari sohasini yanada takomillashtirish bo‘yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi **normativ-huquqiy hujjat loyihalarini** Vazirlar Mahkamasiga kiritish: tovar (ish, xizmat)larning **yetkazib berish muddatlariga minimal talab joriy** qilish; “**elektron do‘kon**” va boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan **auksion savdolari orqali** tuzilgan shartnomalar bo‘yicha **haqiqatda yetkazib berilgan tovar (ish, xizmat)lar uchun to‘lovlarni** amalga oshirish imkoniyatini yaratish; amalga oshiriladigan ishlar va ko‘rsatiladigan xizmatlarning xaridlarini raqobatli usullarga (tender, tanlov) o‘tkazish maqsadida “**elektron kooperatsiya**” portalida ushbu xaridlarga cheklov o‘rnatish; elektron kooperatsiya portali orqali xaridlarni amalga oshirishda **vositachilik yig‘imi**, **zakalat** va	Normativ-huquqiy hujjat loyihalari	2026-yil may	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Raqobat qo‘mitasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Hisob palatasi

		qo‘shimcha zakalatning eng yuqori miqdorlariga chegara belgilash; shartnoma taraflarning roziligi bilan bekor bo‘lganda komissiya to‘lovlarini shartnomani bekor qilish bo‘yicha **tashabbuskor tomonidan ikkinchi tomonga qoplab berish;** yagona yetkazib beruvchilarning davlat xaridlaridagi ishtirokini baholash. 2. Davlat xaridlarida dilerlar ishtirokini tartibga solish bo‘yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.			
7.	Davlat xaridlari sohasida yuzaga keladigan **nizolarni sudgacha hal qilish** amaliyotini yo‘lga qo‘yish.	Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlari, davlat buyurtmachilari va xarid qilish tartib-taomillari ijrochilari o‘rtasida kelib chiqadigan **nizolarni sudgacha hal qilish** bo‘yicha **xorijiy tajribani** o‘rganish hamda o‘rganish natijalari yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2026-yil sentabr	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Adliya vazirligi, Hisob palatasi, Raqobat qo‘mitasi, Savdo-sanoat palatasi
8.	Korporativ buyurtmachilar uchun davlat **xaridlarini yanada soddalashtirish**.	1. Korporativ buyurtmachilar tomonidan tijorat maqsadlarida **qayta sotish** yoki **shu maqsadlarda** tovarlardan ishlab chiqarishda foydalanish uchun amalga oshiriladigan davlat xaridlari bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish.	Amaliy chora-tadbirlar	2026-yil sentabr	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Raqobat qo‘mitasi, Adliya vazirligi, Hisob palatasi

		2. Korporativ buyurtmachilar tomonidan tijorat maqsadlarida **qayta sotish** yoki **shu maqsadlarda** tovarlardan ishlab chiqarishda foydalanish uchun amalga oshiriladigan **davlat xaridlarining alohida tartibini belgilash** bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2026-yil noyabr	
9.	Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarning omborlaridagi nolikvid tovarlarning samarasiz saqlanishini oldini olish.	1. Davlat ishtirokidagi yirik korxonalar omborlarida saqlanayotgan, muddati uch oydan oshgan **nolikvid tovarlarni** xatlovdan o‘tkazish. 2. Xatlov natijasida aniqlangan samarasiz saqlanayotgan nolikvid tovarlarning belgilangan tartibda sotilishini ta’minlash va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish.	Amaliy chora-tadbirlar Tahliliy ma’lumot	2026-yil mart 2026-yil may	Davlat ishtirokidagi yirik korxonalar
10.	Davlat xaridlarini amalga oshirishda mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish choralarini ko‘rish.	Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarda xarid jarayonlarining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlari samaradorligini baholashdan (forenzik) o‘tkazish bo‘yicha texnik topshiriq ishlab chiqish.	Texnik topshiriq	2026-yil sentabr	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Raqobat qo‘mitasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi
11.	Davlat xaridlarida shartnoma majburiyatlari bajarilishini **kafolatlashni takomillashtirish**.	Davlat xaridlarida **sug‘urtalash** va (yoki) **faktoring** xizmatidan foydalanish bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish hamda o‘rganish natijalari yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	Tahliliy ma’lumot	2026-yil noyabr	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, Savdo-sanoat palatasi, Markaziy bank, tarmoq uyushmalari

12.	Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari samaradorligini oshirish.	“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunga quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalarni kiritish bo‘yicha qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish: yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridini amalga oshirishning alohida hollarini qayta ko‘rib chiqish; **eng yaxshi takliflarni tanlash** savdolarida bitta tadbirkorlik subyekti ishtirok etgan taqdirda, davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomilini hamda tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) oid mezonlarni o‘zgartirmagan holda takroran e’lon joylashtirganda va takroriy **tanlash** savdolarining yagona ishtirokchisi ilgari ishtirok etgan tadbirkorlik subyekti bo‘lganda, **tanlash** savdolari o‘tkazilgan deb hisoblash; **boshlang‘ich narxni pasaytirish** uchun o‘tkaziladigan auksionda bitta tadbirkorlik subyekti ishtirok etgan taqdirda, auksion o‘tkazilgan deb hisoblash; “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishning boshqa turlarini qayta ko‘rib chiqish;	Qonun loyihasi	2026-yil noyabr	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Hisob palatasi, Raqobat qo‘mitasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura

		davlat xaridlari sohasidagi nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlarining vakolatlarini aniq belgilash; davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ xodimlarini davlat buyurtmachilarining faoliyati yuzasidan olib borilayotgan tekshiruv jarayonlariga jalb qilishni taqiqlash.			
13.	Davlat xaridlarida manfaatlar to‘qnashuvi va affillanganlik holatlarining oldini olish mexanizmlarini belgilash.	Davlat xaridlarida **manfaatlar to‘qnashuvi** hamda **affillanganlik** holatlarini aniqlashning aniq **mexanizmlari**, shu jumladan, mezonlari va jarayonlarini belgilash bo‘yicha rivojlangan xorijiy davlatlarning **tajribasini o‘rganish** va o‘rganish natijalari bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga normativ-huquqiy hujjat loyihasi kiritish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2026-yil iyun	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Raqobat qo‘mitasi Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi
14.	Budjet buyurtmachilari tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish.	Ilg‘or xorijiy tajribani o‘rgangan holda budjet buyurtmachilari tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirish tizimini soddalashtirish, zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar) bilan barqaror ta’minlash, professional tarzda xarid qilishning tashkiliy mexanizmlarini joriy qilish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga normativ-huquqiy hujjat loyihasini kiritish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2026-yil dekabr	Iqtisodiyot va moliya vazirligi

III. Shartnoma majburiyatlari bajarilishini monitoring, tahlil va nazorat qilishning kompleks va yuqori texnologiyali tizimini yaratish					
15.	**Shartnomalarni boshqarish tizimini joriy etish**, shu jumladan, shartnomalarga rioya etish intizomini mustahkamlash, majburiyatlarning bajarilishini tartibga solish.	1. G‘olib ishtirokchi tomonidan **o‘z vaqtida yetkazib berilmagan** tovarlar (ish, xizmat) bo‘yicha ma’lumotlarni jamoatchilik uchun ochiqlash. 2. **Penya** va **jarimalarni qo‘llashni** hamda shartnomaviy munosabatlarni tartibga solish maqsadida sud organlariga axborot tizimi orqali **xabarnoma yuborishni** joriy etish. 3. Shartnomalarni boshqarish tizimini joriy qilish.	Amaliy chora-tadbirlar	2026-yil sentabr	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Raqobat qo‘mitasi, Adliya vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi
16.	Shartnomalar ijrosi hamda shartnomalarga oid munosabatlarni **jamoatchilik uchun ochiqlash**.	Davlat buyurtmachilarining ichki audit tuzilmalari tomonidan har yarim yillik ijrosi bo‘yicha davlat xaridlari jarayonlari, shartnomaviy munosabatlarning bajarilishi yuzasidan monitoring tadbirlarini o‘tkazish hamda o‘tkazilgan **monitoring va tahlil natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni jamoatchilik uchun ochiqlash** tizimini joriy etish.	Amaliy chora-tadbirlar	Muntazam ravishda	Manfaatdor vazirlik va idoralar
17.	Davlat buyurtmachilari va yetkazib beruvchilarning mablag‘lari kafolatli saqlanishini ta’minlash.	1. Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlarining tijorat banklarida ochilgan hisob-kitob kliring palatasidagi davlat buyurtmachilari va yetkazib beruvchilarning **mablag‘larini kafolatli saqlanishini ta’minlash** bo‘yicha	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2026-yil may	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Raqobat qo‘mitasi, Hisob palatasi

		xalqaro auditorlik tashkilotlari tomonidan majburiy ravishda har **2 yilda** mustaqil **auditdan o‘tkazish** amaliyotini joriy qilish. 2. Hisob-kitob kliring palatasidagi davlat buyurtmachilari va yetkazib beruvchilarning mablag‘lari kafolatli saqlanishini ta’minlash bo‘yicha barcha davlat xaridlari elektron tizimi operatorlarining tijorat banklarida ochilgan hisob-kitob kliring palatasini Yagona g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkazish.			
IV. Davlat xaridlari sohasida korrupsiyaning oldini olish va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish					
18.	Davlat ishtirokidagi yirik korxonalar uchun davlat xaridlarini yanada soddalashtirish.	Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarga sinov tariqasida komplayens xizmati xodimlari ichidan “**Davlat xaridi inspektori**” lavozimini joriy etish va davlat xaridlari jarayoni ustidan dastlabki va joriy nazoratni ushbu inspektor tomonidan amalga oshirishni yo‘lga qo‘yish. Mazkur amaliyot samaradorligini tahlil qilish va Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	Amaliy chora-tadbirlar Tahliliy ma’lumot	2026-yil yanvar 2028-yil dekabr	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi
19.	**Yagona yetkazib beruvchilar reyestrini** tanqidiy ko‘rib chiqish.	1. **Yagona yetkazib beruvchilar reyestrini** tanqidiy ko‘rib chiqib, unga kiritilgan **subyektlarni xatlovdan** o‘tkazish. 2. Sog‘lom raqobat muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi subyektlarni **Yagona**	Amaliy chora-tadbirlar Tahliliy ma’lumot, normativ-huquqiy	2026-yil may	Raqobat qo‘mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi

		yetkazib beruvchilar reyestridan chiqarish bo‘yicha takliflarni, shu jumladan, zaruratga ko‘ra normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish. 3. Davlat xaridlarida Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentini qayta ko‘rib chiqish. 4. Talabgor arizasi va unga ilova qilingan ma’lumotlarni maxsus axborot portalida jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish muddatini 30 kungacha uzaytirish. Bunda jamoatchilik tomonidan salbiy fikr va e’tirozlar kelib tushgan bo‘lsada, talabgor arizasini qanoatlantirish haqida qaror qabul qilinsa, vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan xulosani maxsus axborot portaliga joylashtirish tartibini joriy qilish.	hujjat loyihasi Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2026-yil iyun	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Raqobat qo‘mitasi
20.	Qurilish sohasidagi davlat xaridlarida raqobat muhitini yanada rivojlantirish.	Qurilish sohasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xaridlar ulushini keskin kamaytirish bo‘yicha zarur choralarni amalga oshirib, natijasi yuzasidan har chorakda tegishli axborotni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Tahliliy ma’lumot	Har chorakda	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi
21.	Davlat buyurtmachilarining davlat xaridlaridagi mas’uliyatini oshirish.	O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga davlat xaridlari	Qonun loyihasi	2026-yil dekabr	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Adliya vazirligi, Hisob palatasi

ILG5739

		sohasidagi qonunchilik hujjatlarini buzganlik, shu jumladan, davlat buyurtmachilari tomonidan davlat xaridini asoslantirilmagan sabablarga ko‘ra bekor qilish uchun javobgarlikni kuchaytirishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.			
V. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning quvvatlaridan samarali foydalanish					
22.	Davlat xaridlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.	1. Quyidagi o‘zgartirishlarni nazarda tutuvchi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish: ishlab chiqaruvchilarga mahalliy ishlab chiqarilgan tovar to‘g‘risidagi sertifikatni berish tartib-taomillarini tubdan qayta ko‘rib chiqish asosida jarayonlarni raqamlashtirish va optimallashtirish; mahalliy ishlab chiqarilgan tovar to‘g‘risidagi sertifikat berish to‘lovini kamida ellik foizga qisqartirish; tovarlar jamlanmasi va jamlanma tarkibidagi tovar uchun mahalliy ishlab chiqarilgan tovar to‘g‘risida alohida-alohida sertifikat olish tizimini soddalashtirish.	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi	2026-yil mart	Savdo-sanoat palatasi, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, O‘zbekekspertiza AJ, manfaatdor vazirlik va idoralar
		2. Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat tashkilotlari mablag‘lari hisobiga o‘tkaziladigan tenderlarda mahalliy	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2026-yil may	Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi,

		ishtirokchilarning ishtirokini kengaytirish va ortiqcha talablarni kiritishga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish. 3. Davlat ishtirokidagi yirik korxonalar rejalashtirgan xaridlarini respublikadagi ko‘p sonli mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan muhokama qilish amaliyotini yo‘lga qo‘yish va **ofteyk shartnomalar** tuzish choralarini ko‘rish. Bunda Savdo-sanoat palatasi mazkur muhokamalarning mahalliy ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida keng yoritilishiga ko‘maklashish.	Amaliy chora-tadbirlar	Har chorakda	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi Davlat ishtirokidagi yirik korxonalar, Savdo-sanoat palatasi
VI. Davlat xaridlari tizimini yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash					
23.	Kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha institutsional bazani rivojlantirish.	1. Tajriba almashish hamda davlat xaridlari sohasiga oid masalalarni muhokama qilish uchun mahalliy va xalqaro konferensiyalarni tashkil etish. 2. Xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash hamda davlat xaridlari rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ularning malakasini oshirish. 3. Davlat xaridlari sohasiga yuqori malakali, shu jumladan, xorijiy davlatlarning davlat xaridlari sohasini tartibga soluvchi	Tashkiliy chora-tadbirlar	2026-yil davomida	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar

		organlarida ish tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislarni jalb etish choralarini ko‘rish. 4. Davlat buyurtmachilarida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazishga mas’ul bo‘lgan xodimlarning ellik foizini har yili davlat xaridlari bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etgan davlat va nodavlat tashkilotlarda malakasini oshirish.		Doimiy	Barcha budjet va korporativ buyurtmachilar
24.	Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun xodimlarni o‘qitish (malakasini oshirish) tizimini takomillashtirish.	1. Davlat xaridlari bo‘yicha mas’ul mutaxassislarga qo‘yiladigan talablar bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish. 2. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi o‘quv markazida xalqaro moliya institutlari yordamida xalqaro e’tirof etilgan institutlarni jalb etgan holda “**xaridlar maktabi**”ni tashkil etish. Bunda: davlat xaridlari bo‘yicha mutaxassis xodimlarni tayyorlash dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish; davlat xaridlariga mas’ul xodimlarni majburiy sertifikatlashni joriy etish. 3. Budjet va korporativ buyurtmachilar uchun o‘quv kurslarini tashkil etish hamda ularning davlat xaridlari	Amaliy chora-tadbirlar	2026-yil aprel 2026-yil avgust Har chorakda	Iqtisodiyot va moliya vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Hisob palatasi, Raqobat qo‘mitasi

		sohasidagi faoliyatini muhokama qilib borish.			
25.	Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Moliya organlari hamda budjet tashkilotlarining moliya-hisob bo‘linmalari **xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash o‘quv markazining faoliyatini takomillashtirish**.	Moliya organlari hamda budjet tashkilotlarining moliya-hisob bo‘linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash o‘quv markazining faoliyatini zamonaviy ta’lim standartlari va raqamli innovatsiyalar asosida tubdan takomillashtirish. Bunda: markazda ta’lim va amaliyot jarayonlarini kafedralar negizida tashkil etiladigan ilg‘or xorijiy tajribaga asoslangan moliya-iqtisod, buxgalteriya hisobi va audit, davlat xaridlari hamda sun’iy intellekt va axborot tizimlari yo‘nalishlarida ta’lim — amaliyot maktablari orqali olib borish; kadrlar malakasini oshirishda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni qo‘llash hamda virtual simulyatsion modellarni joriy qilish.	Amaliy chora-tadbirlar	2026-yil aprel	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar

ILG5739

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PF-259-son Farmoniga
4-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatning ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-noyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-244-son Farmoni 4-bandining to‘rtinchi xatboshisi chiqarib tashlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-193-son Farmonining 6-bandi “v” kichik bandi uchinchi xatboshisidagi “to‘g‘ridan-to‘g‘ri” so‘zlari “belgilangan tartibda” so‘zlari bilan almashtirilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-avgustdagi “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4812-son qarorida:

(a) 4-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“budjet va korporativ buyurtmachilar rahbarlari xarid qilinishi nazarda tutilgan tovarlarni (ishlar, xizmatlar), birinchi navbatda mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilish imkoniyatini majburiy tartibda o‘rganadi. Bunda davlat xaridlari uchun zarur bo‘lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) mahalliy ishlab chiqaruvchilarda mavjud bo‘lmagan taqdirdagina davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portalining ma’lumotnomasi asosida xaridlarni qonunchilikda belgilangan tartibda xarid qilish tartib-taomillari orqali boshqa yetkazib beruvchilar bilan amalga oshirishga ruxsat etiladi”;

(b) quyidagi mazmundagi 4^1-band bilan to‘ldirilsin:

“4^1. Belgilab qo‘yilsinki, 2026-yil 1-yanvardan boshlab qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining 250 barobari miqdorigacha bo‘lgan xaridlar bo‘yicha davlat buyurtmachisiga mahalliylashtirish darajasi 30 foizdan yuqori bo‘lgan va ushbu buyurtmachi joylashgan hududdagi mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan ishlab chiqariladigan mahsulot

bo‘yicha 3 yil muddatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kafolatli xarid qilish shartnomasini (ofteyk shartnomani) tuzishga ruxsat beriladi”.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-martdagi “Yuqori likvidli va monopol tovarlarni sotish jarayonlariga bozor mexanizmlarini joriy etishni davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5031-son qarorining 5-bandi beshinchi xatboshisidagi “to‘g‘ridan-to‘g‘ri” so‘zlari “belgilangan tartibda” so‘zlari bilan almashtirilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi “Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi, davlat xaridiga doir tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-332-son qarorida:

(a) 2-bandining birinchi xatboshisidagi “Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish” so‘zlari “Iqtisodiyot va moliya” so‘zlari bilan almashtirilsin;

(b) 1-ilovada:

(i) 2-bandning “g” kichik bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“g) moliyalashtirish manbaidan qat’i nazar, strategik foydali qazilmalarni qazib olish va/yoki qayta ishlashni ko‘zda tutuvchi loyihalar (oltin izlovchilar usulida qazib olishdan tashqari, hamda ushbu Nizomning 3-bandi “b” kichik bandida ko‘rsatilgan loyihalar bundan mustasno), davlat-xususiy sherikchilik (DXSH) hamda investitsiya majburiyati asosida (shu jumladan “nol” qiymatdagi aktivlar bo‘yicha) amalga oshirilayotgan loyihalar. Bunda xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan va Mahsulotni taqsimlash to‘g‘risidagi bitimlar (MTTB), Davlat-xususiy sherikchilik (DXSH) hamda investitsiya majburiyati asosida (shu jumladan “nol” qiymatdagi aktivlar bo‘yicha) amalga oshirilayotgan loyihalarning loyihaoldi hujjatlari ular bo‘yicha tuzilgan bitim shartlari asosida texnik-texnologik va arxitektura-qurilish yechimlar hamda loyihaning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi va moliyalashtirish manbalarining mavjudligi vakolatli organlarning tarmoq ilmiy-texnik Kengashidan tegishli xulosalar olgandan so‘ng ekspertiza qilinadi”;

(ii) 3-bandning “v” kichik bandi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

(iii) 14-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“14. Hujjatlarni kompleks ekspertizadan o‘tkazish quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

texnik topshiriq — o‘n besh ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddatda;

TIA/TIHK bo‘yicha:

qiymati 5,0 mln AQSH dollaridan 50,0 mln AQSH dollarigacha bo‘lgan “kichik” investitsiyaviy loyihalar — 20 ish kunidan;

qiymati 50,0 mln AQSH dollaridan 200,0 mln AQSH dollarigacha bo‘lgan “o‘rta” investitsiyaviy loyihalar — 25 ish kunidan;

qiymati 200,0 mln AQSH dollaridan 1,0 mlrd AQSH dollarigacha bo‘lgan “yirik” investitsiyaviy loyihalar — 30 ish kunidan;

qiymati 1,0 mlrd AQSH dollar va undan yuqori bo‘lgan “mega” loyihalar — 45 ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddatda”;

(iv) 1-ilovaning 6-pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

6.	TIA/TIHK bo‘yicha: 50,0 mln AQSH dollarigacha bo‘lgan “kichik” loyihalar qiymati 50,0 mln AQSH dollaridan 200,0 mln AQSH dollarigacha bo‘lgan “o‘rta” loyihalar qiymati 200,0 mln AQSH dollaridan 1,0 mlrd AQSH dollarigacha bo‘lgan “yirik” loyihalar	 Ko‘pi bilan 20 ish kuni Ko‘pi bilan 25 ish kuni Ko‘pi bilan 30 ish kuni	Markaz

	qiymati 1,0 mlrd AQSH dollar va undan ortiq bo‘lgan “mega” loyihalar	Ko‘pi bilan 45 ish kuni	

”;

(v) 4-ilovada:

“Loyiha TIA/TIHK mundarijasi” quyidagi mazmundagi 11^1-pozitsiya bilan to‘ldirilsin:

“11^1. Xaridlar strategiyasi”;

quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Xaridlar strategiyasi bo‘limida xarid lotlarini rejalashtirish, tenderlarning boshlang‘ich narxlari belgilanadi”;

(v) 2-ilovada:

(i) 21-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“21. Markaz:

a) mazkur Nizomning 6-bandida ko‘rsatilgan hujjatlar taqdim etilgan va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lov amalga oshirilgan kundan boshlab quyidagi muddatlarda tender hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazadi va xulosani QR-kod bilan tasdiqlagan holda davlat buyurtmachisiga (ariza beruvchi)ga taqdim etadi:

“kichik xarid” qiymati 6 000 bazaviy hisoblash miqdoridan (BHM) 25 000 BHMgacha bo‘lgan xaridlarda tovarlar (xizmatlar) pozitsiyalari soni:

1 — 20 bo‘lganda - ekspertiza muddati 10 kalendar kungacha;

21 va undan ko‘p bo‘lganda - ekspertiza muddati 15 kalendar kungacha;

“o‘rta xarid” qiymati 25 000 BHMdan 100 000 BHMgacha bo‘lgan xaridlarda tovarlar (xizmatlar) pozitsiyalari soni:

1 — 20 bo‘lganda - ekspertiza muddati 15 kalendar kungacha;

21 va undan ko‘p bo‘lganda - ekspertiza muddati 20 kalendar kungacha;

“murakkab xarid” qiymati 100 000 BHM va undan ko‘p bo‘lgan xaridlarda tovarlar (xizmatlar) pozitsiyalari soni:

1 — 20 bo‘lganda - ekspertiza muddati 20 kalendar kungacha;

21 va undan ko‘p bo‘lganda- ekspertiza muddati 25 kalendar kungacha;

b) mazkur Nizomning 7-bandida ko‘rsatilgan hujjatlar taqdim etilgan va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lov amalga oshirilgan kundan boshlab quyidagi muddatlarda texnik topshiriqni ekspertizadan o‘tkazadi, xulosani QR-kod bilan tasdiqlagan holda davlat buyurtmachisiga (ariza beruvchi)ga taqdim etadi:

“kichik xarid” qiymati 6 000 BHMdan 25 000 BHMgacha bo‘lgan xaridlarda tovarlar (xizmatlar) pozitsiyalari soni:

1 — 20 bo‘lganda - ekspertiza muddati 10 kalendar kungacha;

21 va undan ko‘p bo‘lganda- ekspertiza muddati 15 kalendar kungacha;

“o‘rta xarid” qiymati 25 000 BHMdan 100 000 BHMgacha bo‘lgan xaridlarda tovarlar (xizmatlar) pozitsiyalari soni:

1 — 20 bo‘lganda - ekspertiza muddati 15 kalendar kungacha;

21 va undan ko‘p bo‘lganda - ekspertiza muddati 20 kalendar kungacha;

“murakkab xarid” qiymati 100 000 BHM va undan ko‘p bo‘lgan xaridlarda tovarlar (xizmatlar) pozitsiyalari soni:

1 — 20 bo‘lganda - ekspertiza muddati 18 kalendar kungacha;

21 va undan ko‘p bo‘lganda - ekspertiza muddati 25 kalendar kungacha.

Markazning ijobiy xulosasi Markazning elektron axborot platformasi orqali avtomatik ravishda portalga jo‘natiladi (qonunchilikda belgilangan boshqacha talablar bundan mustasno).

Tender hujjatlarini ekspertiza qilish yakunlari bo‘yicha xulosasi bilan birga, Markaz tomonidan o‘rganilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning bozor narxlari (tijorat takliflari, birja narxlari, internet va sun’iy intellekt ma’lumotlari) to‘g‘risidagi ma’lumotlar nusxalari/ko‘chirmalari ham (elektron yoki qog‘oz shaklda) taqdim etiladi”;

(ii) 1-ilovaning “4-bosqich” pozitsiyasi “Ijro muddatlari” ustunidagi “30 (o‘ttiz) kalendar kun ichida” so‘zlari “25 (yigirma besh) kalendar kun ichida” so‘zlari bilan almashtirilsin;

(iii) 2-ilovaning “4-bosqich” pozitsiyasi “Ijro muddatlari” ustunidagi “20 (yigirma) kalendar kun ichida” so‘zlari “tovar soni va summasidan kelib chiqib 10 (o‘n) kalendar kunidan 25 (yigirma besh) kalendar kunigacha” so‘zlari bilan almashtirilsin;

(g) 3-ilovaning 5-bandi ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma asosida amalga oshirishga ruxsat berilgan O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunining 71-moddasi birinchi qismining 2, 5, 8, 12, 13, 15 — 21-bandlari asosida tuziladigan, tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming (budjet buyurtmachilari uchun olti ming) baravari miqdoridan yuqori bo‘lgan shartnomalar, import kontraktlari va ularga qo‘shimcha kelishuvlar loyihalari, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno”.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi “Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-163-son qarori 4-bandining “b” kichik bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“b) Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Davaktiv agentligi) va “UzAssets” investitsiya kompaniyasi” AJ davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish oldi tayyorlash uchun professional tashkilotlarni (investitsiya vositachilari, ishonchli boshqaruvchilar, yuridik xizmat ko‘rsatuvchi va konsalting tashkilotlari, investitsiya banki, PR-kompaniyasi yoki boshqa ixtisoslashgan kompaniyalarni) qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda jalb etadi”.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-maydagi “Onkologik, gematologik va immunologik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy yordam ko‘rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-183-son qarorining 4-bandi birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“4. Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markaziga uning kuzatuv kengashi bilan kelishgan holda ushbu markazni rivojlantirish konsepsiyasini (master-reja va boshqa texnik hujjatlarni) ishlab chiqish va amalga oshirish uchun yetakchi xorijiy tibbiyot klinikasi hamda injiniring va konsalting kompaniyasi xizmatlarini, shuningdek ekspertlik, ilmiy va boshqa maslahat xizmatlarini, Markaz faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish uchun zarur tovarlarni (ishlar, xizmatlar), dori va sarflov vositalarini hamda tibbiyot jihozlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida xarid qilishga ruxsat berilsin”.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi “Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va unda kichik tadbirkorlik subyektlari ishtirokini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-249-son qarorining 5-bandi ikkinchi xatboshidagi “kamida bir ish kuni” so‘zlaridan keyin “(bundan “Davlat xaridlari to‘g‘risida” Qonunning 71-moddasi birinchi qismi 3, 4, 6, 7, 9 — 11-bandlarida nazarda tutilgan hollar hamda tabiiy monopoliya subyektlaridan xaridlar mustasno)” so‘zlari bilan to‘ldirilsin.

10. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi “Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 46-son qaroriga 1-ilovaning 3-bandi ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Bazaviy hisoblash miqdorining 6000 baravaridan kam bo‘lgan qurilish sohasidagi elektron tenderlarga, shu jumladan korporativ buyurtmachilarning o‘z mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladigan qurilish sohasidagi davlat xaridlariga ushbu Nizom talablari tavsiyaviy ahamiyatga ega”.

11. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-son qarorida:

(a) 3^1-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3^1. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

ILG5739

2023-yil 1-yanvardan boshlab Iqtisodiyot va moliya vazirligi har yilning yakuniga koʻra Yagona yetkazib beruvchilar reyestridagi roʻyxatni qayta koʻrib chiqadi hamda uni doimiy tarzda yangilab boradi;

2026-yil 1-yanvardan boshlab tovarlar boʻyicha budjet buyurtmachisi oʻzi joylashtirgan reja-jadvallarga mahalliy ishlab chiqaruvchilarning biriktirilgan ofertalarini oʻrganib chiqib, oʻz talablari va ehtiyojlariga mos kelgan ofertani tanlaydi, ofertadagi tovarning texnik parametrlari mos kelmaganda davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomilining boshqa turlaridan foydalanishi mumkin”;

(b) ilovada:

(i) quyidagi mazmundagi 6^1-band bilan toʻldirilsin:

“6^1. Budjet buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga tovarlar boʻyicha reja-jadvallar joylashtirilgan paytda ushbu ma’lumotlar mahalliy ishlab chiqaruvchilarga avtomat ravishda elektron xabarnoma orqali yuboriladi.

Bunda elektron xabarnoma kelib tushgan paytdan e’tiboran savdolar boshlanguniga qadar tovarlar ishlab chiqaruvchilarining tegishli tovarlar boʻyicha ofertalari reja-jadvallarga biriktiriladi”;

(ii) quyidagi mazmundagi 56^1-band bilan toʻldirilsin:

“56^1. Budjet buyurtmachilari auksionning qoʻshimcha sahifasidan foydalangan holda tovarlarning davlat xaridlarini mahalliy ishlab chiqaruvchilar oʻrtasida shartnoma qiymati bilan bogʻliq cheklovlarsiz amalga oshirishi mumkin.

Auksionning qoʻshimcha sahifasidan foydalanish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

budjet buyurtmachisi auksionda “mahalliy auksion” yacheykasi orqali savdolar oʻtkazilishi toʻgʻrisidagi e’lonni kamida ikki ish kuniga joylashtiradi;

davlat xaridlarining elektron tizimi davlat buyurtmachilari tomonidan tovarlar boʻyicha auksion oʻtkazilishi toʻgʻrisidagi e’lon joylashtirilgan paytda e’lon ma’lumotlarini mahalliy ishlab chiqaruvchilarga avtomatik ravishda elektron xabarnoma orqali yuboradi”.

Izoh: Mazkur ilova 4-bandining “a” kichik bandi *2026-yil 1-iyuldan,* 11-bandi *2026-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PF-259-son Farmoniga
5-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim hujjatlari

RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6119-son Farmoniga 4-ilovaning 7-bandi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-fevraldagi “Davlat xizmatchilari va mutaxassislarni xorijda tayyorlash hamda ularning salohiyatini yanada oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6168-son Farmoniga 6-ilovaning 4-bandi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi PF-6280-son Farmoniga 1-ilovaning 13-bandi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “Keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi PF-26-son Farmoniga ilovaning 31-bandi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi “Tibbiyotda xususiy sektor faoliyatiga qo‘shimcha qulayliklar yaratish va soha xodimlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-102-son Farmoniga ilovaning 3-bandi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-oktabrdagi “Toshkent metropoliteni faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari belgilanganligi munosabati

bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi PF-234-son Farmoniga ilovaning 6-bandi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi “Yoshlar siyosati va sport vazirligi tashkil qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi PF-92-son Farmoniga 1-ilovaning 38-bandi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-193-son Farmoniga 3-ilovaning 15-bandi.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi “Madaniyat va san’at sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi PF-214-son Farmoniga 1-ilovaning 16-bandi.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi “Suv xo‘jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash to‘g‘risida”gi PF-74-son Farmoniga 7-ilovaning 7-bandi.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi “Ijtimoiy himoyaga doir qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida”gi PF-75-son Farmoniga 1-ilovaning 6-bandi.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3953-son qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4151-son qarorining 19-bandi.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4300-son qarorining 16-bandi.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimidagi maktabdan tashqari ta’lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4467-son qarorining 20-bandi.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-dekabrdagi “Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4544-son qaroriga 2-ilovaning 6-bandi.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” davlat korxonasini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4629-son qaroriga 3-ilovaning 3-bandi.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi PQ-4678-son qaroriga ilovaning 3-bandi.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-iyundagi “Turizm sohasini sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat’iy rioya qilgan holda rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4755-son qaroriga 2-ilovaning 4-bandi.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805-son qarorining 19-bandi.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi

Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4938-son qaroriga 8-ilovaning 9-bandi.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-maydagi “Sog‘liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5124-son qaroriga 4-ilovaning 1-bandi.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5186-son qaroriga 4-ilovaning 2-bandi.

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-son qaroriga 2-ilovaning 4-bandi.

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-73-son qaroriga 9-ilovaning 3-bandi.

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-471-son qaroriga 8-ilovaning 1-bandi.

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-avgustdagi “Qishloq xo‘jaligi sohasiga ilg‘or raqamli texnologiyalarni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-257-son qaroriga 2-ilovaning 1-bandi.

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-maydagi “Onkologik, gematologik va immunologik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy yordam ko‘rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-183-son qaroriga 6-ilovaning 1-bandi.

29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-noyabrdagi “Tibbiyot muassasalarini farmatsevtika mahsulotlari va tibbiy jihozlar bilan ta’minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-408-son qaroriga 2-ilovaning 2-bandi.

Izoh: Mazkur ilova *2026-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.*

ILG5739

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PF-259-son Farmoniga
6-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini monitoring qilish

REJASI

T/r	Indikator (subindikator) nomi	O‘lchov birligi	Joriy holat *(2025)*	Maqsadli ko‘rsatkichlar					Ma’lumot berishga mas’ul idoralar
				2026	2027	2028	2029	2030	
1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*	*10*
MAQSAD: DAVLAT XARIDLARI SOHASIDA RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XARIDLAR ULUSHINI QISQARTIRISH									
I. Resurs ko‘rsatkichlari									
1.1.	Davlat buyurtmachilarining xaridlar uchun mas’ul bo‘lgan malakasi oshirilgan xodimlari ulushi	**foiz**	60	75	90	92	95	98	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar
1.2.	Jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo‘yicha sahifalar soni	**dona**	1	2	2	3	3	4	Iqtisodiyot va moliya vazirligi
II. Amaliyot ko‘rsatkichlari									
2.1.	Davlat xaridlarida raqobatli usullardan	**foiz**	58	70	72	74	78	80	Iqtisodiyot va moliya vazirligi,

	foydalanish darajasini oshirish ko‘rsatkichi *(bunda yagona yetkazib beruvchidan va monopol xaridlar inobatga olinmaydi)*								Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi
2.2.	Davlat xaridlarida iqtisod qilingan mablag‘ miqdorini oshirib borish (boshlang‘ich narx va shartnoma narxi o‘rtasidagi tafovut)	**trln so‘m**	14	18	21	22	23	25	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Hisob palatasi
III. Natijadorlik ko‘rsatkichlari									
3.1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xaridlar ulushi	**foiz**	26	18	15	12	10	8	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Hisob palatasi, Bosh prokuratura, manfaatdor vazirlik va idoralar
3.2.	Tadbirkorlik subyektlarining davlat xaridlaridagi faolligini ikki karra oshirish	**foiz**	35	40	48	55	62	70	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi
3.3.	Davlat buyurtmachilarining xaridlarida mahalliy mahsulotlar ulushi	**foiz**	68	72	76	80	83	85	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi

Izoh: 1.1-1.2, 3.2-3.3-bandlardagi maqsadli ko‘rsatkichlar yildan-yilga qo‘shilib boradi (o‘sib boruvchi).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMOYISHI 18.11.2025-yildagi F-59-SON

DAVLAT KORXONALARIDA TANNARXNI KAMAYTIRISH VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Global raqobat kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda barqarorlik va samaradorlikni ta’minlash, davlat sektorida xarajatlarni keskin kamaytirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, davlat korxonalarida tejamkor boshqaruv, raqamli iqtisodiyot va xalqaro korporativ standartlarga asoslangan ish uslubini joriy etish maqsadida qaror qilaman:

I. Maqsadlar

1. Mazkur farmoyishni qabul qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad etib 2026-yilda davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan korxonalarda (keyingi o‘rinlarda — davlat korxonalari) mahsulot tannarxini kamaytirish va faoliyati samaradorligini oshirish belgilansin.

II. Mahsulot tannarxini kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirish

2. Davlat korxonalarida mahsulot tannarxini kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirishning quyidagi asosiy yo‘nalishlari belgilansin:

(a) xarajatlarni har chorakda qayta tahlil qilish (spending review) orqali kelgusi davrdagi har bir yo‘nalish ustuvorligidan kelib chiqib, budjetni to‘liq “noldan” qayta ko‘rib chiqish (zero-based budgeting) amaliyotini yo‘lga qo‘yish;

(b) moddiy-texnik ta’minot xarajatlarini maqbullashtirish — o‘xshash turdagi tovar va resurslarni birgalikda xarid qilish orqali tannarxni pasaytirish, logistika jarayonlarini takomillashtirish;

(v) yordamchi funksiya va xizmatlarni autsorsingga topshirish, asosiy bo‘lmagan ishlarga ixtisoslashgan tashkilotlarni jalb etib, ortiqcha boshqaruv xarajatlarini qisqartirish;

(g) tejamkor ishlab chiqarish va me’yorlash tamoyillarini joriy etish, mehnat va resurslar sarfi bo‘yicha ilg‘or me’yorlarni amaliyotga tatbiq qilish orqali chiqimlarni kamaytirish;

(d) zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish orqali ishlab chiqarish va boshqaruv operatsiyalarini avtomatlashtirish, samaradorlikni oshirish, sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish;

(j) buxgalteriya hisobi va hisobotini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablari asosida shaffof yuritish orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash;

(z) xodimlar tashabbuslarini rag‘batlantirish — iqtisodiy samara beradigan takliflar uchun mukofotlar va boshqa rag‘batlantiruvchi choralarni ko‘rish orqali tejamkorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash;

(i) ochiqlik va jamoatchilik nazorati — kompaniyaning moliyaviy va ma’muriy faoliyati ochiqligini ta’minlash, jamoatchilikka axborot yetkazish hamda fuqarolar tomonidan nazorat va fikr-mulohaza bildirish uchun sharoit yaratish;

(k) energiya samaradorligi — energiya auditi o‘tkazish orqali energiya iste’molini tahlil qilish, tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda energiya resurslaridan oqilona foydalanish;

(l) tashkiliy tuzilma va kadrlar sonini maqbullashtirish — korxonalarning tashkiliy tuzilmasini qayta ko‘rib chiqish, takrorlanuvchi va samarasiz lavozimlarni qisqartirish hamda mehnat unumdorligini oshirish;

(m) resurslardan foydalanishda suiiste’molchilikka yo‘l qo‘ymaslik uchun ichki nazorat va komplayens tizimini kuchaytirish, moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini ta’minlash.

3. Davlat korxonalari bir oy muddatda mazkur farmoyishning 2-bandida belgilangan yo‘nalishlar asosida tannarxni kamaytirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan o‘z dasturlarini ishlab chiqib, kuzatuv kengashlarida tasdiqlasin.

4. Davlat korxonalarida tannarxni kamaytirish va samaradorlikni oshirish masalalarini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika komissiyasi (keyingi o‘rinlarda — Respublika komissiyasi) 1-ilovaga muvofiq tarkibda tuzilsin va uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

(a) farmoyish ijrosini ta’minlash doirasida davlat korxonalarida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning bajarilishi ustidan tizimli monitoring va tahlil olib borish;

(b) davlat korxonalariga xarajatlarni maqbullashtirish va samaradorlikni oshirish bo‘yicha dasturlar tayyorlashda metodologik yordam berish, ushbu yo‘nalishda zarur uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;

(v) xarajatlarni qisqartirish va ish unumdorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha ichki zaxiralarni aniqlash hamda ulardan foydalanish yuzasidan takliflar tayyorlash;

(g) to‘lov tizimini takomillashtirish orqali debitor va kreditor qarzdorliklarni kamaytirish;

(d) korxonalarning kredit portfeli bo‘yicha mavjud majburiyatlari, shu jumladan, qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish zaruratini tahlil qilish;

(j) kuzatuv kengashlari a’zolari tomonidan ularga yuklatilgan vazifalarning o‘z vaqtida va samarali amalga oshirilishini tahlil qilish;

(z) belgilangan choralarning natijadorligi yuzasidan har chorak yakuni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib borish.

5. Hisob palatasi (M. Abdullayev) ikki oy muddatda “UzAssets” AJ bilan uning boshqaruvidagi strategik yirik davlat korxonalari tomonidan 2026-yil uchun ishlab chiqilgan biznes-rejalarni tanqidiy ko‘rib chiqib, ularni takomillashtirish yuzasidan kuzatuv kengashlariga takliflar berishni ta’minlasin.

6. Respublika komissiyasi (J. Qo‘chqorov, M. Abdullayev) ikki oy muddatda:

(a) Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda davlat korxonalari boshqaruv xodimlari sonini 10 foizgacha qisqartirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga taklif kiritsin;

(b) davlat korxonalarining keng iste’mol tovarlari bo‘yicha umumiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida birgalikda xaridlarni tashkil etish ishlarini ta’minlasin;

(v) zarur hollarda, birgalikda xaridlarni amalga oshirish uchun qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertlar, ekspert tashkilotlari yoki maxsus xarid tashkilotchilari (professional agentlar yoki xarid komissiyalari) jalb etilishini ta’minlasin.

7. Quyidagilar:

(a) Davlat korxonalari uchun birgalikda xarid qilinishi mumkin bo‘lgan asosiy tovarlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

(b) Birgalikdagi davlat xaridlarini amalga oshirishning vaqtinchalik tartibi 3-ilovaga muvofiq;

(v) Davlat korxonalarida autsorsing asosida bajarilishi lozim bo‘lgan funksiya va xizmatlar ro‘yxati 4-ilovaga muvofiq;

(g) Davlat korxonalarida raqamlashtirish joriy etiladigan jarayonlar va axborot texnologiyalari mahsulotlari ro‘yxati 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Respublika komissiyasiga mazkur farmoyishga 2 — 5-ilovalarga davlat buyurtmachilarining asoslangan takliflaridan kelib chiqib, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish vakolati berilsin.

9. Davlat korxonalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va topshiriqlaridan tashqari boshqa hollarda homiylik yordamlarini ko‘rsatishni to‘xtatsin.

10. Iqtisodiyot va moliya vazirligi, “O‘zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg‘armasi” AJ hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi:

(a) 2025-yil 1-dekabrga qadar 2026-yil uchun tegishli korxonalar rahbarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) ishlab chiqib, tasdiqlash uchun aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga kiritsin;

(b) davlat korxonalari bo‘yicha eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari tasdiqlangandan so‘ng 2026-yil 1-fevralga qadar har bir davlat korxonasi bo‘yicha aksiyadorlar kutilmasini tasdiqlasin hamda eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari ijrosini monitoring qilib borish maqsadida Boshqaruv samaradorligi agentligiga kiritsin.

11. Belgilansinki:

(a) 2026-yil 1-iyulga qadar korxonada ERP axborot tizimini ishga tushirmagan yoki xarajatlarni qisqartirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarni bajarmagan kompaniya rahbarlarining tegishli o‘rinbosarlari lavozimidan ozod etiladi;

(b) 2026-yil 1-martdan boshlab “UzAssets” AJ boshqaruvidagi strategik yirik davlat korxonalarida:

(i) Buxgalteriya hisobini yuritish axborot tizimida moliyaviy rejalashtirish, xaridlar, shartnomalar ijrosi, g‘aznachilik to‘lovlari, savdo operatsiyalari va komplayens nazorat qilish imkoniyatini beradigan “Yagona g‘aznachilik” axborot tizimi joriy etiladi. Bunda “Yagona g‘aznachilik” axborot tizimi orqali mazkur korxona va ularning tizimidagi korxonalarning barcha daromad va xarajatlari markazlashgan holda amalga oshiriladi;

(ii) ishlab chiqarish va moliyaviy oqimlar, tannarx, investitsiya va kreditlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni onlayn tahlil qilish hamda biznes-reja ijrosini nazorat qilish imkonini beruvchi “Moliyaviy model” elektron dasturi ishga tushiriladi;

(iii) umumiy xizmat ko‘rsatish markazlari (Shared Service Centers) faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ular orqali yordamchi xizmatlar va funksiyalar (xaridlar, kadrlar, buxgalteriya, axborot texnologiyalari, yuridik xizmatlar) markazlashtiriladi;

(iv) biznes jarayonlarini avtomatlashtirish maqsadida Bojxona qo‘mitasi, Soliq qo‘mitasi, xarid operatorlari, davlat xaridlari elektron tizimining operatorlari, elektron hisobvaraq-fakturalarni rasmiylashtiruvchi operatorlar, xizmat ko‘rsatuvchi tijorat banklari va boshqa tashkilotlar axborot tizimlarini o‘zaro integratsiya qilishga ruxsat beriladi.

III. Farmoyish ijrosini tashkil etish, ta’minlash va nazorat

12. Mahsulot tannarxini kamaytirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish uchun davlat korxonalari ijroiya organlari rahbarlari, kuzatuv kengashlari raislari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga shaxsiy mas’uliyat yuklatilsin.

13. Raqamli texnologiyalar vazirligi bir oy muddatda yirik davlat korxonalari faoliyatida foydalanilayotgan axborot va raqamli mahsulotlarni xatlovdan o‘tkazish, raqamlashmagan jarayonlarni raqamlashtirish bo‘yicha dastur ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

14. Hisob palatasi (M. Abdullayev) ikki oy muddatda “UzAssets” AJ bilan birgalikda uning boshqaruvidagi strategik yirik davlat korxonalarida davlat xaridlarini monitoring qilish maqsadida “Masofaviy audit” avtomatlashtirilgan axborot tizimida yangi modulni joriy qilsin.

15. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi davlat korxonalarida mazkur farmoyish doirasidagi vazifalar ijrosida korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirsin.

16. Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi davlat korxonalarida birgalikda xaridlarni tashkil etish va boshqa belgilangan choralarni amalga oshirish jarayonida raqobat qoidalari buzilmasligini ta’minlasin.

17. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2025-yil 18-noyabr,
F-59-son

ILG5739

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi F-59-son farmoyishiga
1-ILOVA

Davlat korxonalarida tannarxni kamaytirish va samaradorlikni oshirish masalalarini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika komissiyasi

TARKIBI

M.R. Abdullayev	—	Hisob palatasi raisining birinchi o‘rinbosari, Respublika komissiyasi hamraisi
J.A. Qo‘chqorov	—	Bosh vazir o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri, Respublika komissiyasi hamraisi
J.T. Mirzamahmudov	—	energetika vaziri
B.F. Islamov	—	tog‘-kon sanoati va geologiya vaziri
Sh.X. Shermatov	—	raqamli texnologiyalar vaziri
I.R. Maxkamov	—	transport vaziri
X.B. Mustafayev	—	iqtisodiyot va moliya vaziri o‘rinbosari
A.J. Ortikov	—	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori
U.B. Davlatov	—	Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi raisi o‘rinbosari
F.M. Xamrayev	—	Hisob palatasi sho‘ba mudiri, Respublika komissiyasi kotibi

Izoh: *Respublika komissiyasi a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi F-59-son farmoyishiga
2-ILOVA

Davlat korxonalari uchun birgalikda xarid qilinishi mumkin bo‘lgan asosiy tovarlar

RO‘YXATI

1. Ofis qog‘ozi (turli o‘lchamlardagi yozuv qog‘ozlari).
2. Kanselyariya buyumlari (ruchka, daftar va boshqalar).
3. Kompyuterlar va periferiya qurilmalari (monitorlar, printerlar, tashkilot uchun boshqa texnikalar).
4. Nusxa ko‘chirish va bosma uskunalari hamda ularning sarf materiallari (kartrij, toner va boshqalar).
5. Maxsus ish kiyimlari va shaxsiy himoya vositalari (formali kiyim-bosh, kaska, qo‘lqop va h.k.).
6. Ofis mebellari (stol, stul, shkaf va boshqalar).
7. Gigiyena va tozalash vositalari (sovun, yuvish va dezinfeksiyalash mahsulotlari).

8. Oziq-ovqat mahsulotlari (xodimlar oshxonasi va umumiy ovqatlanish ehtiyojlari uchun).

9. Yonilg‘i-moylash materiallari (benzin, dizel yoqilg‘isi, motor moylari).

10. Avtotransport vositalari uchun ehtiyot qismlar (shinalar, filtrlar va boshqalar).

11. Qurilish va ta’mirlash materiallari (sement, bo‘yoq va boshqalar).

12. Yorug‘lik chiroqlari va elektrotexnika tovarlari (lampochka, kabel, rozetka va boshqalar).

13. Konditsionerlar va ventilyatsiya uskunalari.

14. Aloqa va telekommunikatsiya vositalari (statsionar telefonlar, mobil aloqa qurilmalari).

15. Standart dasturiy ta’minot mahsulotlari uchun litsenziyalar (operatsion tizimlar, ofis dasturlari va boshqalar).

ILG5739

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi F-59-son farmoyishiga
3-ILOVA

Birgalikdagi davlat xaridlarini amalga oshirishning vaqtinchalik TARTIBI

1. Ikki va undan ortiq davlat korxonalari bir turdagi tovarlar, ishlar, xizmatlarni xarid qilishda auksion, tanlash, tender vositasida birgalikdagi davlat xaridlarini amalga oshirishga haqli.

2. Ikki yoki undan ortiq davlat korxonalari birgalikdagi davlat xaridlarini amalga oshirishi uchun tomonlar o‘rtasida o‘zaro bitim tuzilishi talab etiladi.

Birgalikdagi davlat xaridlarini amalga oshirishda davlat korxonalarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi qonunchilikda belgilangan tartibda tomonlarning kelishuvi bilan tuzilgan bitimga asosan belgilanadi.

3. Birgalikdagi davlat xaridlarining tashkilotchisi sifatida davlat korxonalari o‘rtasida tuzilgan bitimga asosan davlat xaridlarini tashkil etish va o‘tkazish vakolati berilgan davlat korxonalaridan biri belgilanadi. Bitimga quyidagi axborotlar kiritiladi:

(a) bitim tomonlari to‘g‘risidagi;

(b) birgalikdagi davlat xaridi predmeti, hajmi, yetkazib berish muddati to‘g‘risidagi;

(v) bitim tomonlarining birgalikdagi davlat xaridlarini amalga oshirish uchun moliyalashtirish manbalari va miqdorlari to‘g‘risidagi;

(g) bitim tomonlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi haqidagi;

(d) birgalikdagi davlat xaridlari tashkilotchisi to‘g‘risidagi;

(j) tashkilotchiga bitimga asosan berilgan vakolatlar to‘g‘risidagi;

(z) xarid komissiyasini shakllantirish shartlari haqidagi;

(i) xarid qilish hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibi va muddatlari to‘g‘risidagi;

(k) birgalikdagi davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid qilish tartib-taomillari turi va savdolarni o‘tkazish muddatlari haqidagi;

(l) birgalikdagi davlat xaridlarini tashkil etish va o‘tkazish xarajatlarini to‘lash tartibi haqidagi;

(m) bitimning amal qilish muddati haqidagi;

(n) nizolarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi.

Birgalikdagi xaridlarni o‘tkazishda bitimga taraflarning o‘zaro munosabatlarini belgilovchi boshqa axborotlar kiritilishi mumkin.

4. Birgalikdagi davlat xaridlari tashkilotchisi xaridlarni amalga oshirish bo‘yicha komissiya tarkibini bitim tomonlari bilan kelishilgan holda tasdiqlaydi (bundan auksion vositasidagi davlat xaridlari mustasno).

5. Birgalikdagi davlat xaridlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi e’londa qonunchilikda belgilangan axborotlarga qo‘shimcha ravishda bitim tomonlarining manzillari, tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish manzillari (har bir tomon uchun), to‘lovlarni amalga oshirish uchun moliyalashtirish manbalari va miqdorlari ko‘rsatiladi.

6. Davlat xaridiga doir tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari yoki texnik topshiriqlar qonunchilik hujjatlariga muvofiq “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish

markazi” DUKda kompleks ekspertizadan o‘tkazilishi talab etilsa, kompleks ekspertizadan o‘tkazish uchun to‘lovlar bitim tomonlari o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

7. Birgalikdagi davlat xaridlari natijalariga ko‘ra shartnomalar har bir davlat korxonasi hamda g‘olib o‘rtasida belgilangan tartibda alohida-alohida tuziladi.

8. Ushbu vaqtinchalik tartib birgalikdagi davlat xaridlarini amalga oshirish tartibini belgilovchi tegishli normativ-huquqiy hujjat qabul qilinguniga qadar amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi F-59-son farmoyishiga
4-ILOVA

Davlat korxonalarida autsorsing asosida bajarilishi lozim bo‘lgan funksiya va xizmatlar
RO‘YXATI

1. Bino va hududlarni tozalash (klining) xizmati.
2. Qorovullik va obyektlarni muhofaza qilish xizmati.
3. Ishchilar ovqatlanishini tashkil etish (keytering) xizmati.
4. Xodimlarni xizmat avtotransporti bilan ta’minlash xizmati (haydovchi bilan birga).
5. Bino va inshootlarni texnik qo‘llab-quvvatlash (santexnika, elektr ta’minoti va boshqa muhandislik xizmatlari).
6. Ishlab chiqarish uskunalariga texnik xizmat ko‘rsatish.
7. Axborot texnologiyalari infrastrukturasiga xizmat ko‘rsatish (IT-autsorsing).
8. Dasturiy ta’minotni ishlab chiqish va texnik qo‘llab-quvvatlash xizmati.
9. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni yuritish xizmati.
10. Yuridik maslahat va huquqiy hamrohlik xizmati.
11. Xodimlarni tanlash va ishga qabul qilish (rekruting) xizmati.
12. Ish haqini hisoblash va kadrlar bo‘yicha hujjat yuritish xizmati.
13. Marketing, reklama va jamoatchilik bilan aloqalar xizmati.
14. Mijozlar uchun koll-markaz va axborot xizmati.
15. Pochta-kuryerlik va hujjat yetkazib berish xizmati.
16. Poligrafiya va bosmaxona xizmati (matbaachilik va nusxa ko‘paytirish ishlari).
17. Konferensiya, seminar va boshqa tadbirlarni tashkil etish xizmati.
18. Avtoparkni boshqarish va avtotransportlarga servis xizmati.
19. Laboratoriya sinovlari va sertifikatlash xizmatlari.
20. Ichki audit va konsalting xizmati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi F-59-son farmoyishiga
5-ILOVA

Davlat korxonalarida raqamlashtirish joriy etiladigan jarayonlar va axborot texnologiyalari mahsulotlari

RO‘YXATI

1. Ombor va zaxiralarni boshqarish axborot tizimi.
2. Ma’lumotlar bazasi va hisobotlarni vizualizatsiya qilish uchun yagona tahliliy tizim.
3. Ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatib borish va tahlil qilish tizimi (masalan, SCADA/MES platformalari).
4. Kompaniya budjeti va xarajatlarini rejalashtirish hamda tahlil qilish uchun biznes tahlil (Business Intelligence — BI) platformasi.
5. Energiya iste’molini monitoring qilish va tejamkorlikni tahlil qilish uchun axborot tizimi.
6. Buxgalteriya va moliyaviy hisobot jarayonlarini avtomatlashtirish tizimi (buxgalteriya uchun ERP moduli).
7. Xaridlar va tenderlarni elektron tarzda tashkil etish tizimi (elektron xaridlar e-procurement platformasi).
8. Elektron hujjatlar aylanish tizimi (Document Management System).
9. Kadrlar hisobi va maosh boshqaruvi uchun elektron HR-menejment tizimi.
10. Mijozlar bilan ishlash va sotuv jarayonlari uchun CRM (Customer Relationship Management) axborot tizimi.
11. Kompaniyaning veb-sayti va onlayn xizmatlar (raqamli marketing va kommunikatsiya) platformasi.
12. Axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta’minlash tizimlari.